

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI
fanidan maruzalar matni

O. Jo'rayev
U. Qosimov
M. Karimov

Jizzax-2005

K i r i s h

Adabiyot tarixi fani badiiy adabiyotning tarixiy taraqqiyot protsessini o'rganadi. Har bir xalqning madaniyati, san'ati va adabiyoti bo'lib, ular mazkur xalqning nomi bilan yuritiladi. Har bir xalq o'zining katta-kichikligidan qat'iy nazar jahon madaniyati xazinasiga hissa qo'shadilar. Shunga ko'ra o'sha xalqning adabiyoti, umumjahon adabiyotning ajralmas bir bo'lagidir. Qadimiy, boy madaniyatga ega bo'lgan o'zbek xalqi jahon ilm-fani, san'ati va adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk olimlar, shoirlar, san'at kadrlarni xadya etdi. O'z navbatida jahon xalqlari madaniyati, adabiyoti, san'atidan o'rgandi, o'rgatdi.

O'zbek adabiyoti o'zbek xalqi ma'naviy madaniyatining ajralmas bir bo'lagidir. O'zbek adabiyoti tarixi fani ana shu ma'naviy madaniyatning bo'lagi sanalgan adabiyot tarixining taraqqiyoti, buyuk san'atkorlar ijodi bo'yicha bahs etadi.

O'zbek adabiyoti tarixining predmeti.

O'zbek adabiyoti tarixi o'zbek xalqining qadim zamonlardan hozirgacha bo'lgan davrda yaratilgan adabiyotini o'z ichiga oladi. Bu adabiyot o'z navbatida bir-biridan tubdan farq qiluvchi: Oktyabr sotsialistik keyingi davrga bo'linadi. Oktyabr sotsialistik revolyusiyasigacha bo'lgan o'zbek adabiyoti antogonistik sinfiy jamiyatda vujudga kelganidan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan oqimlardan –reaktsion va progressiv oqimlar ya'ni xalq ommasini hamda ekspluatator sinf manfaatiga xizmat qiluvchi oqimlardan iborat. Bu hol o'zbek adabiyotining bir-biriga zid bo'lgan oqimlar kurashidan iborat bo'lganini ko'rsatadi. Bu kurashda xalqning orzu-umidlarini ifodalagan progressiv oqim o'sdi, chiniqdi. O'zbek adabiyoti g'azal, muhammas, musaddas, noma, ruboiy, doston, masal, hikoya va boshqa janrlarni o'z ichiga oladi. Shu sababdan o'zbek adabiyoti tarixi adabiy tur va janrlarning shakllanishi, rivojlanish tarixi hamdir.

O'tmish o'zbek adabiyoti "Boburnoma" (Bobur), "Shajarai turk", "Shajarai tarokima" (Abdulg'oziy), "Firdavs-ul-iqbol" (Munis va Ogahiy) kabi me'muar, "Toxir va Zuhra", "Buz o'g'lon", "Yusuf Ahmad", "Kitobi podsho Jamshid", "Qissayi Farhodu Shirin" kabi xalq kitoblarini "Xisrav va Shirin" (Nizomiy), "Xaft paykar" (Nizomiy), "Guliston", "Bo'ston" (Sa'diy), "Bahoriston", "Yusuf va Zulayho", "Salomon va Obsol" (Jomiy), "Shoh va gado" (Xiloliy), "Kalila va Dimna" (Hind eposi), "Ming bir kecha" (Arab ertaklari), "Ravzat-us-Safo" (Mirxond), "Badoyi-ul-aqoye" (Vosifiy), "Chor darvish", "To'tinoma" (Xiromiy tarjimai) tarjima asarlarini ham o'z ichiga oladi. Ulug' Oktyabrgacha bo'lgan o'zbek adabiyoti tarixi kursi o'zbek xalqining ko'p asrlik adabiyoti bilan, bu adabiyotning taraqqiyot yo'li bilan, adabiy oqimlar o'rtasidagi kurash bilan tanishtirib adabiyot namoyondalarining ijodi, ularning asarlarini tahlili, g'oyaviy-badiiy qimmatiga baho berib, badiiy adabiyot mafkuraning boshqa turlari o'rtasidagi aloqalarini, yozma adabiyot bilan og'zaki adabiyot o'rtasidagi hamkorlikni o'rgatishi barobarida o'tmish adabiyotidagi ilg'or traditsiyalarning davom ettirilishi va rivojlantirilishi kabi qator masalalarni o'z ichiga oladi.

O'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.

Adabiyot tarixi mansub bo'lgan xalq tarixining ajralmas bo'lagidir. Kishilar, "O'z hayotlarini ijtimoiy ishlab chiqarishda muayyan, zarur, o'zlarining irodalariga bog'liq bo'lmagan munosabatlarda ishlab chiqarish munosabatlarida bo'ladilar, bu munosabatlar ularning moddiy ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyotining muayyan bosqichiga muvofiq keladi. Bu ishlab-chiqarish munosabatlarining hammasi jamiyatning iqtisodiy strukturasi, real bazasini tashkil etadi, xuquqiy va siyosiy ustqurma shu real bazis ustiga quriladi va ijtimoiy ongning muayyan shakllari bu bazaga muvofiq keladi. "..."

kishilarning ongi ularning borligini belgilamaydi, balki aksincha, ularning ijtimoiy borligi ularning ongini belgilaydi". Shu bilan birga ustqurma va ijtimoiy ongning turli shakllari o'zaro munosabatda bo'lib jamiyatning bazisiga aktiv ta'sir etadi.

Ba'zi hollarda san'at va adabiyot jamiyatning umimiy taraqqiyotidan ilgari ketishi yoki qolishi mumkin. "San'atga kelsak, shu narsa ma'lumki, uning muayyan davrlarda gullab – yashnashi jamiyatning umimiy rivojiga, demak jamiyat tuzilishining skleti bo'lgan moddiy negizining rivojiga ham hech bir muvofiq kelmaydi. Masalan, greklarni yoki Shekspirni hozirgi xalqlar bilan solishtirsak, xuddi shuni ko'ramiz. Xalq tarixining bir qismi bo'lgan adabiyot tarixini o'rganishda marksizm-leninizm ta'limotiga ko'ra davrlashtirilganda bir tomondan jamiyatning umumiy taraqqiyot qonunlariga, ikkinchi tomondan adabiyot taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur va shart. Shunga ko'ra o'zbek adabiyoti tarixini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.
2. X-XII asrlar adabiyoti.
3. XIII asr va XIV asr boshlaridagi adabiyot.
4. XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.
5. XVII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot.
6. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.

Mustaqillikdan keyin davrlashtirish quyidagicha:

- 1) Qadimgi madaniyat-Antik davr adabiyoti;
- 2) VII-XII asrlarda Sharq uyg'onish davri adabiyoti;
- 3) XIII-XVI asrlarda yuksalish va taraqqiyot davri adabiyoti;
- 4) XVII-XIX asrning I-yarmida an'ana va yangiliklar davri adabiyoti;
- 5) XIX asrning II-yarmi XX asr bo'lahlarida mustaqillik uchun kurash davri adabiyoti;
- 6) Mustaqillik davri adabiyoti-deb davrlashtirildi;

O'tmishda o'zbek adabiyotining o'rganilishi.

Oktyabrgacha o'zbek adabiyoti tarixi izchil va ilmiy o'rganilmagan. Bunga feodal tuzumi va islom dini imkon bermas edi. Ilm-fanning ravnaqiga tish-tirnoq'i bilan qarshi bo'lgan reaksiya kuchlar kishilik jamiyatiga xizmat qiluvchi san'at, adabiyot ahlari va ularning asarlarini yo'q qilib yuborishga tarafdor bo'lganligidan zo'r berib din va shariyat qonun- qoidalarini taqib qilib, adabiyotshunoslikning taraqqiy etishiga imkon bermas edi. Lekin shunga qaramay o'zbek xalqi fanning turli sohalarida kashfiyotlar qilgani kabi

adabiyotshunoslik fanining taraqqiyotiga zamin tayyorladilar. Aniqrog'i adabiyotshunoslikka oid Navoiyning "Mezonul-avzon", "Majolisun-nafois", "Risolai-muammo", Boburning "Risolai aruz muxtasar", Taroziyning "Funun-ul balog'a", Fazliyning "Majmuai-shoiron", Tabibiyning "Majmuatush-shuaro" kitoblari yozilib, ularda vazn, qofiya, va boshqa masalalar qamrab olindi. Yaratilgan asarlar ayrim kamchilik va xatolariga qaramay o'z davrining adabiyotshunosligi, estetik tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Adabiyotshunoslikka oid fikr va mulohazalar maxsus asarlardan tashqari tarix, memuar, she'riy asarlarda ham bayon qilindi. O'tmishda o'zbek klassik adabiyoti masalalari bilan shug'ullangan (rus olimi M. Nikitskiy Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy asari, fransuz olimi Katrnyur "Muxokamat-ul-lug'atayn") nashr ettirdi, ayrim yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lsalar ham ular o'z asarlarida o'zbek adabiyotini kamsitib yoki soxtalashtirib, irqchilik nazariyasini olg'a surdilar. Mustamlakachilik va imperializmga xizmat qiluvchi asarlarida Sharq xalqlarini kamsitib ularni ilmiy fikrlashga qobiliyatsiz, madaniy jamiyat yaratishga qodir bo'lmagan xalqlar deb tuxmat toshini otadilar, Sharq xalqlarini jahon madaniyatini xazinasiga qo'shgan hissalarini inkor etadilar. Bu ham yetmaganidek, reaksiyon burjua sharqshunoslari panislomizm, panturkizm, paniranizm kabi kompopolitik qarashlarni targ'ib qildilar. Gibb "Turk poeziyasi tarixida O'rta osiyo adabiyotida mistitsizm hukmron desa, M. Belen, E. Braun va boshqalar o'zbek adabiyotining mevasini Ulug' Alisherni "Eron adabiyotini tekshirganda Yevropa olimlari qo'ygan xatolarni tabrikladilar.

Inqilobdan keyingi yillarda o'zbek adabiyotini o'rganish.

Inqilobdan keyingi yillarda o'zbek xalqining madaniy boyliklari umumjahon madaniyati xazinalariga qo'shildi. Ma'naviy madaniyatning ajralmas bo'lagi bo'lgan badiiy adabiyotni ilmiy asosda va izchil, har tomonlama tekshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu o'rinda Navoiy tug'ilgan kunining 500 yillik yubileyi munosabati bilan "Pravda"da e'lon qilingan quyidagi xabarni eslatish muhim ahamiyatga egadir: "... Navoiy besh asrdan beri o'zbek xalqining iftixori bo'lib keldi, lekin uning qimmatli go'zal asarlarini o'qish faqat, endi, Sovet hokimiyati zamonidagina, har bir o'zbek ishchisi va dehqoniga muyassar bo'ldi. Sovet hokimiyati o'zbek xalqini savodli qilib, madaniyatning bu ulug' samarasidan uni bahramand qildi.

... Navoiy singari madaniyat quyoshlarining ijodlari ko'pchilik mehnatkash xalq ommasiga muyassar bo'ldi va Navoiy kabi ulug' kishilarning nomlari xalq uchun juda qimmatli bo'lib qoldi. ("Pravda" 1948 yil 15 may) o'rta va oliy o'quv yurtlari programmalaridan mustahkam o'rin olgan o'zbek adabiyoti masalalarini A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi hamda Respublika oliy o'quv yurtlarining o'zbek adabiyoti kafedrasining olimlari shug'ullanadilar. Bu sohada qardosh xalqlar olimlarining beg'araz yordami ham benihoyadir. Sovet yozuvchilari Navoiy, Muqumiy, Furqat kabi buyuk so'z san'atkorlari klassik yozuvchilarning badiiy obrozlarini yaratish bilan birga ularning asarlari asosida ajoyib sahna asarlari ham yaratdilar.

***Islom dini ota-bobolarimizning muqaddas e'tiqodi.
U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida ma'naviyat,
boy meros va o'zligini omon saqlab qolgan.***

I. Karimov

KIRISH

Bu yil Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganining o'n besh yilligini tantanali nishonladi. Respublikamiz tarixida katta o'rin tutgan bunday tantanalar o'tgan asrning so'nggi yillari va yangi asr boshida bir necha marotaba o'tkazilishi jumhuriyatimiz ahlini g'ururu iftixorini yanada oshirib yubordi. Mustaqil Respublikamiz o'z bayrog'i, to'g'rosi, madhiyasiga ega bo'ldi. Jahondagi yuzdan ziyod mamlakatlar mustaqilligimizni tan olib, biz bilan turli sohalar bo'yicha aloqa qilishga kirishdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo, BMTning ulug' binosi oldida Respublikamiz bayrog'i tenglarning tenggi sifatida joy oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov BMT Bosh Assambleyasi minbaridan so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Xalqimiz tarixi o'z ildizlari bilan asrlar qa'riga borib taqaladi. Va uch ming yillikdan ko'proq davrni o'z ichiga oladi. Qadimiy Turon, Movarounnahr, Turkiston hududida ravnaq topgan davlatlar jahon madaniyatini rivojlantirishda yorqin iz qoldirgan...

Ma'naviy, ilmiy va estetik qadriyatlar xalqimizning turmush tarzida, an'anaviy madaniyatimizda muhim o'rin olgan. Biz o'zimizning tariximizni va jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz, SHarq mutafakkirlari Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad YAssaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek va boshqalarni e'zozlaymiz hamda ular bilan faxrlanamiz» degan edi. Haqiqatdan ham bizning ota-bobolarimiz o'tmishda jahon xalqlari madaniyatining taraqqiyotida qanchalik muhim rol o'ynaganliklari haqida so'z borar ekan oktyabr inqilobidan keyingi o'tgan 70 yillik davrda ularni tan olish o'rniga inkor etib va ularda yo'q bo'lgan so'z-fikrlarni o'ylab topib, ularni badnom qilib keldik. Endi biz ularning qilgan ishlarini to'g'ri baholash va o'z o'rnida faxrlanish imkoniyatiga egamizki, bu huquqni bizga e'lon qilingan mustaqillik berdi. Bo'lmasa, sotsialistik jamiyat davridagidek o'tmishda yashab ijod etgan Bahouddin Naqshband, Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Ollayor singari Islom olamida katta mavqega ega bo'lgan buyuk tasovvufchilarni mistik shoirlar, kishilarni «o'lmasdan burun o'linga chaqiruvchi» maddohlar deb o'zimizni o'zimiz noqisligimizni olamga namoyish qilib yurar edik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, Sohibqiron Amir Temur haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanada so'zlagan nutqida «Vatanimiz istiqlolini yanada mustahkamlash, uni himoya qilish, yurtimiz sha'ni-shavkatini yuksaltirish, adolat, insof va diyonat hukmron bo'lgan erkin jamiyat, mehnatkash

xalqimizga munosib farovon hayot qurish bizning insoniy va fuqarolik burchimizdir.

Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iymon-e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lishni talab qiladi. Bilaklarimizda kuch, qalblarimizda kelajakka ishonch bo'lmog'i shartdir.»¹ - deganida mutlaqo haq edi. Zero, biz o'z ota-bobolarimiz ma'naviy boyligini to'la o'zlashtirmay turib, ularga sodiq va sadoqatli avlod bo'la olmaymiz. Shu sababli yosh avlod o'tmish madaniy va ma'naviy merosimiz boyliklarini to'liq o'zlashtirmasdan komil inson bo'lib yetishuvi qiyin. Prezidentimiz o'rta tashlagan umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatuvchi g'oyalarga ergashib biz ushbu risolamizda ulug' bobokalonimiz, tasavvuf tariqatining buyuk vakili Ahmad YAssaviy ijodida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy qarashlar masalasining ayrim qirralarini tahlil qilishga urinib ko'rdik.

AHMAD YASSAVIY «HIKMATLAR»IDA TARIX VA HAYOT SADOSI

***Xoja Ahma d YAssa viy–Turkisto n mulkining
sha yx ulma sho yix idur. Ma qo ma ti o liy va
ma shhur, ka ro ma ti ma ta vo liy va no ma hsur
ermish... Turkisto n a hlining qibla i duo sidur».***

Alisher Navoiy

**Asarlar, o'n besh tomlik,
o'n beshinchi tom, T., 1968, 153-sahifa**

Sulton-ul Orifin nomi bilan mashhur bo'lgan Xoja Ahmad YAssaviy taxminan XI asr boshlarida Turkiston deb atalmish katta bir yurtning Sayram (ayrim manbalarda Saryom, Isfijob, Madinat al Bayzo, O'rinkent nomlari bilan ham yuritilgan) degan katta bir obod yurtda Ibrohim ota va Qorasoch momo (Oysha ona, Gavhari Xushnoz ham deb ataganlar) xonadonida dunyoga keladi. Sayram o'sha davrdagi ma'lumotlarga qaraganda juda obod joy bo'lib, 40 darvozali, 1700 dan ziyod raboti bo'lgan. Bu o'lka haqida Xitoy, Arab, Vizantiya, Eron va boshqa mamlakat tarixchilari va sayyohlari qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Mashhur sayyoh, tarixchi YOqut Hamaviy (XIII asr) o'zining «Mo''jam al buldon» asarida «Isfijobdan (ya'ni Sayram IX-XIII asrlarda shunday atalgan) hamma fanlarda mashhur, mohir bo'lgan bir guruh olimlar yetishib chiqqan. Shulardan biri Hasan Isfijobiydir» degan edi. Bulardan tashqari «Sayram» risolasida qayd etilganidek «Qur'on»ni tafsir qilgan Qozi Bayzoviy, 37 kitob muallifi Lutfulla Saryomiy, Kamoliddin Isfijobiy, Qutbiddin Alloma va boshqa yuzlab olimu fuzalolar yetishib chiqqan joy sifatida tarixiy kitoblarda qayta-qayta tilga olinadi.

¹ I. Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., O'zbekiston. 1998, 141-sahifa.

Bu alloma olimlarning barchasi o'sha davrda muhim bo'lgan hamma fanlardan xabardor bo'lish bilan birga, ma'rifat madaniyat rivojiga, shahar obodongarchiligiga katta hissa qo'shganlar. Kalomu Alloh, Hadisi sharif hikmatlarini omma orasiga keng yoyish, odamlarni turli bilimlardan bahramand etish borasida katta amaliy ishlarni bajarganlar. Turkiy millatga mansub elatning eng qadimiy madaniy markazi hisoblangan o'lkada Sayram ham yetakchi mavqega ega bo'lgan. Tarixchilar bu erda Turklar yurti Turkiston deb atalmish bu o'lkaning madaniy tarixi o'n ming yildan ortiqroq davrga to'g'ri keladi demoqdalar. Sayram «Risola»si muallifi shunday yozadi:

Asli Sayram Turkiston,
Xoja Ahmad bundan chiqqan.
YAssida vatan tutgan,
SHahri Sayram emasmu?!

Ahmad YAssaviy mana shunday obod, madaniy tomondan gullagan bir shaharda yashab hayot kechiradiki, bu uning o'z davri bilimlarini chuqur egallashiga katta sharoit yaratib bergan. Ahmad YAssaviy o'z tengqurlari orasida ilmga chanqoqligi, odobu axloqda boshqalarga namuna bo'larligi bilan ham ajralib turgan. U dastlabki bilimini otasi Ibrohim shayx va onasi Qorasoch momodan oladi. 6-7 yoshlarida esa Sayramdagi mashhur ulamolardan biri SHahobiddin Isfijobiy tarbiyasiga topshiradilar. Bu ustozning laqablari «Oq ota» bo'lib, uning soch-soqollarigina emas, balki qoshlari ham oq bo'lgani uchun erkalab shunday deb ataganlar.

Qutlug' zaminning sof chashmalaridan bahra olib voyaga yetgan Ahmad YAssaviy madrasadan uyga qaytishda ham ustozlari va madrasa hurmati uchun «Qur'on»ni boshiga qo'yib orqa bilan eshikdan chiqib ketar ekanlar. Mana shu kunlarni eslab shoir bir «Hikmati»da yozadi:

Besh yoshimda belim bog'lab, toat qildim,
Tatavvulo, ro'za tutib odat qildim.
Kecha-kunduz zikrin aytib rohat qildim.

Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga¹, - deganida ham katta haqiqat bor. Binobarin, musulmonlar o'z bolalarini yosh vaqtidayoq maktabga berib o'z zamonasining tarbiyasini to'la singdirishga uringanlar.

Diniy va tarixiy kitoblardagi ma'lumotlarga qaraganda Muhammad alayhissalom sahobalari bilan bir tovoqdagi xurmodan yeb o'tirganlarida tasodifan bir dona xurmo yerga tushib ketadi. Shunda Muhammad alayhissalom Turkistonda tug'ilajak Ahmad YAssaviy haqida bashorat qilib: - Bul Turkistonda tug'ilajak Ahmadning nasibasidur, - deydi. Bu ajdodimiz to'rt yuz yildan keyin tug'ilajak. Shu xurmoni qay biringiz egasiga yetkazasiz!?

Davradagilarning eng kattasi **Arslonbob**: - Agar lozim topsangiz, Allohdan inoyat bo'lsa, bu ishni menga yuklasangiz? - dedi.

Muhammad alayhissalom qachon Turkistonga borish lozimligini va tug'ilajak bolaning belgilari haqida aniq ma'lumot bergan. Oradan to'rt yuz yil o'tib Ahmad

¹ Ahmad YAssaviy, Devoni hikmat, T. 1991 51-sahifa, keyingi misollar ham shy manbadan olingan.

maktabdan kelayotgan paytida Arslonbobga duch keladi va ular salom alikdan keyin Ahmad bobodan xurmoni so'raydi. Arslonbob bolada aytilgan belgilarni ko'rib, omonatni unga topshiradi. Mana bu baytlarda o'sha onning tasviri berilgan:

Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdi.

Har sir ko'rib parda birla bukib yopti,

Bihamdilloh, ko'rdim dedi, izim o'pti.

Ul sababdan oltmish uchda kirdim yerga.

Ahmad so'ziga Xoja so'zining qo'shib aytilishiga sabab tarixiy kitoblarda bergan ma'lumotlarga qaraganda Ahmad YAssaviyning otasi Ibrohim shayx, katta bobolari Mahmud shayx, Iftixor shayx, Umar shayx va nihoyat Muhammad payg'ambarning amakivachchasi va kuyovi bo'lmish Hazrat Alining Hanifa ismli ayolidan tug'ilgan Muhammad Hanafiyning avlod-ajdodlariga borib taqaladi. Shu sababdan, Markaziy Osiyoda Hazrat Alining avlodlari Xoja nisbasini olganlar.

Bu haqda Musa Saryomiyning «Tarixi Eminiya» kitobida to'liq ma'lumot berilgan. Mazkur kitobda yozilishicha Ahmad YAssaviy Arslonbob bilan uchrashib payg'ambar tuhfasini qabul qilib olganlarida otasi vafot etib, yetim qolgan paytlari edi. Endi uning tarbiyasi bilan onasi Qorasoch ona bilan Arslonbob shug'ullanadi. Ahmad YAssaviy ustozlari bergan ruhoniylar va dunyoviy bilimlarni to'la o'zlashtirib bo'lgach, kelinoyisi SHahnozning taklifi bilan otasi Ibrohim qoldirib ketgan sufrani ochishga urinadi. Ibrohim ota vafoti oldida «O'g'lim voyaga yetgach, qabrim ichidagi sufra-dasturxonni ochsin» deganlar. Ocha olsangiz sizning kamolga yetganligingiz alomati, muborak bo'lsin iloyim! Bu haqda turk Qomusida ham bitilgan. Sufra ochilishida hozir bo'lgan xeshu aqrobalar, domla va olimlar yosh Ahmadga chin dildan fотиha beradilar.

Ahmad YAssaviy Muhammad alayhissalomning «Ilm egallang! Ilm sahroda-do'st, hayot yo'llarida-tayanch, yolg'izlik damlarida-yo'ldosh, baxtiyor damlarda-rahbar, qayg'uli onlarda-madadkor, odamlar orasida-zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir!» - degan aqidalariga amal qilgan. Bo'lajak Turkistonning shayx ulmashoyixi ilmlar maskani sanalmish Buxoroda shayx YUsof Hamadoniydan dars oladi. «Qur'on» va «Hadis» ilmlarini chuqur o'zlashtirgan Ahmad YAssaviy ustozlari YUsof Hamadoniy vafotidan biroz keyin garchi Buxoroda ustozdan keyin u boshlagan sulukni boshqarish huquqiga ega bo'lsa ham ona yurti Turkistonga yo'l oladi. Uning maqsadi Turkistonda turib barcha turkiy xalqlarga «Qur'on» va «Hadis»dan ma'lumot berish hamda turkiy xalqlar orasida Muhammad payg'ambar ta'limotini yoyish edi.

Ahmad YAssaviy tez orada turkiy xalqlar orasida mashhur bo'lib ketganligidan ayrim qora guruhchilar va diyonatsiz kishilarning qarshiligiga ham duchor bo'ladi. Hatto YAssaviy obro'sini tushirish uchun uning o'g'li Ibrohimni yosh bo'lishiga qaramay o'ldirib yuboradilar.

Quyidagi satrlar o'sha mash'um kunlar xotirasi yanglig' shoir hikmatlarida o'z izini qoldirganki, o'qigan kishi loqayd qaray olmaydi:

Dog'i hijron bag'rim ezdi, qani dardman,

Dono tuproq, nodonlarni ko'ksi baland.

Oyat, Hadis bayon qilsam qilmas pisand,

Ko'ksim teshing dardu g'amga to'ldim mano!

Jahonning yarmini zabt etgan Sohibqiron Amir Temur Turkiston yerlariga qadam qo'yganida Ahmad YAssaviy qabrini ziyorat qilib uning qabri ustiga katta maqbara qurdiradi. Uning niyati Ahmad YAssaviydek buyuk alloma qabrini ziyorat qilib, Ahmad YAssaviy qadamjolari va turbatlarini obod qilish bo'lsa kerak. Kimki bu alloma qabrini ziyorat qilar ekan, beixtiyor shoirning mana shu satrlari esga tushaveradi:

Eranlar jamol ko'rar, darveshlar suhbatinda,
YOronlar majlisinda, nur yog'ar suhbatinda.
Har kim suhbatga keldi, ko'ngliga ma'no to'ldi,
Ashoblar murod topdi darveshlar suhbatinda.

Ahmad YAssaviy ijodi haqida so'z yuritishdan oldin Ahmad YAssaviy va uning avlodlari haqida ham ayrim manbalar asosida ma'lumot keltirish qiziqarli va o'rinlidir. SHunga ko'ra quyidagi ma'lumotlarni diqqatingizga havola etamiz. Ba'zi manbalarning bergan ma'lumotiga ko'ra Abdurahmon Jomiyning kelib chiqishi nasl-nasabi turkiy xalqlarning ulug' shoiri Husayn SHayx Otoy va uning ota-bobolari nasliga borib ulanar ekan. Bu haqda E. SHodiev shunday yozadi: «Hozir kulliyoti asosan to'rt bo'limdan iborat bo'lib, qo'lyozmaning dastlabki ikki bo'limida Hozirning shu kunga qadar, fanimizga ma'lum bo'lmagan ikki risolasi mavjud.

Birinchi risola, avtor tomonidan nomlanmagan bo'lib, unda Hozir o'zining eng qadimiy avlodlaridan boshlab to bobosi SHayxullohi Hiraviygacha sanab o'tadi. SHunisi xarakterliki, Hozir sanagan avlodlar qatorida Xoja Ahmad YAssaviy, Sa'duddin Koshg'oriy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror kabilarning nomlari ham tilga olinadi»¹.

Endi biz qo'limizdagi mavjud ma'lumotlarga tayanib Husayn SHayx Otoy avlodlaridan ba'zilarining nomlari bilan tanishtirib o'tamiz:

1. Iftixor. 2. Mahmud 3. SHayx Ibrohim 4. Qorasoch momo 5. Latif ota 6. Mustafoquli 7. Ahmad YAssaviy SHayx Ibrohim o'g'li 8. Jamolxonim 9. Gavhar-Xushtari 10. Ahmad YAssaviy o'g'illaridan birining qabri Toshkentda-hozirgi Gospital bozori atrofida bo'lgan. 11. Hakim ota 12. Ko'sam SHayx-ul turk mashoyixlaridandur. Xoja Ahmad YAssaviy xonadonidandur 13. Xalil ota 14. Qurqut ota 15. Zanggi ota 1258 yilda vafot etgan. Uning nomida Zanggi ota qishlog'i bor. 16. Anbar ona Bo'g'roqxon qizi. 17. Ibrohim ota 18. Ismoil ota Ibrohim ota o'g'li 19. Ishoq ota Ismoil ota o'g'li (qabri Turbatda) 20. SHoir Husayn Otoy 21. Mansur ota 22. Xoja Bahouddin (Ismoil otaga nabira) 23. Xoja Boyazid 24. Xoja Xalil ota 25. Mavlono Sa'duddin Muhammad Koshg'oriy (vafoti 1456 yil, Alisher Navoiyning ustozlaridan biri) 27. Xoja Ubaydulloh Ahror (1399-1489) «Volidiya»-«Ona» nomli doston yozgan. 28. Abdurahmon Jomiy Ahmad Jomiy o'g'li (1441-1493). 29. Mavlono Muhammad Jomiy, Ahmad Jomiy o'g'li (Abdurahmon Jomiyning inisi) 30. Amir Burhoniddin Otoulloh Otoy (vafoti 1497 «Javohir ul asmo» nomli asar yozgan va madrasalarda talabalarga dars bergan. 31. Amir Burhoniddin Otoulloh Mahmud Husayniy Otoy (tahminan 1430-1440-1513 yil) Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiyning sevimli

¹ Mirahmad Mirxoldor o'G'li, Xoja Ahmad YAssaviy, Almata, 1992, 30-sahifa.

shogirdi bo'lgan «Risolai Qofiya» (Qofiya haqida risola), «Badoyi' ul sanoyi'» nomli asarlari bor. 32. Amir Jamoliddin Otaulloh Fazlulloh Asiliy o'g'li al-Husayniy Otoyiy vafoti 1520 yil. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning sevimli shogirdi bo'lgan. «Ravzat ul ahhob fi siyar-an-nabiy va-l-ashobi» (Payg'ambarlar va sahobalar hayotida Jannat bog'i) degan ikki jildidan iborat asar yozgan. 33. Kamoliddin Husayniy Voiz Ali al-Koshifiy o'g'li (tug'ilishi taxminan 1440-1450 yillar, vafoti 1504-1505 yillar). Otasi Ali Eronning Koshon nomli shahridan bo'lgani uchun al-Koshifiy deb atalgan. Abdurahmon Jomiy Kamoliddin Husayn Voizning tug'ishgan opasiga uylangan edi. SHuning uchun ham unga ustozlik qilgan. U qomusiy bilim egasi va usta notiq bo'lgani uchun «Voiz-notiq» deb taxallus olgan. Kamoliddin Husayn Voiz 1470 yildan boshlab Alisher Navoiy bilan do'stlashib, unga atab «Mavohibi oliya» (Oliy tuhfa) nomli asarini yozgan. Turkiy va forsiy tilda ikki devoni bor. Sakkizta ilmiy asar muallifi. 34. Faxriddin Ali Safiy Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy o'g'li (vafoti 1533 yil) U «Latoyif ut-tavoif» (Turli toifalar latifalari) degan asar yozgan. 35. Sulaymon xoja. 36. Abdulvahhob Xoja Orif-shoir (Orif taxallusi, 80 yoshda vafot etgan) 37. SHayx Ali Xoja SHavqiy Abdulvahhob Xoja Orif o'g'li, shoir (63 yoshda vafot etgan) 38. Bobojon Xoja (Vajdiy va Jiddiy taxalluslari bilan she'rlar yozgan. Abdulvahhob Xoja Orif o'g'li. Ibodullo Sayid Poshsho xoja (Poshsho xoja) va Xoja taxalluslari bilan ijod qilgan. Abdulvahhob xoja Orif o'g'li (1478-1566-1568 yil) «Gulzor» va «Miftoh ul-adl», «Maqsad ul-advor» nomli ta'lim tarbiyaga oid asarlar muallifi. 39. Xoja Bahouddin Hasan Xoja Nasriy (Nisoriy) Ibodulla Sayyid Poshshoxoja o'g'li (1515-1595) «Muzakkir ul-ahbob» nomli asar yozgan. 40. Abdusalom 41. Boboxoja 43. SHoyimxoja 44. Junaydullo Hoziq Hakim (1843) Amir Nasrullo tomonidan qatl etilgan. U «YUusuf va Zulayxo» dostonini yozgan, tarjimalar bilan ham shug'ullangan. G'azallari jamlangan «Devon»i topilmagan. 45. Muhammad Azim Nadim-shoir Hoziqning jiyani.¹

MA'NISIGA YETGANLAR, YERGA QO'YAR BO'RKINI!!!

Xoja Ahmad YAssaviy turkiy tasavvuf she'riyatining yirik vakili bo'lib, «Devoni hikmat» to'plami bilan jahon xalqlari orasida, xususan Turkiy xalqlar orasida mashhur bo'lgan. Uning «Devoni hikmat» she'riy to'plami «Qur'on» oyatlari va Hadislar asosida yaratilgan va unda din va tasavvuf ta'limoti targ'ib qilingan. Xoja Ahmad YAssaviy yuksak ruhiy holatlarni kuylagan tasavvuf shoiri bo'lganidan uning asarlari uzoq yillardan beri o'quvchilar e'tiborini qozonib kelmoqda. Lekin shuni e'tirof etish kerakki, Xoja Ahmad YAssaviy «Hikmatlar»ini o'qigan har bir kitobxon turli mushohadaga ega bo'lganligidan uning mazmunini turlicha qabul qiladilar.

Biz yuqorida eslatib o'tganimizdek Ahmad YAssaviy o'z bilimini oshirish uchun Turkistondan Buxoroga borib, YUusuf Hamadoniyan saboqlar olib, bilimni chuqurlashtiradi. Ahmad YAssaviy YUusuf Hamadoniyan qo'lida ta'lim olar ekan undagi fikr va hayotga munosabati o'zgacha holatda bo'lishini ko'rish mumkin.

¹ Mirahmad Mirxoldor o'g'li. Xoja Ahmad YAssaviy, Almata, 1992 yil 30-31-sahifalar.

SHoirning ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga yondoshishi ustoz tarbiyasida o'zgacha sodir bo'ladi. Ahmad YAssaviy o'z «Hikmat»larida e'tirof etganidek, o'z davrining farzandi o'laroq Islom dini Islom aqidalari asosida ijod qiladi. Uning she'rlaridagi aks-sadoga qaraganda g'addorlar, zolimlar va islom aqidalarini yaxshi tushunmaydigan kishilar Ahmad YAssaviy olg'a surgan fikrlarga qarshi boradilar. Hatto ayrim islom dini vakillari turkiy xalqlar orasida islom dinini yoyishda «Qur'on» ma'nosini oddiy kishilarga tushunarli tilda berishga qarshi bo'lishgacha boradilar:

Xushlamaydur olimlar bizni oyg'on turkini,
Oriflardan eshitsang, ochar ko'ngil mulkini,
Oyat, hadis, ma'nisi turki bo'lsa muvofiq,
Ma'nisiga yetganlar, yerga qo'yar burkini.

YUqorida keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki, Ahmad YAssaviy o'z ijodini insonparvarlik g'oyalari bilan sug'organligi uchun ham uning nomi xalq orasida keng tarqalgan. CHunonchi, bir hikmatida: urush tufayli bolalar ota-onadan yetim, xotinlar beva bo'lib qolganligi haqida g'am chekib, alam bilan yozgan edi:

Onolari termulibon qoldi hayron,
Gul yuzlarin za'farondek sarg'artibon,
«Voy qulunim, bo'tam!» tebon, oh uribon,
YAqo yirtib sochlarini yuldi, ko'rung!..
Qizil guldek norasida ul o'g'lonlar, -
Dunyo o'lib kim ko'rubtur mundog' dog'lar!..
Majnun yonglig' devonadek bo'ldi sog'lar,
Ojiz bo'lub musulmonlar qoldi, ko'rung!..
«Erkim bo'lsa, SHohimardon bo'lg'ay erdim,
Bu ilkimga olmos. qilich olg'oy erdim,
Bu kofirlar cherisini qirg'oy erdim,
Ilojim yo'q!» teyu, armon qildi, ko'rung!

«Hikmatlar»dagi ichki mazmunga qaraganda insonlar orasida mehr-oqibat ko'tarilganligi, adolatsizlikning avj olishi tufayli bu kulfatlar Xudo tomonidan sinov uchun yuborilgan deb uqtiradi. Va bunday nohaq ishlarning avj olishiga sabab, davlat tepasida nokasu-xasis, bediyonat kishilar turganligidan deb biladi:

Na onoda rahm qoldi, na otoda,
Og'a-ini bir-biriga mo'joroda.
Musulmonlar da'vo qilur, ichar boda,
Mastlig' bilan qarindoshdan tondi ko'rung!
Nokas, xasis bediyonat qullar hokim,
Moumanlik haddan oshib bo'ldi zolim,
Xalq ichida xor bo'ldilar: darvesh, olim.
Himoyati xalqni kofir bo'ldi ko'rung.

Keltirilgan misollarda bir vaqtlar Ahmad YAssaviyni tanqid qilgan tanqidchilar aytganidek, u kishilarni yovlarga, bosqinchilarga bo'ysunishga chaqirmaydi, aksincha, Hazrat Ali misolida ularni dushmanga qarshi kurashda shafqatsiz bo'lishga, musulmon dinidagi kishilarni istilochilar zulmidan qutqarishga undaydi:

Minib chiqsa Duldulg'a, yerga tushar zilzila,

Kofirlarga g'ulg'ula, sheri Xudo Alidur!
Dushmanlarga muqobil, bo'ldi kofirga qotil,
Zoyil qilgan botilni, sheri Xudo Alidur!

YUqoridagi misralarni o'qir ekanmiz, Ahmad YAssaviyning boshqa dindagi xalqlar dushmani deb o'ylash noto'g'ri. Zero, islom dini hamma xalqlarni Odam ato va Momo Havo farzandlari deb biladi. SHunisi aniqki, islom dini xalqlar o'rtasidagi irqiy, nasliy va millatni tan olmay hammani yagona Allohning teng huquqli bandalari deb ta'lim beradi. SHu naqtai nazardan kelib chiqib Ahmad YAssaviy quyidagilarni yozgan:

Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,
Ko'ngli qattig' dilozordan Xudo bezor, -

deganida g'ayriddin vakillarini emas, balki, g'ayriddin nomi bilan ish yurituvchi bosqinchi-zolimlarni nazarda tutganligi ayon bo'ladi.

Ahmad YAssaviy ruhiyatini to'laroq tushunish uchun uning hayoti va ijodiga chuqur ta'sir etgan ustoz YUsuf Hamadoniy hayoti bilan tanishish foydadan holi emas, albatta.

YUsuf Hamadoniy 1048 yilda Hamadon shahriga yaqin bo'lgan Buzunjird qishlog'ida tug'ilgan. U zamonasining mashhur olim so'filarining asarlarini chuqur mutolaa qilgan. 1121-1122 yillarda u Bog'dodga borib, Nizom ul-Mulk tomonidan qurdirilgan «Madrasai Nizomiya»da dars beradi. Dunyoning eng go'zal shaharlari: Isfaxon, Samarqand, Buxoro shaharlarida bo'ladi. Iroq, Xuroson, Movarounnahr o'lkalarida sayohat qiladi. Marv va Hirot shaharlarida shayxlik qildi. Umrining so'nggi yillarini Buxoroda o'tkazadi. Halim tabiatli ozg'in kishi bo'lgan. U atrofida qilargalarga hurmat bilan qaragan. YUsuf Hamadoniy juda ko'p asarlar yozgan bo'lsada ular to'la bizgacha yetib kelmagan. 1140 yilda Hirotidan Marvga qaytayotganda yo'lda vafot etgan. Hadis, fikh, zohir va botin ilmlari, tabiat qonunlarini yaxshi bilgan alloma o'z shogirdlari: Ahmad YAssaviy, Abduxoliq G'ijduvoniylarga to'la o'rgatgan edi. SHu sababli YUsuf Hamadoniy vafot etgandan so'ng o'rniga uchinchi xalifasi Ahmad YAssaviy biroz muddat Buxoro xonaqohida raislik qilib qoladi. Ona yurti sog'inchisi, Turkiston xalqiga bo'lgan e'tiqod, Ahmad YAssaviyni tez orada o'z o'rnini Abduxoliq G'ijduvoniyga topshirib, Turkistonga ketishga da'vat etar edi:

Xurosonu SHomu Iroq niyat qilib,
G'ariblig'ni ko'p qadrin bildim, mano!
Tug'g'on yerim ul muborak Turkistondin
Bag'rimga toshni urib keldim, mano! -

deb yozganida ajab emaski Vatan, ona yurt do'stlar sog'inchisini qayta-qayta eslagan.

Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda YUsuf Hamadoniy ham, Ahmad YAssaviy ham o'z davrining hamma ilmlaridan xabardor bo'lganlar. SHunday katta obro' va bilimga ega bo'lishlariga qaramay, faqirona hayot kechirganlar; mulkdorlar va mansabdorlardan yiroq bo'lib yashaganlar, faqirlarga o'zlarini yaqin tutib ularga yordam berish choralari izlaganlar. Zamona nosozligidan, zulimlar zulmidan bezgan shoir payg'ambar yoshiga yetganda bu dunyo tashvishlaridan voz kechib yer ostida hayot kechirgan. SHunga qaramasdan hayotiy bilimlar va diniy

bilimlardan voz kechmagan. Uning oldiga turli ilm sohiblari, muridlari kelib ketib turganlar. YAssaviy o'zining bu ishini sababini bir hikmatida shunday sharhlagan edi:

Dono topmay, yer ostiga kirdim, mano.

Darhaqiqat uning davrida ijtimoiy adolatsizlik avj olgan bir g'addor zamon ediki, YAssaviy shu ma'shum zamonda og'ir hayot kechirayotgan yetim-yesirlar, g'ariblar, faqiru ojizlarning og'ir ahvoliga achinadi. O'zi ham yetim o'sganligi esiga tushib mungli satrlar bitadi:

Yetimni ko'rsangiz, og'ritmangizlar,
G'aribni ko'rsangiz, dog' etmangizlar.
Yetimlar bu jahonda xor ekandur,
G'ariblar ishi dushvor ekandur.

YOki:

G'ariblarni ko'rgan yerda og'ritmangiz,
G'ariblarga achig'lanib so'z qotmangiz,
Zaif ko'rib g'ariblarga tosh otmangiz,
Bu dunyoda g'ariblikdek balo bo'lmas!

SHoir va alloma qalbidan sitilib chiqqan bu alamli satrlar o'sha zamon tarixiy va ijtimoiy sharoitini to'g'ri tasavvur etishimizga katta yordam beradi. YAssaviy e'tiqodicha bu dunyo o'tkinchi dunyo bo'lib, kishilar mansabu, mol-dunyolariga mag'rur bo'lmasligi, haqiqiy dunyo Qiyomat kunida sodir bo'lib, u davrda hamma barobar yagona Alloh oldida javob beradi. Har kim o'tkinchi sinov uchun kelgan dunyoda qilgan yaxshiligu yomonliklariga hisob beradi. Bas shunday ekan bu qisqa muddatli hayotda topgan obro' e'tibori bilan mag'rurlanmasdan, adolat va insof bilan ish yuritish lozim. Mana bu haqda YAssaviy nimalarni ta'lim beradi:

Beshak biling, bu dunyo, barcha xalqdin o'taro,
Ishonmag'il molingg'a, bir kun qo'ldin ketaro,
Oto-ono-qarindosh, qayon ketti? - fikr qil
To'rt oyoqlig' cho'bin ot bir kun senga yetaro.
Dunyo uchun g'am ema, Haqdin o'zgani dema,
Kishi molini ema, Sirot uzra tutaro,
Ahli ayol, qarindosh hech kim bo'lmaydur yo'ldosh,
Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro.

Mazkur satrlardan kelib chiqadigan xulosa shundaki, har kim bu dunyoga sinov uchun kelgan. U qisqa umri davomida nima qilishi, ya'ni Haq taolo yodi uchun, uning topshiriqlarini bajarishi uchun qilinajak ishlardan qaysilariga amal qildi va qilmadi tekshirilib boriladi. Bu ishlar ichida eng muhimi adolatdir. Adolat har qanday ishdan ulug', mansab martabasiga erishgan kishi Hazrat Umar kabi adolatli ish tutmog'i lozim. Hazrat Umar Xalifa bo'lishiga qaramay o'g'lini gunohi uchun uni shavqatsiz jazolaydi. Bu tariqa aytilgan fikrlar zamonamiz ahli amaldorlari uchun ibrat bo'lmog'i kerak:

O'g'lin chorlab kelturg'on, darra urub o'lturg'on,
Adl qilib yo'l surg'on adolatlig' Umardir.

YAssaviy e'tiqodiga ko'ra mansab kursisiga o'tirgan shoh albatta adolat bilan ish yuritishi, qozilar esa to'g'ri hukm qilishini talab qiladi:

Xush davlatdur, viloyatda podshoh bo'lsa,
Odil bo'lib, bir mo'minni rozi qilsa,
O'shal qozi barcha elni rozi qilsa.

Bir asrga yaqin hukm surgan sotsialistik tuzum deb atalmish jamiyat vakillari adolat talab qilib, o'z davri amaldorlaridan ozor chekkan bu alloma shoirni mistik shoir, kishilarni o'lmasdan oldin o'lishga chorlab hayotdan bezdiradi, boy va amaldorlarga qaram bo'lishga targ'ib qilgan, deb uning ijodini noto'g'ri talqin qilib keldilar va yoshlarimizga noto'g'ri tushunchani singdirdilar. Aslida shoir adolat va to'g'rilikni talab qilgan va molu dunyoga xirs qo'ymaslik, har bir ishni me'yorida tutish, mehnatkashlarni talon-taroj qilish hisobiga boylik orttirmasdan «to'g'ri yurib, to'g'ri yemoqlar bo'lsa burak»ni uqtirgan.

Bunday umuminsoniy g'oyalar YAssaviy «Hikmatlar»ida istagancha bor:

Sizni, bizni Haq yaratti toat uchun,
Ey, bul'ajab, ichmak, yemak, rohat uchun.

Ahmad YAssaviy diniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlarni ham targ'ib qilgan. Uningcha dunyoviy ilmlarsiz, ya'ni shariatsiz tariqatning haqiqiy emasligi uqtiriladi. Avval shar'iy ishlarni bajargan kishigina tariqat ishlarini bajara olishi mumkin:

Har kim qilsa tariqatni da'vosini,
Avval qadam shariatga qo'ymoq kerak.
SHariatning ishlarini ado qilib,
Ondin so'ngra bu da'voni qilmoq kerak.

Ma'lumotlarga qaraganda Ahmad YAssaviy o'z majlislarida xotin-qizlar bilan birga bo'lishi, ular bilan birga zikr tushishi haqida ham so'z yuritiladi.

Komil musulmon, piri murshid Ahmad YAssaviy Muhammad payg'ambar a'mollariga to'liq rioya qilgan holda ish tutgan. Zero, payg'ambarimiz o'z «Hadis»laridan birida «Ilmni talab qilish har bir musulmon erkak va musulmon xotonga farzdir» deganlar. Ahmad YAssaviy mana shu g'oya tarafdori bo'lgani uchun ham erkak va ayollar tengligini himoya qilgan. YAssaviy tariqatiga ergashgan Temur va temuriylar ham bu Hadisning mazmuniga loyiq ish tutganlar. Va Ulug'bek bu shiorni madrasalar peshtoqiga yozdirib qo'yganlar.

Ahmad YAssaviy xotin-qizlarga sof ahloq nuqtai nazaridan yondoshganligidan ularni hurmat qilishga, xotin-qizlarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'luvchilarni qoralaydi. «Jannat onalar oyog'i ostida» bo'lgan bu buyuk zotlarni hurmat qilishga undaydi:

«Tolibman!» deb oyturlar, valloh-billoh noinsof,
Nomahramg'a boqarlar, ko'zlarida yo'q insof!

O'z ahamiyatini hali ham yo'qotmagan mana bu satrlar oila nomusi uchun zarar bo'lgan vafodorlikni targ'ib qilish bilan birga o'z burchini unutgan ayollarga nisbatan qattiq so'zlar aytgan:

Ulug'-kichik yoronlardan adab ketdi,
Qizu zaif juvonlardin hayo ketdi.
Hayosiz qavm, ajoyiblar bo'ldi, do'stlar!

YAssaviy bunday erkin fikrlarni, zamona zo'ravonlariga qarata aytgan keskin fikrlari uchun ta'qib etilgan, turli tuhmat balolariga giriftor bo'lgan. Imoni butun, butun fikri-zikri adolat, to'g'rilikni targ'ib qilgan shoir, bunday malomatlardan qo'rqmay o'z tariqatini davom ettirgan. Uning xalq orasida obro'si oshib ketganligidan qo'rqib qolgan johillar turli xil ig'vo tarqatadilar. Hikoyalardan birida keltirilishicha o'sha davrning katta din ulamolaridan biri imom Marvoziy o'z muridlari bilan Ahmad YAssaviy ishlarini tekshirish uchun Turkistonga yo'l oladilar... Rivoyat qisqa bo'lgani uchun to'la keltiramiz.

Xoja Ahmad YAssaviy mashvaratlari dong'i kun-sayin atrofga keng yoyilib borardi. Hatto ana shunday yig'inlar, suhbatlarga xotin-xalajlar ham qatnashar, hatto yuzlari, sochlari ochilib, suhbatga mahliyo bo'lgan vaqtlar ham bo'lardi. Dillariga Haq ishqi tushgach, Majnun bo'lib qolishni ayblash noo'rindir:

Jilva qilg'il, telba qilg'il, shaydo qilg'il,
Majnun qilg'il, elu xalqqa rasvo qilg'il,
SHam' ko'rsatib parvonadek axgar qilg'il,
Har ne qilsang oshiq qilg'il parvardigor!

Hazrat Sulton haqidagi turli rost-yolg'on so'zlar Marv shahriga ham yetib boradi. Marvoziy degan mudarris shahar mufti mullolarini yig'ib, Ahmad YAssaviyga borib, turli qaltis savollar bilan «yengib» kelish niyatini maslahatlashadilar. Ular ancha vaqt uch mingta savol tayyorlashib, yodlashib oladilar. Marvoziy boshchiligida 400 mushovvir va 40 mufti Turkiston sari yo'lga tushadilar. Ko'ngillarida g'arazli shubha, yodlagani murakkab savollar...

Hazrat Sulton ikki shogirdini alohida-alohida yoniga chaqirib Marvliklar maqsadini ularga yetkazadi.

- CHirog'im, - deb murojaat qildi sevimli shogirdi Muhammad Donishmandga. - Mingta savolini alarning hofizasidan chiqorib, faromush etgaysiz. Alar Tangrining inoyatini bir ko'rib qo'yishsin. - Bosh ustiga taqsim, - shogird orqasi bilan yurib tashqariga chiqdi. Ikkinchi sevimli shogirdi Sulaymonga ham shunday topshiriq berdi. Ertasiga peshin paytida kutilayotgan mehmonlar yetib kelishgan edi. - Allo Taoloning bandalarini to'g'ri yo'ldan ozg'irayotgan senmisan?! - dedi mudarris dag'dag'a bilan. Marvdan kelgan mehmonlar bu yerdagi ustozu shogirdlarning kiyim-boshlariga qarab iztehzoz qildi.

- SHu yolong oyoqlarmi, hali shogirdlaring?!

Xoja Ahmad qizishmadi. Birorta qarshi so'z ham demadi.

- Xush kelibsizlar. Mehmonimiz bo'linglar! Bafurja so'zlasharmiz. Tangri nasib etsa tanishib ham olarmiz, - dedi Hazrat. YOnidagilariga qarata: - Mehmonlar ikki uch kun dam olishsin, so'ngra...

Uchinchi kun kattagina supacha tayyorlab, atrofi maydon qilindi. Turkiston ahlining kattayu kichigi yig'ilgan. Gapning qisqasi mehmonlar ishonch hosil qilish uchun savol beradigan bo'ldilar. Hazrat shogirdlari bilan baholi qudrat javob berishga kelishib oldilar.

Dastavval so'z navbati mudarris Marvoziyga berildi. U minbarga ko'tarilib: bizlar savol beramiz javobi sizdan...

- Inshoollo kim haq, kim nohaq, ma'lum bo'lg'usidir, - Marvoziyni so'zini bo'ldi Muhammad Donishmand va Hazratning nazaridan ma'no uqib yig'ilganlardan uzr so'radi.

Hammaning nazari madarrisda. U viqor bilan nimalarnidir aytgisi kelar, lekin hofizasi faromush, o'zi xomush, dili g'ash edi. Harchand yodlagan va yodlatgan savollarini o'ylab topolmasdi. Tili esa kalimaga kelmasdi. Hamma sukutda. Go'yo hozir minbarda bir mo'jiza ro'y beradiganday. Marvoziy bir ikki qisqa-qisqa yo'talgan bo'ldi. Illo xayoliga hech narsa kelmadi. Demak, ko'pchilikning salobati bosgan bo'lsa kerak. Marvoziy yonidagi jildlikdan daftar chiqardi. Savollar, muammolar shu daftarga xat qilingan edi. Ming andisha ila daftardan o'qib berishga jazm etdi. Daftarning har sahifasini ochib «astag'furullo» der edi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, biror sahifada biror bitik harf qolmagan edi. U minbardan yiqilayozdi. «Evoh, bu qanday mo'jiza, bu nechuk qudrat?»

Mudarris o'zini Hazrat oyog'iga tashladi. YUzlarini tuproqqa surtib ingrardi.

- Taqsirim, pirim, men gumrohni avf eting, - ko'zidan yosh tomchilardi. Biz o'qibmizu, lekin hanuz uqmagan ekanmiz. Alloga ming qatla' shukurkim, kech bo'lsa ham adashishlarimizdan voqif bo'ldik...

Xoja Ahmad o'ziga iltijo bilan tikilib turgan Mudarrisni ikki qo'llab o'rnidan turg'izib qo'ydi...

SHariatni tariqatni bilay desang,
Tariqatni haqiqatga ulay desang,
Bu daryodin durru-gavhar olay desang,
Jondin kechgan xos qullari olar emish...

Bu bir rivoyat, lekin rivoyat tagida ham YAssaviyni ulug' alloma, haqiqatgo'y shoir bo'lganini hamda uning ish yuritishi uchun o'sha davrda ham yo'lini to'suvchilar borligidan xabar beradi...¹

Hikmatlardagi mana bu dalillar uni yanada konkretlashtiradi:

Eshitti Bobo Mochin ul zamonda,
Ahmad otlig' bir shayx chiqmish Turkistonda,
Suhbat qilmish qizu juvon birla onda,
Man' etkali Turkistonga keldi do'stlar...

Ota avlodi Muhammad payg'ambar bilan bog'langan bu alloma ham bobolari singari kambag'al va yupun yashagan. U qanchalik faqirona hayot kechirishiga qaramay, adolatparvar, yirik Turkiston siymosi yanglig' ko'z oldimizda namoyon bo'ladi:

Miskin, zaif Xoja Ahmad, etti pushtinga rahmat,
Forsi tilni bilibon, xo'b oytodir turkini!

YOki:

Xushlamaydur olimlar bizni ayg'on turkini,
Oriflardin eshitsang, ochar ko'ngil mulkini,
Oyat, Hadis, ma'nisi turki bo'lsa muvofiq,
Ma'nisiga yetkanlar, yerga qo'yar bo'rkini!!!

¹ Mirahmad Mirxoldor o'G'li, Xoja Ahmad YAssaviy, 34-35-sahifalar

Zamonasidagi adolatsizliklardan qutulishning birdan-bir yo'li Allohga ishonish, unga sig'inish ekani ham YAssaviy hikmatlarida to'la aksini topgan. Bir vaqtlar shoirning bu hikmat to'la misralariga noto'g'ri munosabatda bo'lgan tanqidchilar uni noto'g'ri sharhlab, go'yo YAssaviy yuqori tabaqa vakillarini himoya qilish uchun «zolim agar jafo qilsa, Alloh degin» ya'ni qarshilik ko'rsatmagin, deb targ'ib qilmoqda deb tushuntirgan edilar. Aslida mana bu satrlardagi:

Zolim agar jafo qilsa, «Alloh!» degil,
Ilking ochib, duo aylab, bo'yun sung'il»

falsafiy mushohida-da zolimlarga qarshi kurashishni Alloh orqali amalga oshirishni, Alloh hammani ishini kuzatib turishini, vaqt kelib har qilgan ishiga yarasha baho olishini ta'kidlamogda.

YAssaviyona bunday qarashlar boshqa xalqlar orasidan yetishib chiqqan dohiylarda ham takrorlanadi. Jumladan hind xalqining buyuk farzandi Muhandas Karamchand Gandi va rus adabiyotining ajoyib namoyondasi Lev Tolstoy qarashlarida ham uchraydi. Bir vaqtlar ayrim tadqiqotchilar Gandi va Tolstoyning zulmga qarshi chiqmaganlikda ayblagan edilar. Ular ham YAssaviy singari adolatsizlikni qurol va kuch bilan emas, balki, adolat, birlashish va tinch yo'l bilan hal qilish g'oyasini ilgari surganlar. Bunday kurash yo'llari SHarqda uzoq vaqtlardan beri boshlanib, kelayotgan edi. Bunga Husayn binni Mansur Xalloy, Ibn ul-Arabiy, Sanoiy, Attor, Sa'diy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz, Sayid Imomiddin Nasimiy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy singari yirik mutasavvuf va mutafakkirlar dunyoqarashida, jumladan, Ahmad YAssaviy dunyoqarashida ham shakllangan ediki, ba'zan zulm va jaholat Ahmad YAssaviyga kuchli ta'sir etganidan «riyalig' shayxlarni ko'rganda» zarb bilan «tepib» yanchmoqchi «xudodin yuz ming balo tilab, yuzlariga sepmoqchi», «shamshir olib boshlarini chopmoqchi» bo'ladi va nihoyat zulm va adolatsizlikka to'la dunyodan voz kechib uning butun boyliklarini «puchak» pulga sotib yuborishgacha boradi:

Vo darig'o, xo'blar hama yig'lab o'tdi,
Onosidan tug'di ersa, motom tutdi,
Ko'zum yumub, to ochqoncha umrim o'tdi,
Bu dunyoni puchak pulg'a sotqim kelur!..

Ahmad YAssaviy bunday erkin va hur fikrlari bilan o'sha zamon ayrim tabaqa vakillariga yoqmaganligini, u esa o'zining erkin fikrlari bilan mehnatkash xalqni himoya qilganini ayrim dalillar bilan ko'rib o'tdik-ki, shundan bo'lsa kerak «xushlamaydur olimlar bizni oyg'on turkini» deb nafratlangan edi. Mana shoir aytgan uning asarlaridagi ma'noni tushunadigan avlodlari o'z erkini qo'lga olib, mustaqil davlat qurmoqdalar ya'ni ular o'z ota bobolari aytgan gaplarni endi «ma'ni»siga tushunib, burklarini yerga qo'yadigan zamon keldi.

SO'FIZM VA AHMAD YASSAVIY

So'fizm yoki tasavvuf deb ataluvchi ta'limot uzoq taraqqiyot tarixiga ega bo'lib, o'ta murakkab va ko'p tarmoqli bo'lganligi uchun unga diniy-falsafiy ta'limot sifatida yondoshilsa, uning asl mohiyatini anglab olish imkoniyatlari ochilar.

Ma'lumki, Tasavvuf-Islom dini va «Qur'on» oyatlari asosida yuzaga kelgan. Bu ta'limotga asos solgan Al-Kindiy, Farobiylardan boshlanadi. Ular o'z asarlarida «Qur'on» oyatlarini inson uchun ibrat namunasi deb biladi. Darvoqe bunday fikrlar «Qur'on»da ham uchraydi. Alloh o'z bandalariga bir narsa haqida mu'lumot berarkan, men falon kishini hayotini sizlarga ibrat qilib qo'yganman, deb ta'lim beradi. Jumladan, sabr-toqat namunasi sifatida YUsuf surasidagi Alloh buyrug'ini bajarmagan YUnusni baliq qornida tiriklay qirq kun saqlab, gunohiga yarasha jazo beradi. Ana shu nuqtai-nazardan «Qur'on»oyatlarini ko'r-ko'rona yodlab olish uchun emas, undan ibrat olib, aql bilan xulosa chiqarish uchun nozil etilgan: «SHunday qilib, tafakkur qilishingiz uchun Alloh sizlarga o'z oyatlari bilan bayon qiladi» («Baqara» surasi, 266 oyat).

«Avval ham, oxir ham, zohir ham, botin ham uning o'zidir. U barcha narsalarni bilguvchidir» («Hadid» surasi, 3 oyat). «Qur'on»da keltirilgan bunday suralar, kishilarga Tangrini shaxs sifatida tushunishdan tashqari keng fikrlash imkonini ham beradi. Bunday fikr va g'oyalar «Qur'on»dan keyin Farobiy falsafasida boshlanadi. «Qur'on»dagi «Hu» va turkiy tasavvuf adabiyotidagi «O'z» so'zlari: Allohning o'zi-Oliy ruh ma'nosida qo'llanishini YAssaviy «Hikmatlar»ida ham ko'ramiz:

Aritur dilning zanglarini Hu-hu yodi,
Oshiqclarin kecha kunduz Hu murodi.
Hu-hu, teyu, jon bergay Qul Ahmadi,
Saharlarda qo'pib toat qilg'um kelur,
Oqil ersang mosuvodin yig'gil o'zni
Donolarga hikmat aytib aytkin so'zni...

Turkiy tildagi tasavvufda «O'z» so'zi forsiy adabiyotdagi «yor» tushunchasiga yaqin ma'noni ham ifoda etadi. Ammo Forsiy tasavvuf adabiyotidagi «yor» (ruh)-pir (ruhi)-do'st (insonning ruhi) insoniy sevgi adresati tarzida ma'no va obraz taraqqiyotini kechirgan» - deb yozadi N. Komilov. Uning fikricha, fors adabiyotining kuchli ta'sirida bo'lgan turkiy xalqlar adabiyoti vakillari ham shu obraz ma'no tushunchalaridan keng foydalanganlar.

«YOr» so'zi-obrazi mumtoz adabiyotimizda «Xudo hamda pir» tushunchalarini ochib bergan. SHu bilan birga, «yor» so'z-obrazi o'tkinchi dunyoning tashvishlari ma'nosida ham kelishini quyidagi misolida anglash mumkin:

Bir boshimda yorning ming mojarosini so'rang...

Turkiy adabiyotda «O'z» ikki so'z-obrazni ifoda etish bilan chegaralanadi. YA'ni «O'z» - Oliy ruh (Xudo) va o'z inson ruhi: Bu haqda mana bu satrlardan javob topamiz:

Kecha kunduz Haqdin qo'rqib to'kkan yoshi,
O'zi bilur, o'zga birla yo'qtur ishi.

SHunisi xarakterliki, turkiy tildagi tasavvuf adabiyoti o'zining ilk bosqichlarida «o'z» bilan birga Oliy ruh ma'nosida: Haq, Alloh, Izim, Tangri, Mavlom, Rahmon kabi so'z-obrazilardan ham foydalangan:

Olimlar harom yegay, omilar dindan chiqqay,

Zolimlar quvvay bo'lg'ay, mo'minlar molin olg'ay,
O'lib mollari qolg'ay anda Tangrim so'rg'usi

«Qur'on» olamdagi barcha narsalar Allohning ixtirosi ekanini, butun borliq koinotidagi barcha narsalar Xudoning zuhuri ekani haqida ko'p o'rinlarda xabar beradi. Inson bu dunyoga sinov uchun yaratilgan. YA'ni ular yana o'lganlaridan keyin asliga Xudoga qaytishi lozim. Ahmad YAssaviy bu haqda yozadi:

Ahli ayol qarindosh, hech kim bo'lmaydi yo'ldosh,
Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro,
Qul Xoja Ahmad toat qil, bilmam umring necha yil,
Asling bilsang -obu gil, yana gilga ketaro!

Mazkur «Hikmatlar»dagi tushunchaga ko'ra ham inson butun ob'ektiv olamning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, u asliga qaytishi qonuniy ekani haqidagi fikrlar «Qur'on»da takror-takror aytiladi.

Tasavvuf diniy-falsafiy adabiy oqim bo'lganligidan uni ham hamma to'g'ridan to'g'ri tushunavermaydi. SHuning uchun ham ma'lum tayyorgarlikni o'tagan kishigina bu oqim olg'a surmoqchi bo'lgan g'oyani to'g'ri tushunib yetishi mumkin. Buni to'g'ri tushunmagan xalqdan so'fiylar o'zini panaga, chetga olganlar. Ahmad YAssaviy ham shunday odamlardan o'zini chetga olib, yer ostiga makon qurgani ayonku! Ularning maqsadi xalqdan qochish bo'lmay ayrim «nodon»lardangina o'zlarini olib qochganlar. Zero «avom», «nodon»larga olamni tushuntirishning turli yo'llari bor. Bu haqda «Qur'on»da «Parvardigorimiz yo'li-diniga donolik-Hikmat va chiroyli pand-nasihatlar bilan da'vat qiling¹» deyilgan bo'lsa, boshqa bir o'rinda «Agar parvardigorimiz xohlaganda, barcha odamlarni bir millat (ya'ni bir dinga ergashuvchi) qilgan bo'lur edi...» deyiladi. Aniqrog'i shuki, «Qur'on»da ham tasavvuf-so'fizm ta'limotida ham odamlarni tayziq qilish orqali dinga, ma'rifatga targ'ib qilishni emas, turli yo'llar, pand-nasihatlar bilan, tushuntirish yo'li bilan da'vat qilish kerakligi aytiladi. Tasavvufning asl maqsadini ifodalaydigan bu e'tiqod «An'om surasi»ning 152 oyatidagi ko'rsatmalariga to'la mos keladi: «Biz hech bir jonni toqatdan tashqari narsaga taklif qilmaymiz...»

Ko'rinadiki, tasavvuf tariqati ila qurollangan so'fiylar insonni aql-idrok bilan, ma'rifat tarqatish yo'li bilangina dunyoni tushunishga targ'ib qiladilar. Tasovvuf tariqatini bilish uchun birmuncha mashaqqat chekishi, mehnat qilishi zarur, o'shandagina har bir narsaning asl mohiyatini tushunib yetish mumkin:

Jafo chekmay, mehnat tortmay oshiq bo'lmas,
Tuproq bo'lmay, xorlik tortmay nafsing o'lmas.
Bedor bo'lmay, diydoriga loyiq bo'lmas,
Loyiq bo'lg'on xaloyiqdan qochar bo'lg'ay!

Tasovvufchilar e'tiqodiga ko'ra inson o'zligini anglagandagina, qalb ko'zi ochilib, dunyoning butun mohiyatini to'g'ri anglash darajasiga etadi. Qalb ko'zining ochilishi esa ishonchning aslidir. Bu haqda «Qur'on karim»da shunday oyatlar bor: «Zero ko'zlar ko'r bo'lmas, balki ko'krakdagi ko'ngillar ko'r bo'lur» (Haj surasi, 46-oyatdan.)

¹ Jy'oni karim. Aloyddin Mansyr tarjimai. T, 1992, 95-sahifa.

Demak, ko'ngil ko'zining ochilishi, fikrlash yo'llari har kimda har-xil kechishi barobarida tasavvuf oqimining guruhlarida ham har xil ro'y berishi mumkin:

Olloh degil, ey Qul Ahmad, o'zung bilgil,
O'zung bilmish ilming birla amal qilg'il!

Tasavvuf tariqati ila qurollangan shoirlar ijodi yuqorida tilga olganimizdek, bir asarda ikki xil ma'noni berishga harakat qiladilar. YA'ni she'rni o'qigan avom kishilar uning zohiriy ma'nosiga e'tibor bersalar, so'fiylar esa uning botiniy mazmuniga qarab baholaydilar. Mana bu to'rtlik keng omma uchun tushunarli bo'lgani holda:

Xush davlatdur viloyatda podsho bo'lsa,
Odil bo'lib mo'minlarga qozi bo'lsa.
Ul qozi barcha elni rozi qilsa,
Roziliqdin uchmoq uyin olar bo'lg'ay!

Ikkinchi to'rtlik hiyla murakkab va omma uchun ma'lum bo'lmagan yashirin qo'shimcha mazmunga ham ega:

Savol qilma, ey zohid, yaxshi-yomon so'zimdin,
May ichibon mast bo'lub, ne derimni bilmasdan.
Soqiy so'ndi har nafas kayfiyatin sharobin,
To Qiyomat bo'lg'uncha hech o'zumga kelmasman.

To'rtlikdagi zohiriy mazmuni noma'lum sabablarga ko'ra sharob ichib dunyo tashvishlarini unutmoq bo'lsa, botiniy mazmunda uning aksi, ya'ni zohid to Qiyomatga qadar may ichib ya'ni pining suhbatidan bahramand bo'lib, Alloh diydoriga musharraf bo'lishdir. Shuning uchun so'fiylar ta'limotiga ko'ra pirlar to'g'ri yo'lga boshlovchi kishilar sanalib hurmatli zot sifatida ularga e'tibor berganlar. Ahmad YAssaviyda ham pir muridlar cho'poni, muridlarning xudosi sifatida talqin etiladi:

Pir muridning cho'poni, pir muridning iymoni,
Yo'qtur shak kamoni Jon bir pir xizmatida,
Pir muridning hidosi, rozi andin Xudosi,
Bo'lur pushtu fanosi, jon bir pir xizmatida.

So'fiylar musulmonchilik deganda, Allohning birligini, Olamning birligini, yaxlitlikni e'tiborga olishni emas, balki o'zini anglab asli kim uni yaratgan va yana qayta kimga qo'shilishni anglashnigina tushunadi.

Har kim Alloh dedi andin o'zin topdi,
Haqiqatni so'zin so'zlar o'lar vaqti,
Necha yillar ko'rung Shaddod uchmoq yopti,
Kirolmadi, ko'rub ibrat oling, do'stlar!

Mana shu nuqtai nazardan so'fiylar botiniy bilimlarni ham chuqur bilgan kishilarnigina musulmonlar safiga kiritadi:

So'fiyo, toat barchasi ujubi riyo,
Jon dil dunyog'a mazur tillaringda oh, oh,
Jon berurda bo'lgung oxir nuru iymondin judo,
So'finaqsh bo'ldung, vale hargiz musulmon bo'lmading!

Demak, musulmonchilikni og'izda qabul qilgan bilan u komil musulmon emas, to u zohiru botin imlardin xabardor bo'lmasa.

Biz ko'rib o'tganimiz «Hikmatlar» misolida Ahmad YAssaviyning tasavvuf tariqatiga bo'lgan munosabati haqida o'z nuqtai nazarimizni bayon qildik. O'ylaymizki mustaqillikni qo'lga kiritgan yosh avlod vakillari kelgusida bu mutafakkir alloma shoir ijodini har tomonlama to'g'ri va aniq talqin qiladilar.

AHMAD YASSAVIY ASARLARINING TILI

O'zbek adabiyoti tarixida Ahmad YAssaviy ijodichalik buzib noto'g'ri talqin qilingan shoir ijodi bo'lmasa kerak. Turli davr tadqiqotchilari, xususan, inqilobdan keyingi davr tadqiqotchilari YAssaviyni mistik shoir, u kishilarni o'z zararli nasihatlar bilan zaharlab, boy va amaldorlarga bo'ysunishga undaydi, deb g'araz bilan yozganlar.

«O'zining zararli nasihatlar bilan xalqni garangsitgan bu shoir go'l ommaga qarab: «Zolim agar jafo qilsa Alloh degil,» deb g'oyat reaksion fikrni olg'a suradi», deb yozilgan bo'lsa Oliy o'quv yurtlari uchun tayyorlangan «O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi»da, N. M. Mallaev «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligida shunday deb yozadi: «Til va uslub jihatdan ham «Devoni hikmat» nusxalari bir biridan katta farq qiladi. «Devoni hikmat»ning birorta nusxasi ham YAssaviy tilining, XII asr o'zbek tilining aynan asl yodgorligi bo'la olmaydi. Chunki, YAssaviy hikmatlari og'izdan og'izga ko'chib, kitobdan kitobga o'tib, o'z asl tilini allaqachonlar o'zgartirib yuborgan edi»¹. desa, A. K. Barovkov «Devoni hikmat»dagi she'rlarning qaysi biri bevosita Ahmad YAssaviyga mansub ekanligini aniqlashni g'oyatda mushkullashtiradi va ularning aslini tasavvur etishga imkon bermaydi» degan fikrlariga qo'shilish qiyin. Binobarin, Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat» asari avvalo eski turkiy adabiy tilning namunasi sifatida qadrlil bo'lsa, ikkinchidan Ahmad YAssaviy hikmatlaridagi soddalik va xalq qo'shiqlariga yaqinlik Mahmud Qoshqariy «Devoni lug'ati Turk» asaridagi:

Qish yoy bilan to'qushti,
Qinir ko'zunug' baqishti.
Tamlug' kelib qopsadi,
Qutlug' yoni topsadi.
Kecha turub yurir erdim,
Qora qizil bo'ri ko'rdum,
Qottig' yoni qura kurdum,
Qoya ko'rub baqi og'di.

«Devoni hikmat»da:

Dunyo mening degonlar,
Jahon molin olg'onlar,
Karkas qushdek bo'lubon,
Ul haromg'a botmishlar.

¹ N. M. Mallaev, O'zbek adabiëti tarixi. T., 1976, 154-sahifa.

Bular bir biriga yaqin, egizak ohangda eshitiladi go'yo. Bunday o'xshash o'rinlar o'zbek adabiyoti tarixida ko'plab uchraydi. Ahmad YAssaviy she'riyati haqida adabiyotimizning bilimdon, alloma shoir Maqsud SHayxzoda «SHubhasizki, Xoja Ahmad YAssaviyning yozib qoldirgan «Hikmat» kitobi keyincha til jihatdan va ma'no tomonidan qanchalik o'zgarishlarga duchor bo'lmasin uning asl vazni avvalgi holicha qolgan. CHunki, birovlar ilgari vaznni shuncha ildizidan o'zgartirib qaytadan ishlashlari amri mahol bo'lur edi. Bu asarning vazni esa avtori avvalida o'zi o'ylab ishlagan holida saqlanib qolgan». (Abdug'ani Aliev, «Tilimiz donishmandi» O'zAS 1993 yil 29 oktyabr). Bu fikr asosida YAssaviy «Hikmatlar»iga nazar soladigan bo'lsak, undagi vazn va boshqa unsurlarini o'rganishdan tashqari Sayram lahjasiga hozir ham o'xshab ketadigan va ko'pgina turkiy elatlarda ishlatiladigan so'z va tushunchalar borki, ular YAssaviy tili hozirgi turkiy adabiy tilidan uzoqlashib ketmaganini ko'rsatadi: «oq sanamni bijil qildim», «yuragimdan sirilib ichimga qon to'ldi», «totlig' totlig' yegonlar», «oyg'im kelur», «yerga qo'yar burkini», «kofirlar cherisi», «voy qulunim bo'tam» kabi turkiy tillariga xos so'z va iboralar Sayramliklarga xos og'zaki va yozma nutqda ham uchraydi. YAssaviy o'zi iqrar bo'lganidek, bir vaqtlar uning tilini yoqtirmaganlar:

Xushlamaydur olimlar bizni oyg'on turkini...

Shunisi aniqki Ahmad YAssaviy turkiy qavm vakili bo'lgani uchun ham boshqa tillarni bilsa ham o'z ona tilisida xalqiga «Qo'r'on» oyatlarini she'riy yo'lda, sodda usulda so'zlab berishni g'urur va iftixor deb bilgan:

Miskin, zaif Xoja Ahmad, etti pushtingga rahmat,

Forsiy tilni bilibon, xo'b aytadur turkini.

Ko'rinadiki Ahmad YAssaviy o'z davrining farzandi sifatida ham buyuk alloma sifatida ham Turkiy xalqlar madaniyati, adabiyoti va o'z davri e'tiqodiga ko'ra Islom dinini ham, uning mo''tabar qonun qoidalarini yoyishda katta xizmatlar qilgan.

O'ylaymizki, mustaqillik shabadasi esib turgan muqaddas Ona yurtimizda bu ulkan shoir ijodi yanada chuqur o'rganilib, asl holida o'z farzandlari, avlodlariga yetkazilajak. Buning uchun bizda barcha imkoniyatlar va fidoyi kishilar topiladi.

Ishimizning so'ngida shuni quvonch bilan ta'kidlash lozimki, Mustaqilligimiz tufayli Prezidentimiz aytganidek ma'naviy qadriyatlarimiz o'zimizga qaytmoqda va natijada o'zligimizni anglash bilan birga o'tmish ota bobolarimiz tomonidan yozib qoldirilgan madaniy va ma'naviy meroslari har tomonlama qanday yozilgan bo'lsa shu holda o'rganish va yosh avlodga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu sohada o'tgan yillar mobaynida qator ishlar qilindi. Jumladan Sohibqiron Amir Temur bobomizning siymosi-haykali o'rnatildi, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Ahmad YAssaviy, Al-Farg'oniy va boshqalarning muborak to'ylari o'tkazilmoqda. O'ylaymizki kelgusida hali o'rnini topmagan qadriyatlarimiz o'z asl holiga qaytarilib, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanishiga shubha yo'q.

*Har g'alat er o'g'lig'a bir pand erur,
Kim g'alatan bilsa xiradmand erur!*
Haydar Xorazmiy

QIYMATI O'KSURMU NECHA SINSA SIYM...

HAYDAR XORAZMIY IJODI ADABIYOTSHUNOSLAR TALQINIDA

Haydar Xorazmiy - bu kishi kim? U nima ishlar qilganki, u haqda Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Bobur, Komron Mirzo, Sayyid Qosimiy singari zamondoshlari-yu va ne-ne boshqa elu elatlarning olimlari uning nomini qalamga olgan, u haqda dildan so'z aytganlar...

Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»da keltirishicha, Mavlono Haydar Xorazmiy Amir Temurning nabirasi, Umarshayx Mirzoning o'g'li Iskandar Sulton qaramog'idagi SHeroz viloyatida yashagan, o'z davrining alloma shoiri bo'lgan.

Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Matla' us-sa'dayn va Majma' ul-bahrayn» asarida yozishicha, SHeroz viloyatining hukmdori Sulton Iskandar Mirzo fozilu shoirlarni yig'ib, ulug' bobosi Amir Temurga o'xshab ularga homiylik qilgan, kezi kelganda ularning mehnatiga yuksak baho berib, rag'batlantirib turgan. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy qiziq bir voqeani keltirgan. «Mavlono Ma'ruf (Ma'ruf Xattoti Bog'dodiy) jahon iste'dodlarining saromadi va zamona nodirasi edi. Xattotlikdan boshqa yana turli-tuman fanlar va xilma-xil kamolotlarga ega edi. Xoja Jaloluddin Salmonning qasidasiga javoban aytgan edi.

Bayt:

*Sening ko'zing sipohidin to'g'ri
otilgan har bir g'amza tiri,
Dil xohlaganidek siyna ichiga
kelib qadaladi.¹*

U, Sulton Ahmadi Bag'doddan yuz o'girib, Isfahonga Mirzo Iskandar ibn Mirzo Umarshayx huzuriga kelgan va uning kitobxonasiga tayin qilingan edi. Aytishlaricha, Mirzo Iskandar har kuniga besh yuz bayt muqarrar qilganiga qaramay, u bir kunda bir ming besh yuz bayt ko'chirgan va so'ng ikki kungacha hech narsa yozmagan. Va Mirzo Iskandarning hukmiga xilof ish qilgan. Mirzo Iskandar nega u ikki kun hech narsa yozmaganini so'raganda u «Bir kunda uch kunlik kitobat qilishni istayman» - deb javob bergan. So'ng, Mirzo Iskandarning buyrug'i bilan soyabonlar va chodir tikkanlar, bir kishi qalam tarashlab turgan. Mavlono esa yozabergan. Nomozgargacha bir ming besh yuz baytni g'oyat nozik qilib bitirgan. Mirzo Iskandar unga ko'p in'omlar bergan (390-sahifa).

YAna shu muallifning yozishicha (1410 yil voqealarida) Mirzo Iskandar Ko'shki Zar sahrosida Navro'z ayyomida mamlakatni mustahkamlash va kengaytirish maqsadida arkoni davlat bilan kengash o'tkazgan, har bir kasb egasiga

¹ Abdyrazzov 'Samarqandiy «Matla'-ys Sa'dayn, va Majma'-yl Bahrayn», T. FAN, 1969. 389-390-sahifalar.

topshiriqlar bergan. Xuddi shu holatni Haydar Xorazmiy «Gulu Navro'z» dostonida:

Bashoratnoma berdi xotiri g'ayb,
Hunar qildi hidoyat, butradi ayb.
Magar axtar muborak urdi folim
Ki, shahonshoh o'ngina tushti holim.
Tarahhum qildi o'z eski qulina,
Nazar qildi navosiz bulbulina.
Buyurdikim bu gul faslinda darhol,
Gulu Navro'zning ovozasini sol.
Ayt ul qissani turkiy tilina
Ki, totqon til halovatdin bilina.
...Bu farmondin siniq ko'nglim sevundi,
Bu ma'niliq avunchodind avundi
Kim, urdi subhidam ma'ni Buroqi,
Navo tuzdum qadah chevurdi soqi...¹

deb shirin xayol og'ushida xotirlaydi. Bular Iskandar Mirzoning adabiyot va san'at ahllariga umuman davlatni boshqarish uchun kerak bo'ladigan hamma kasb egalariga hurmatu e'tibor berib qaraganini ko'rsatadi.

Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» asarida keltirilishicha «...Az fuzalo, ki dar ro'zg'ori Sulton Iskandar budand, Mavlono Muiniddin Natanziy va Mavlono Haydar budaast, ki dar turky va forsiy ash'ore maleh dorad va javobi «Maxzan»i SHayx Nizomiyo ba turky gufta ba nomi shohzoda Iskandar», («...Sulton Iskandar hukmronligi davrida Mavlono Muiniddin Natanziy va Mavlono Haydar kabi fozil kishilar bo'lgan.

Mavlono Haydarning forsiy va turkiy tillarida yozilgan zavq-shavq bag'ishovchi nafis va go'zal ash'orlari mavjud. SHu bilan birga u SHayx Nizomiy «Maxzan»iga turkiyda javob aytib, uni shahzoda Iskandarga bag'ishlangan») deb xabar bersa, Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»da Iskandar Mirzoni hurmat bilan tilga olib «Sulton Iskandar SHeroziy - ham nabiradur, saltanat tajammulini, derlarkim, salotindin ozi oncha qilmish bo'lg'ay. yetti yo sekkiz yilliq saltanatida go'yoki uch ganj topibdur. Mavlono Haydar turkiygo'y, aning modihi ekandur. Bu aning masnavisidindurkim:

Himmat alidur yadi bayzo degan,
Er nafasidur dami Iso degan.

va Sulton Iskandarni derlarkim, tab'i nazm erdi. Va bu tuyuqni andin naql qilurlarkim:

To'lun oyg'a nisbat ettim yorumi,
Ul xijolatdin kam o'ldi yorumi.
Tori mo'yungning zakotin men beray,
YO Misrni, yo Halabni yo Rumi¹.

¹ Lytfiy, Sensan sevarim, T., 1987, 354-355 sahifalar.

¹ Alisher Navoiy. 15 tomlik, 12 tom, Majolis yn nafois, 1996, 170-sahifa.

Iskandar Mirzoninng Turkiyda go'zal tuyuq yozganidan quvongan Alisher Navoiy, Haydar Xorazmiyning axloqiy-ta'limiy xarakterdagi asaridan xushnud bo'lganidan «Muhokamat ul lug'atayn»da uni turkiyguy shoirlar safida yana bir bor hurmat va ehtirom bilan tilga oladi (128-sahifa), ijodini esa yuqori baholaydi. SHuningdek, Bobur aruz ilmiga bag'ishlangan «Muxtasar» risolasida sare' bahriga misol keltirib yozadi: «Masnaviy vaznlaridin biri budur. Bu vaznda heyli masnaviylar aytibdurlar, ul jumladan SHayx Nizomiyning «Maxzan-ul asror»idur... YAna Mavlono Haydar Xorazmiy turkiyguyning «Gulshan-ul-asror»idur pandu nasihatga yaxshi abyoti bor. Nechukkim debtur:

Er kishig'a himmat agar bo'lsa yor,
Oqibat ul amr murodin topor.
Har kishig'a himmat agar to'sh bo'lur,
Ko'kni talashquvchi uchar qush bo'lur.
Har g'alat er o'g'liga bir pand erur
Kim, g'alatin bilsa xirodmand erur, -

deyilgan baytlarni olib, buyuk xamsanavislar, shayx Nizomiy, Amir Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiylar qatorida uning nomini ham hurmat bilan tilga oladi (Ehtimol Boburdagi himmat ham shu baytlar tasirida bo'lgandir) va asarni yaxshi asarlar qatorida sanaydi.

Komron Mirzo ham otasi Bobur singari yuksak talant sohibi, Sarkarda hamda iqtidorli shoir bo'lgan uchun ham Haydar Xorazmiy asarlarini yaxshi bilgani (shu o'rinda Hind diyorida Boburiylar Haydar Xorazmiy ijodiga katta hurmat bilan qaraganini e'tirof etish kerak) uchun ham otasi kabi Haydar Xorazmiyning shiddatkor satrlarini esga oladi. Mana o'sha satrlar:

- Kimki, tilab ganjni paydo qilur,
Ranj chekar ganj tamanno qilur.
Poyayi himmatni baland aylagil,
Rishtai joningni kamand aylagil.
CHunki o'shal poyani qilding baland,
Ko'ngiroyi Arshqa solg'il kamand.
Haydar o'shul shoiri farxundafar,
Bir-iki so'z dedi, ajib - muxtasar:
«Er kishiga himmat agar to'sh bo'lur,
Ko'kni talashquvchi uchar qush bo'lur.
Er kishiga himmat agar bo'lsa yor,
Oqibat-ul-amr murodin topor».
Qo'pqilu maqsud qilg'il talab,
Chunki, payg'ambar so'zidir «man talab».¹

Haydar Xorazmiy ijodiga uning kichik zamondoshi Sayyid Qosimiy ham yuksak baho beradi.

Uning «Majma' ul-axbor»ida ustozga hurmatini bildiruvchi satrlarga duch kelamizki, mana o'sha satrlar:

¹ Komron Mirzo, Devon. T. 1993, 38-sahifa.

Haydar agar ber desa so'z dodini,
 Jumla jahon aylar aning yodini.
 «Maxzani asrora» ayitti javob,
 Sochti maoniy durini chun sahob.
 Manda dog'i bor edi ushbu havas,
 SHukri Xudo topdim ango dastras.
 O'ldi sabab madhi shohi kom'yob,
 Qilsam aning otina insho kitob.
 SHayx Nizomiy damin yod etib,
 Xatmi duo birla ruhin shod etib.
 Nazm etay necha hikoyatini,
 Jam' qilib naqlu rivoyatini.
 Qilmayin anda so'zumi bob-bob,
 O'zga yo'sin birla tuzub bir kitob
 «Majma' ul axbor» qilay otini,

«Maxzani asror» deyin zotini², - deb. Davlatshoh Samarqandiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalarning fikrini quvvatlaydi, hatto u Haydar Xorazmiyni «so'z bobida» ya'ni nazmda «jumla jahon aylar aning yodini» deydi, haqiqatdan Haydar Xorazmiy o'z davrida va undan keyingi avlod orasida mashhur bo'lganligi oydinlashadi. SHu o'rinda agar Haydar Xorazmiy ruhi uni qo'llasa, unga ergashib «o'zga yo'sin birla bir kitob tuzish» niyati borligini ham bildiradi.

Haydar Xorazmiy ijodiga yuqorida keltirilgan dalillar va keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasiga qarab ish ko'rilsa, uning «Maxzan ul asror» nomi bilan mashhur bo'lib ketgan (ba'zibir tadqiqotlarda tarjima, boshqa xillarida ijodiy tarjima degan fikrlar mavjud) «Gulshan ul asror»ning butunlay yangi asar ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni asarning o'zidan ham xohlagancha keltirish mumkin.

SHayx Nizomiy «Maxzan-ul-asror» dostoni falsafiy-axloqiy xarakterda bo'lib, «Muqaddima», 20 maqolot, 20 hikoyat va xotimadan iborat. Ular: 1. Noumed va gunohi o'tilgan podshoh haqida hikoyat. 2 No'shiravon Odilning ovdagi ko'rgan voqeasi haqida (No'shiravon va uning vaziri) hikoyat. 3. Sulaymon payg'ambar (va dehqon) haqida hikoyat. 4. Sulton Sanjar va mazlum kampir haqida doston. 5. Mevapurush va o'g'ri tulki haqida hikoyat. 6. Sayyod, it va tulki haqida (doston) hikoyat. 7. G'isht quyuvchi chol haqida (doston) hikoyat. 8. Faridunning ohu shikorgohidagi voqeasi haqida (doston) hikoyat. 9. Tavba qilgan zohid haqida hikoyat. 10. Iso alayhissalom haqida hikoyat. 11. Mubid chol haqida hikoyat. 12. Ikki hakim munozarasi haqida hikoyat. 13. Xoin so'fi va Xoji haqida hikoyat. 14. Zolim podshoh va rostgo'y Zohid haqida hikoyat. 15. YOsh shahzodaning eski dushmanlari haqida hikoyat. 16. Majruh bo'lgan go'dak hikoyati. 17. Pir va murid haqida (doston) hikoyat. 18. Jamshid va uning yaqinlari haqida hikoyat. 19. Xalifa va sartarosh haqida hikoyat. 20. «Bulbul va burgut hikoyati»dan iborat jami 2260 baytdan oshiqroq.

² Sayid Qosimiy, Masnaviylar majmuyasi, T. 1992, 15-16-sahifalar.

Haydar Xorazmiyning «Gulshan-ul-asror»i (Bu asar xalq orasida mashhur bo'lganidan o'sha davr musavvirlari 8 ta minatyura ishlagan) an'anaviy shakl: hamd, na't, so'z ta'rifi, hukmdorning madhi, musannifning vafsi-holi, kitob nazmining bayoni, kitobning so'nggi hamda, to'rt maqolot, to'rt mav'iza va sakkiz hikoyat. 1. Pulini yo'qotgan kishi hikoyati. 2. Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati. 3. Hotami Toy hikoyati. 4. Sulaymon payg'ambar hikoyati. 5. Mahmud G'aznaviy haqida hikoyat. 6. Xorun bila Bahlul hikoyati. 7. YAqub payg'ambar haqida hikoyat. 8. Temurbek haqida hikoyat. Bularning birortasi ham Nizomiy «Maxzan ul asror»ida uchramaydi. Nomlari qayd qilib o'tilgan hikoyatlar Haydar Xorazmiy mustaqil ijodining mahsulidir. To'g'ri, Haydar Xorazmiy o'z salafлари ijodidan, xususan, SHayx Nizomiy ijodidan ham to'la-choshni-bahra olib ilhomlanib, qalam tebratganini va ustozga bo'lgan hurmatini quyida:

Menki pishurdim bu laziz oshni,
SHayx Nizomiydin olib choshni.
SHayx Nizomiy damidin jon topib,
Ma'nisidin yarliq burhon topib,-

deb unga bo'lgan hurmatini izhor etgan holda, uning dengiz kabi teran fikrlarini hamma ham ilg'ay olmasligini-da o'zi ham shu ma'nolar ummonida g'avvos bo'lganligini e'tirof etadi:

Aql tengiz erdi-yu andesha kon,
O'rtasida guhari ma'niy nihon.
Jon tishi birla qazib ul konni,
Qildim uzum g'avs bu ummoni.
Ul kishi qo'yg'ay chu Nizomiy bu ganj,
Qozg'ana olg'ay guhari dast ranj.
Yo'q esa har muflisi bedastgoh,
Hech topabilg'aymu bu «Maxzan»g'a roh!.

desa-da, «Kitob nazmining bayoni» bobining dastlabki satrlaridayoq, SHoh duosi bilan - Iskandar Sultonning taklifi bilan turkiy unda insho qilganini eslatib o'tadi. Mana o'sha satrlar;

Andaki bu azm ila yo'ndum qalam,
Shoh duosi bila urdum raqam.
- Turki zuhuredur ochunda bu kun,
Boshla ulug' yir bila turgona un!?

Xuddi shunday fikrlarni Iskandar Sulton taklifi bilan yozilgan «Gulu navro'z»da:

Buyurdikim bu gul faslinda darhol,
«Gulu Navro'zning» ovozi sol!?
Ayt ul qissani turkiy tilina,
Ki totqan til halovatdin bilina», -

deganini yana bir bor eslatadi-ki, lekin shunga qaramasdan «Abushqa» nomi bilan mashhur bo'lib ketgan lug'at muallifi Aloyi binn Muhibbiy, «Sangloq» va «Meboni-ul-lug'at» yoki «Sarfu navhi lug'ati chig'atoyi» lug'atlarining muallifi Mahdixon, frantsuz turkologi A. Pave de Kurteyl, Jumaniyoz SHaripov va

boshqalarning chalkash fikrlari «Gulshan ul asror»ning tarjima asar sifatida mashhur bo'lib ketishiga sabab yoxud turtki bo'lgan bo'lsa ajabmas!..

Agar «Gulshan ul asror» tarjima asar bo'lganida, masnaviy bilan bevosita tanish bo'lgan Davlatshoh Samarqandiy «shuning bilan birga u SHayx Nizomiy «Maxzan»iga turkiy tilda javob yozib, uni shahzoda Iskandarga bag'ishlagan» deb yozmagan, Alisher Navoiy «bu aning masnaviysidindur» demagan, Bobur Nizomiy «Maxzan ul asror»i bilan Haydar Xorazmiy «Gulshan-ul-asror»ini yonma-yon yozgani holda «yana Mavlono Haydar Xorazmiy turkiygo'yning «Gulshan ul asror»idur deyishni o'ziga ep ko'rmagan, Komron Mirzo: «Haydar o'shul shoiri farxundafar» - saodatli, baxtli - shoir, deb atamagan Sayyid Qosimiy «Majma'-ul-axbor»da:

Haydar agar ber desa so'z dodini,
Jumla jahon aylar aning yodini.
«Maxzani asrora» ayitti javob,
Sochti maoniy durrini chun sahob! - deya

Haydar Xorazmiyni so'z dodini bergan deb - madh etmagan bo'lardi, albatta. E'tibor berilsa bularning barchasi tarjima asar haqida emas, mustaqil, yangi asar haqida so'z yuritayotganlari ayon bo'ladi. SHuni ham yodda tutish lozimki, Haydar Xorazmiyning o'zi ham «shoh duosi bilan urdum raqam» ya'ni shohning farmoni, taklifi va yoki buyrug'i bilan yangi asar yozdim deyaptiku! Bu dalillarning barchasi Haydar Xorazmiyning mustaqil asar yozganligini qayta-qayta bizga uqtirayapti-ku!..

Kitobxonlar orasida yashirin qolmasligi uchun yana shu ma'lumotlarni aytishni lozim topamizki, uning ko'pchilikka ma'lum bo'lgan «Gulshan-ul-asror» falsafiy-ta'limiy asari (Bu asar asrimizning yetmishinchi yillariga qadar Nizomiyning «Maxzan ul-asror» asarining tarjimasi sifatida baholanib kelindi) turkiy xalqlar epik she'riyatida muhim hodisa bo'lib, uning bir necha qo'lyozmalari-nusxalari bizgacha yetib kelgan. Jumladan, London, Parij (Milliy kutubxona inv. 978), Vena, Qozon, Ufa (Boshqirdistonning Mengzelinskiy tumaniga qarashli Deukov qishlog'ining qabristonidagi masjid g'alladonidan topilgan nusxa, 1-31 iyul, 1974) nusxalari kitobat qilingan. Bu asarning 1509 yilda ko'chirilgan Hirot nusxasidan ikki qo'lyozma Britaniya muzeyida (inv. 3491. 7914) saqlanadi.

G. Flyugel o'zining «Qirollik kutubxonasidagi arab, fors va turk qo'lyozmalari» asarida (Vena, 1865) Venada Haydar Xorazmiyning «Gulshan-ul-asror» asarining bir qo'lyozma nusxasi borligini xabar qilgan. K. Brokkel'man (Leyden, 1954) Berlinda ham bu asarning bir nusxasi borligi haqida xabar bergan.

Turkiy xalqlar adabiyotining tinib-tinchimas, tolmas tadqiqodchisi Hamid Sulaymon Hindistonga qilgan safari chog'ida Srinagar muzeyi kutubxonasida 700 raqami ostida Haydar Xorazmiyning «Gulshan ul-asror» nomli asari borligi va u 19 varaqdan iborat to'liq nusxa ekanini ma'lum qilgan¹. (Ajab emaski, ulug'

¹ By ma'lymotlar Э. Ahmadxo'jaevning «Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek shoirlari asarlari g'o'lezmalarining targ'alishiga doir» mag'olasidan olindi. Adabiy meros, 1987, 1-son, 18-27- sahifalar.

sarkarda, davlat va madaniyat arbobi Bobur bobomiz va Komron Mirzo nazari tushgan nusxa shudir) va yoki keyingi yillar o'sha nusxadan ko'chirilgan nusxadir.

Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bu asar XVIII asr boshlarida Tatariston va uning atroflarida keng tarqalgan. XVIII asrda Kadash Rokay o'g'li tomonidan ko'chirilgan 38 betlik to'liq nusxasi Qozon davlat universiteti Kunchiqish qo'lyozmalari sektorining mudiri Al'bert Fatxiev shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. SHu kutubxonaning Kunchiqar qo'lyozmalari bo'limida noma'lum kotib tomonidan ko'chirilgan T-1366 № 146 raqami ostida 24 sahifalik Haydar Xorazmiyning «Gulshan ul-asror» dostonining 19 asrga tegishli bir qo'lyozma nusxasi ham bor. SHu bo'limda Gotval'dtning A. Pave De Kurteyl' haqida yozgan maqolasida «Gulshan ul-asror»dan parchalar va Haydar Xorazmiy qalamiga mansub «Merojnoma» ham mavjud.

«Merojnoma» haqida so'z ketganda shuni aytish lozimki, Haydar Xorazmiyning Muhammad SAVga bag'ishlangan bu asari diniy ruhda bo'lgani uchun shu paytgacha tilga olinmas va yoki keng ommaga ma'lum qilinmas edi. Bu haqda birinchi bor rassom SHomahmud Muhammadjonov va Asqar Mahkamlarning «San'at» jurnalining 1990 yil 7-sonida «Vorislilik» va «Merosxo'rlik» haqidagi suhbatlarida rang tasvir, xususan, SHarq miniatyurasi haqida fikr yuritib, SHomahmud Muhammadjonov savollarga shunday javob beradi: «...Rivoyat qilishlaricha Payg'ambar alayhissalomning uzuklarida arining, Hazrati Alining tugmasida sherning tasviri bo'lgan. Ba'zibir aqidaga ko'ra suvrat andozasi xuddi ana shulardan kelib chiqqan. Biroq, Islomning jonli mavjudot aksini yaratishni ta'qiq etgani haqidagi butkul soxta qarashlarni Parijda saqlanayotgan Haydar Xorazmiyning «Me'rojnoma» asaridagi 45 miniatyura rad etadi. Zero bu miniatyuralarning jami ilohiy mavzuda bo'lib, payg'ambarning «Me'roj»ga ko'tarilishi ta'rif va tavsifidan iborat. Bordi-yu o'sha soxta da'volarda jilla qurisa jon bo'lsa, Turkiyaning birgina To'pqopi muzeyida saqlanayotgan 32 ming mo''jaz rang tasvir asarini kim yaratgan?»¹

Shuningdek, yuqorida tilga olganimiz Al'bert Fatxievning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan «Majmua'»da Haydar Xorazmiyning XVIII asrda ko'chirilgan «Gulshan ul-asror» asarining to'liq nusxasi va «Me'rojnoma» ham kiritilgan. (1988 yilning oxiri, 1989 yilning boshlarida Qozon shahriga borgan ilmiy safarim chog'ida Al'bert Fatxievdan «Gulshan-ul-asror»ning fota nusxasini olgan edim. U menda saqlanadi).

Shu o'rinda Haydar Xorazmiy ijodiga tegishli bo'lgan «Gulu Navro'z» haqida ham so'z aro gap aytishga to'g'ri keladi. Bir guruh olimlarimiz Haydar Xorazmiy «Gulshan ul-asror»ini tarjima yoxud ijodiy tarjima deyishga moyil bo'lsalar, ikkinchi guruh olimlarimiz «Gulu Navro'z»ni Lutfiy asari deb jar solib keldilar. Vaholanki, bu asar Haydar Xorazmiyga tegishli ekanini qator olimlarimiz: Alibek Rustamov, YOqubjon Ishoqov va boshqalar yetmishinchi yillardayoq bu asar Lutfiyga tegishli emasligini aytgan bo'lsalarda uni tan olishni istamadilar. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi va «Fan va turmush» jurnalida filologiya fanlari doktorlari: Abduqodir Hayitmetov va Ergash Umarovlar

¹ «San'at» jurnali, 1990, 7-son, 26-27-sahifalar.

qalamiga mansub «Taroziyning qomusi» («Fan va turmush», 1994, 1-son, 6-7 sahifalar), SHayx Ahmad Taroziy: «Funun ul-balog'a» (O'zAS 1994, 18-mart, 6-7 sonlar, 3-sahifa) maqolalarining chop etilishi bu chalkash fikrlarning yechilishiga kalit bo'ldi, hisob. 840 hijriy, 1436-1437 milodiy yillarida yozilgan SHayx Ahmad binn Xudoydod Taroziyning «Funun ul-balog'a» asarida «Gulu Navro'z» haqida shunday satrlar borligi eslatiladi:

Bu asar yordamida endi «Gul va Navro'z» dostonining muallifi masalasini ham hal etishimiz mumkin. Qo'lyozmaning 110-varag'ida «Gul va Navro'z»dan quyidagi mashhur baytlar keltirilib, ularni Mavlono Haydar, ya'ni Haydar Xorazmiyga tegishli ekani aytilgan:

O'shul kunlarki, vaqtim erdi darxam,
Buzulg'on bu ko'ngulda ming tuman g'am!..
Parishonliq bila holim mushavvash,
Tiriklik nomuloyim, umr noxash.
Na bir mahramkim, ul hamroz bo'lg'ay,
Na bir hamdamki, ul damsoz bo'lg'ay¹.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham «Muxtasar» asarida Mavlono Abdul Haydar Xorazmiyning «Gulu Navro'z» nomli² asari borligini qayd etgan edi.

«Gulu Navro'z» haqida so'z borganda Afg'onistonlik Oyxon Bayoniy tomonidan chop etilgan «O'zbek shoirlari» to'plamidagi so'zboshida yozilgan, mana bu fikrlarni ham keltirish foydadan holi emas: «So'z boshi»da Haydar Xorazmiy haqida quyidagilar yozilgan: «Faxriy Amiriyning» «Ravzat-us-salotin»da bergan ma'lumotlar asosida «Gul va Navro'z» masnaviysini Mavlono Lutfiyniki emas, balki Haydar Xorazmiyniki deb qabul qildik.

«O'zbek shoirlari» kitobining Haydar Xorazmiyga tegishli 102-109 sahifalarida yozadi Abdurashid Abdug'afurov «O'zbek shoirlari» maqolasida... shunday jumlar mavjud: «Mavlono Lutfiy Hiriya nisbat berilgan «Gul va Navro'z» manzum dostonini ham ushbu Haydar shoir manzum qilgan deytilar... Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z» dostonidan... Doston bir ming ikki yuz baytdan iborat bo'lib SHarqdagi adabiy an'anaga ko'ra hamd, va na'tdan so'ng dostonning Iskandar Mirzoning buyrug'i bilan yozilganligi qayd (etilgan) qilinadi.»³

SHu o'rinda ko'pchilik adabiyotlarda bo'lgani kabi N. M. Mallaevning «O'zbek adabiyoti tarixi» kitobida keltirilgan: «sababi nazmi kitob»da aytilishicha, Lutfiy «Gul va Navro'z» dostonini Temurning nabiralaridan bo'lgan Iskandar Mirzoning topshirig'i bilan yozgan. Iskandar Mirzo u vaqtda Isfaxonning hokimi bo'lgan. U ma'rifatparvarligi bilan boshqa Temuriy shohzodalardan birmuncha farq qilgan hamda qobiliyatli shoir bo'lgan». Savol tug'iladi. Birinchidan, Lutfiy Hirotda SHoxruh Mirzo qaramog'ida bo'lgani holda, shunday katta podshohni qo'yib Iskandar Mirzodek hali qo'nimli bir mavqega ega bo'lmagan kishini topshirig'ini bajarishi yoxud u bilan uchrashuvi mumkinmi!? Ikkinchidan, Iskandar Mirzo

¹ Abdyg'odir O'ayitmetov, Ergash Ymarov, Taroziy g'omysi, Fan va tyrmysh jymnali, 1994, 1-son, 6-7 sahifalar.

² Bobyr «Myxtasar», 1971, T., 135 (114-bet)

³ Abdyrashid AbdyG'afyrov «O'zbek shoirlari», «O'zbek tili va adabiëti» jymnali. 1991, 6-son, 47-50 sahifalar (Oyxon Baëniy nashrga tayërlagan «O'zbek shoirlari», JabyI, Afg'oniston Jymhyriyati davlat matbaasi, 1990-1991 yil. milodiy, O'ixriy-SHamsiy-1369 kitobi hag'ida)

Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha amakisi SHoxruh Mirzoning bir necha bor aldagan va unga qarshi kurash olib borgan bir paytda Lutfiydek alloma shoir ko'ra bila turib SHohruh Mirzoning yuziga oyoq qo'yib, Iskandar Mirzoga atab asar yozishi mumkinmi!? Va yana:

«Buyurdikim: «Bu gul faslinda darhol,

«Gulu Navro'z»ning afsonasin sol!?» - degan baytni yozish uchun Lutfiy ham yuqorida eslatganimizdek, 1409-1410 yil Mart-Aprelda Ko'shki Zar sahrosida bahor faslida-Navro'zda o'tkazilgan Qurultoyga qatnashganmi!? Bu va yana shunga o'xshash savollar javobsiz qolishi mantiqan ham va yana tabiiy holatda g'alat tuyuladi. Hurmatli olimlarimiz: Alibek Rustamov («Gulu Navro'zning muallifi to'g'risida» «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1972, 3-son), YOqubjon Ishoqov («Gul va Navro'z» dostonining muallifi masalasi» «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali 1972, 1-son)lar hali Taroziyning «Funun un-balog'a» asari topilmasdan ancha oldin bu asar Haydar Xorazmiyga tegishli ekani aniq aytgan edilarki, negadir hamon o'sha fikrlar inobatga olinmay kelinmoqda.

Endi yangi topilgan dalillardan keyin «Gul va Navro'z» dostonini muallifi Haydar Xorazmiy ekaniga yana gumonsiraydigan bo'lsak, unda Haydar Xorazmiy «Gulshan ul-asror»ida Iskandar Mirzoning madh etganiga ishonar ekanmiz «Gul va Navro'z»dagi mana bu satrlarni Lutfiy yozishi mumkinmi!?

Uyug'an toliim nogoh uyondi,

YAna o'chqon murodim sham'i yondi.

Bashoratnoma berdi xotiri g'ayb,

Hunar qildi hidoyat, butradi ayb.

Magar axtar muborak urdi folim

Ki, shahanshoh o'ngina tushti holim.

Tarahhum qildi o'z eski qulina,

Nazar qildi navosiz bulbulina.

Buyurdikim bu gul faslinda darhol,

Gulu Navro'zning ovozasin sol!?¹

Ko'rinadiki, Haydar Xorazmiy jangu jadallar tufayli ko'pdan beri Iskandar Mirzo bilan uchrashmagan, aniqrog'i «Gulshan-ul-asror»dan keyin undan topshiriq olmagan. SHu sababli Ko'shki Zarda Qurultoyda yig'ilgan olimu shoirlar orasida Faxriy Xiraviy «Majolis un-nafois»ning forscha tarjimasida yozganidek Haydar Xorazmiy haqida «Az ustodoni shuaro'i turk ast» ya'ni «Turkiygo'y shoirlarning ustodlaridan biri» bo'lgan Haydar Xorazmiydek «eski qulini» ko'rgani hamon shoir yozganidek:

«Tarahhum qildi o'z eski qulina,

Nazar qildi Navosiz bulbulina.

Buyurdikim bu gul faslinda darhol,

Gulu Navro'zning ovozasin sol!? - degani haqiqatga yaqindirki, Haydar Xorazmiy har ikkala asarida ham zamondoshlari tariflaganidek Iskandar Mirzoning ma'rifatparvar va shijoatkor, shoirtabiat podshoh deb, ko'rsatgan. U Bobosi Amir Temur kabi o'z atrofiga shoiru olimlarni yig'ib, o'z maqsad va g'oyasini xalqqa

¹ Lytfiy, Sensan sevorim, T. 1987, 354-355 sahifalar.

etkazish yo'llarini izlagan. Uning orzusini SHeroz viloyatidagi turkiyo'y shoirlarning ustoz bo'lgan Haydar Xorazmiy to'la eplagan. «Tarahhum qildi o'z eski qulina» degan satrni Lutfiy ne sababdan yozishi mumkin?! U Iskandar Mirzo bilan biror marta uchrashgani haqida manbalarda so'z aytilmagan. Xullas, Taroziyning «Funun-ul-balog'a» asarining e'lon qilinishi va undagi dalillar turkiy xalqlar adabiyotini, xususan, o'zbek adabiyotini yangi sahifalarini ochishi shubhasiz. Eng muhimi uzoq yillar Haydar Xorazmiydek buyuk alloma shoir ijodini o'rganishdagi chalkashliklarga barham berilishi va uning turkiy xalqlar adabiyotidagi o'rni haqida xolis fikrlar aytish imkoniyati tug'ildi.

«GULSHAN-UL-ASROR»DA IJTIMOIIY-SIYOSIIY, AXLOQIIY-FALSAFIIY MASALALAR

Qo'limizdagi imkoniyatlar asosida kitobxonlarga Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot berar ekanmiz, uning ijodining o'ziga xos tomonlari haqida so'z aytish ham maqsadga muvofiqdir.

Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' us-sa'dayn va majma'-ul-bahrayn»idagi ma'lumotlariga qaraganda SHeroz viloyatining hukmdori Sulton Iskandar Mirzo o'ziga tobe' bo'lgan viloyatda fozilu shoirlarni yig'ib ularga homiylik qilgan. Haydar Xorazmiy ham unga qarashli SHerozda yashab ijod etgan. Iskandar Sultonning yaxshi ishlarini ko'rgan va markazlashgan davlat qurish uchun olib borayotgan kurashini mamlakatdagi barcha ma'rifatparvar kishilar qatorida Haydar Xorazmiy ham qo'llab-quvvatlagan. SHuning uchun ham u «Gulshan-ul-asror»da adolatli hukmdor, markazlashgan davlat masalasi bilan bog'liq g'oyani ilgari surgan. Zotan, bu davr ijodkorlari butun Movarounnahru SHerozda hayot haqida, hayotning asl egalari Alloh tomonidan yaratilgan Inson orzu umidlari haqida baland ruh bilan kuylay boshlagan edilar.

Bu holni o'sha davr turkiy qavmlar adabiyotining yirik vakillari: Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Sakkokiy, Otoy, Muqimiy, Gadoiy, YAqiniy, Mavlono Haydar Xorazmiy, Malik ul-kalom Lutfiy va boshqa ijod ahllarining asarlarida ko'rish mumkin. Xuddi shu davr adabiyoti haqida Akademik Oybek «O'zbek poeziyasining tarixiy taraqqiyoti to'g'risida» yozgan maqolasida alohida qayd etganidek, «O'zbek poeziyasining rivojlanishida Navoiydan ilgari o'tgan va unga zamondosh bo'lgan shoirlar... o'zbek adabiy tilini o'stirdilar, she'r shakllarini mukammallashtirdilar, o'rta asrda hukm surgan diniy axloq ramkasidan chiqishga intildilar, dunyoga so'fiyona qarashdan kechib, dunyoviy zavq, tabiat, ishq va oshiqlar haqida kuyladilar», - deganda mutlaqo haq edilar.

Umumturkiy adabiyotning ana shunday gullashga yuz burgan davrida yashab ijod etgan mavlono Haydar Xorazmiy asarlarida afsonaviy voqealar bilan birga XIV-XV asrlar Temuriylar davri voqealarini o'zida aks ettirgan hikoyatlar, lirik chekinishlar uchraydiki, bu hol umumturkiy dunyoviy adabiyotning, xususan, lirik va epik she'riyatning keyingi taraqqiyoti uchun bitmas-tuganmas manba bo'lganligi shubhasizdir.

Buni Faxriy Xiraviyning «Turkigo'y shoirlarning ustodi», Sayyid Qosimiyning «Haydar agar ber desa so'z dodini, Jumla jahon aylar aning yodini» so'zlari ham

tasdiqlaydi. Darvoqe, o'tmishning har bir san'atkorini o'z davrining o'g'li bo'lishi va bashariyatning qutqazish yo'lidagi olamshumul tarixiy kurashning qatnashchisi bo'lishi jihatidan baholash kerak, - degan aqidaga amal qilib, Haydar Xorazmiy ijodini o'rganishda ham foydalanish mumkin.

Zero, bu tarif nuqtai nazardan Haydar Xorazmiy ham umumbashariy-gumanistik g'oyalarni olg'a surgan yirik siymolardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kishilar baxtu saodatini o'ylagan shoir, jamiyatda ro'y berayotgan ur-yiqitlarga, beboshliklarga qarshi norozilik bildiradi. O'zicha ularga qarshi isyon ko'taradi:

Bir nafas ey dunyo ishidin ma'lul,
Oqil esang qil bu nasihat qabul!?
Siynada savdo urug'in ekmag'il,
Himmat etagidan ilik chiqmag'il!
Hech nimag'a tegmasang ey, do'st, dast,
Himmat ayog'inda bo'l, ey do'st, past!
Odam otong'ong'a muruvvat kerak,
Orifu omig'a futuvvat kerak!¹

SHoirning bunday umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etishi, oddiy inson va uning yuksak insoniy tuyg'ularini himoya qilishi muhim ahamiyatga ega edi. U o'zi yashagan jamiyatning muhim masalalarini, voqealarini qalamga oldi.

Dunyoni tushunishda, Ilohiyot, inson va uning o'zligi, islom diniga e'tiqod, tasavvuf va va boshqa masalalarda ham Haydar Xorazmiy salafлари izidan bordi. U dunyoni tushunishda tasavvuf ta'limotiga suyanan bo'lsa-da, uning ijodining yetakchi g'oyasi «sendan harakat, mendan barakat» taomiliga bog'liq holda so'z yuritish holatini ko'ramiz. SHoir tushunchasiga ko'ra Alloh butun borliqni, bu olam aro eng ulug' mavjudot insonni ham yaratgan birdan bir ijodkor. U yo'qdan bor, bordan yo'q qiluvchi qudratga ega bo'lgan yagona zot. Allohning bu dunyoni yaratishdan maqsadi o'z qudratini namoyish qilish va insonni bu dunyoda yashash davrida o'zligini anglashni namoyish etishdan iborat:

Ulum mahal toptiyu qildi zuhur,
SHu'la urib partavina soldi nur.
Qut ichinda nekim erdi nihon,
Borcha bu qudrat bila bo'ldi ayon!..

Haydar Xorazmiy dunyoqarashida shu narsa e'tiborga loyiqki, u olamni turg'un holda emas, doimo o'zgarishda, harakatda ko'radi. Uningcha butun olamni Alloh zarralardan tashkil etgan. Inson va tabiat o'rtasida doimo uzviy aloqa mavjud. YA'ni inson o'z ehtiyoji uchun tabiatdan, Alloh tomonida yaratilgan nozu ne'matdan bahramand bo'ladi. O'z vaqtida inson vafot etgandan so'ng yana tuproqqa aylanadi. Aniqrog'i u boshqa olamga-materiyaga aylanadi, sifat o'zgarishiga uchraydi. Tuproqdan esa turli xil o'simliklar unib chiqib keyingi avlod ehtiyojlarini qondiradi:

Dunyoda yo'qtur bir ovuch tiyra xok
Kim, kishining tuproqidin bo'lsa pok!?
Gardu g'uboreki topar er yuzi,

¹ O. Jo'raev, Alisher Navoiyning anik no'ziyadagi tyrkiyo'g'y salafi. T. Fan, 1990, 77-sahifa, Jolgan misollar ham shy manbadan olingan.

Bir qarosochning yuzidur yo ko'zi!..
Sunbuli tar kim sochar ul mushknob,
Toki ne soch rangidin oldi xuzob.
Ko'rdi qaro yerda sanamlar yuzin,
Nargis o'shul surmadin ochti ko'zin.

Haydar Xorazmiyning hayot haqidagi, insonning yashashi haqidagi mulohazalaridan shu narsa ayon bo'ladiki, u insonni to'g'ri bo'lishga, mehnati evaziga kun ko'rishga undaydi. U jamiyat a'zolarini «yaxshi» va «yomon»ga ajratib, kishilar orasidagi tafovutni Allohning irodasiga bog'laydi. Kishilarni har narsaki qilar ekan sabr-toqat, keng mulohaza, o'zligini anglash orqali maqsadga yetadi, degan fikrni ilgari suradi. U orzu qilgan inson sarvdek to'g'ri, o'riku olma kabi mevador, yoxud yomg'ir singari hammaga birdek naf'i-foйда keltirishi lozim:

Sarvdek ozoda bo'lu rostkor,
YO o'riku olma kibin mevador.
Naf'i tekur barchag'a yomg'ir bikin,
YO tengsiz o'rtasida chumdir bikin!

Afsuski, shoir yashagan zamonda hamma hukmdorlar ham adolatli bo'lavermagan. Ma'rifat o'rnini jaholat, adolat o'rnini qalloblik egallagan zamonda oddiy kishilarga zulm o'tkazish hollari ham ijodkor dilini vayron qilgan, ko'ziga keng dunyo tor bo'lib, Qiyomat yaqin kelganday bo'ladi go'yo:

Bir kecha g'am birla edim hamnafas,
Munis damsozim ul erdi-yu bas!
Ko'z yoshidin boda, bag'irdin kabob,
Dardu dilim nuqlu fig'onim rubob...
Ko'zima keng dunyo bo'lib tanggu tor,
Ro'zi Qiyomatni ko'rub oshkor.
Har damu har lahza bir o'tqa yonib,
G'oyati yo'q o't bila o'rtonib.

«Gulshan ul-asror»dagi «Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz» hikoyatida XV asr voqeyligi to'la o'z ifodasini topgan. SHoir XV asr sharoitida yashagan mehnat ahli va shaharlik olib-sotarlar haqida va ularning yashash tarzi haqida ajoyib manzarani ko'z oldimizga keltiradi. Buni bo'z to'quvchi kampir va bazzoz va dehqon o'rtasidagi savdo misolida ko'ramiz. «Arzon olib, qimmat sotuvchi, unga kepak sirkag'a suv qo'shib sotuvchi» xaridorni ko'zini shamg'alat qilib, o'z molini maqtab, mol olishda sotuvchining molini past bahoda olib, g'irromlik qiluvchi bazzozning razil basharasi hajv ostiga olinadi. Savdo bilan shug'ullanuvchilarni insofu adolat bilan ish yuritishga chaqiradi. Uning bunday fikrlari hozirgi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan. SHoirning fikricha mehnat, mehnat evaziga kelgan halol boylikkina inson hayotini bezovchi, umrning yoshlik davridek musaffo va lazzatbaxshdir:

Bo'lma xaridorlar bila saxtro'y,
Qilma zabunlarg'a qattiq guft-go'y!?
Bo'lma ujuz olib, og'ir sotquvchi,
Unga kebak, sirkag'a su qotquvchi!..
Kom ila topsang dog'i bozorni,

Bir yo'la kuydurma xaridorni!?

«...pandu nasihat» (Bobur) bilan sug'orilgan «Gulshan ul-asror»da axloqiy-ta'limiy masalalar qiyomiga yetgan hikmatli birikmalar, maqol darajasiga ko'tarilgan baytlarga san'atkorona singdirilgan. U so'zning, (umuman badiiy asarning) qudratiga katta baho beradi. Badiiy asarning shakli va mazmuni bir-birini to'ldirishi lozimligi uqtiriladi:

Zohiru botin xabari so'z dadur,
Har neki bor o'zgada yo'q, o'z dadur...
Umr garonmoya chu bo'lg'ay talaf,
So'z duru so'z dunyoda qolg'ay halaf!
Arog'a kirsah mahaki imtihon,
So'z iyorib bo'lur uldam ayon.

Dostonda odob-axloq masalasiga katta e'tibor berilgan. Qaysi bir hikoyat va maqolotni o'qimang bu masala chuqur badiiy tahlil qilingan. Zero, shoir nazdida va umuman ham jamiyatning gullab-yashnashi, insonlarning o'sha jamiyatda yashab baxtu saodatga erishuvi olijanob insoniy fazilatlarga bog'liqligini Haydar Xorazmiy ko'z o'ngida tutadi. SHu sabab bo'lsa kerak doimo insondagi yaxshi fazilatlarni targ'ib qiladi:

Xushtur eranlarg'a karam davlati,
O'lsa dog'i, o'lmas emish himmati.
Kimki saxovatdin urur bo'lsa dam,
Ko'rsatur erlikta sobit qadam.
Buxl aziz odameni xor etar,
El ko'zida it kibi murdor etar...

Mana bu baytlarni o'qiganda kishilarni jamiyat uchun foydali ish qilishga, yaxshi xulq va odoblari bilan kishilarga yordam berishga, odamiylik va insoniy fazilatlari bilan yaxshi nom qoldirish lozimligini uqtiriladi. Inson boy bo'lgani bilan ma'naviy qashshoq bo'lishi, karamli kishilar kambag'al bo'lsa-da ma'naviy yuksakligi bilan boylardan ustun turishi mumkin degan xulosaga keltiradi kishini:

Boy dagul sen dirami bor esa,
Faqir g'aniydur karami bor esa.
YArim oyoq oshki toparsen nasib,
YArmini berki, esun bir g'arib!?

Molu dunyoga ortiqcha xirs qo'yish kishiga faqat dardu ranj keltiradi. Bunga tarixda o'tgan Qorun, Faridunlar misol:

Borduru bermayin ne edirur, ne er,
O'zi bila go'rgamu eltur, ne der!?
Yig'di Faridun hashamu molu ganj,
Neni olib bordi bajuz dardu ranj!..

Haydar Xorazmiy e'tiqod qo'ygan kishilar qatorida birinchi navbatda rizq-ro'z yaratuvchi dehqonlaru bog'bonlar. SHuning uchun ularga shoirning hurmati beqiyos:

To'kmasa dehqon araqi poy bil,
Emishining foydasi bilmas el!
Tarbiyatu sa'y qilur bog'bon,

Toza bo'lur, meva berur bo'ston!

Haydar Xorazmiy ishq talqinida ham o'ziga xos yo'l tanlagan. Ishq yo'liga qadam qo'ygan kishi mard, bir so'zli vafodor bo'lishi bilan birga har qanday qiyinchilikka ham bardosh berib, matonat bilan yengib o'tishi kerakligini uqtiradi. SHunday qilgandagina kishi maqsad sari yaqin borishi mumkin:

Ishq fidosig'a balodin ne g'am,
Sarzanishu javru jafodin ne g'am!?
Bo'lding esa ishq bila oshno,
Mehnatu andeshag'a qil marhabo!

«Gul va Navro'z» Haydar Xorazmiy ijodining mahsuli ekan, shoirning ishq borasida Gulu Navro'z o'rtasidagi voqealar tasvirida ham ishq haqida so'z yuritganda otashin satrlarga duch kelamizki, ularni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiqki, sababi «Gulshan ul asror»da olg'a surilgan bu g'oya epik plandagi asarda yanada yorqinroq ko'zga tashlanadi:

Sevuk sevgan o'lumdin fikr qilmas,
Etin qaychi bilan to'g'rasa tuymas!..
Kishikim ishq bila oshinodur,
Anga har dam falaktin ming jafodur.
Balodur sarbasar ishq jahonso'z
Kim, o'rtar muhtalolarni shabu ro'z!
Er o'g'likim qadam qo'ysa bu yo'lda,
Qadam boshtin keraktur joni qo'lda!..

YOki mana bu satrlarda chaqnab turgan otashin ishqning shu'lalari-chi:

CHo'llagan suni ko'rmayin inonmas,
Necha su desalar susag'i qonmas!..
Bila bo'lsa ikki yori vafodor,
Su olsa dunyoni ne qayg'usi bor?!

«Gulshan-ul-asror»ni umumturk mumtoz adabiyotning Alisher Navoiygacha yozilgan falsafiy-axloqiy dostonchilikning eng yaxshi na'munasi deyish mumkin. CHunki, Haydar Xorazmiyning bu dostonida ko'tarilgan umuminsoniy masalalar: hayotni keng qamrab olinishi va real zamin voqeligiga asoslangani jihatidan o'zidan oldin yozilgan shu janrdagi «Qutadg'u bilik», «Hibbat ul haqoyiq» singari axloqiy-ta'limiy dostonlardan butunlay ajralib turadi. Asarda shoir o'zining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy va nafis adabiyotga bo'lgan qarashlarini nozik tasvirlarda bera olgan:

So'zda kerak ma'niyu ma'nida zavq,
So'zlaguvchida so'z uchun dardu shavq.
So'z bila ham bo'lsa ne bo'lg'ay edi,
Mendin ochun so'z bila to'lg'ay edi,-

deb so'z san'atkorlari oldig'a kitobxonlarning didini o'stiradigan, dardu alamlarini yengillishtiradigan, zavqu shavq beradigan asarlar yozish kerak degan talabni qo'yib, o'zi imkoni boricha asarlarida bunga amal qiladi:

Arpa ekib bug'doy o'rurman tegan,
Ko'rmaduk oshlug'chini bug'doy egan!?

SHOIR ASARLARIDA BADIY-TASVIRIY VOSITALAR

Haydar Xorazmiy o'z salafлари, xususan SHayx Nizomiy, «Maxzan-ul-asrori»ga javob tarzida yozgan «Gulshan-ul-asror»ida lirik holatni epik tasvir bilan, epik tavsirni lirik kayfiyatlar bilan uyg'unlashtirib yuboradiki, bu usul asar mazmunini boyitishda, fikr izchilligini ta'minlashda bir vosita bo'lib xizmat qilgan. SHoir qo'llagan bunday izchillikni ta'minlovchi usul asarning badiiy qimmatini oshirib, kitobxon diqqatini tezda o'ziga jalb etadi. Dostonda turli badiiy-tasviriylar vositalar, tabiat manzaralari tasviri ishlatilganki, bunday san'atkorlik asarning boblar orasidagi bog'lanishlarini ta'minlagan, obrazlar ruhiy holatini ochishda xizmat qilgan. Tashbeh-o'xshatish, tazod-qarama-qarshi qo'yish, istiora, ta'riz-e'tiroz, kinoya, tashxis-jonlantirish, qo'sh qofiya, radif, shuningdek xalq maqollari asosida yangi aforistik baytlar yaratish, afsonaviy qahramonlar obrazidan ham ustalik bilan foydalanish shoir mahoratining belgisidir:

Boy dagul sen dirami bor esa,
Faqir g'aniydur karami bor esa!

Tazod san'ati vositasida boy kambag'alga nisbatan ma'naviy qashshoq ekani ta'kidlansa, tashbeh san'ati ishtirokida insonning ruhiy holati yonib tugayotgan shamga qiyoslanadi, o'xshatiladi:

SHam' sifatlig' yurakim shu'lazan,
Dud boshimda ayoqimda lakan.

Quyidagi baytlar o'zining chuqur mazmundorligi, inja-nozik fikrlar quyuq bo'yoqlar bilan jonlantirib yuborilganligidan xalq hikmatli so'zlariga yaqinligidan aforistik baytlar qatorida turadi:

Qolmas ayoq ostinda durri yatim,
Qiymati o'ksurmu necha sinsa siym!?
Dur koni qimmatki, butundur sadaf,
Kon ichida la'lg'a bormu sharaf1?

Mana bu satrlarda shoirning o'tkir musavvir, tabiatning o'ta nozik ranglarini ilg'ay olish qobiliyati borligiga, aniqrog'i shoirning tasavvuri kengligiga qoyil qolamiz. Bu go'zal tasvir Turonzaminning go'zal tonggi naqshi:

SHom nafas chektiyu subh urdim dam,
Qoldi aro yerda shafaq muttaham.
CHun yorudi subhi sahar urdi dam,
Tikti Xo'tan Xusravi oltun alam!..
Zulfini kesti buti xurshedro'y,
To'ldi majolis ichinda guftigo'y.

Haydar Xorazmiy uzoq o'tmishdoshlari boshlagan va Temuriylar davrida yangi bosqichga ko'tarilgan turkiy til va adabiyotning ravnaqi uchun bo'lgan kurashni o'z ijodi misolida dadil davom ettirdi. SHuning uchun ham uning asarlari Qashg'oru Bosfor bo'g'ozigacha bo'lgan yerlarda yashagan turkiy qavmlar orasida keng tarqaldi. U manbalarda qayd etilganidek ikki tilda ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lsa-da turkiy tilda-o'z ona tilisida ijod etishni turkiy xalqlar farzandining burchi yanglig' qabul etdi. SHu sababli Iskandar Sulton taklifini «jon tishi» bilan qabul

qildi. Iskandar Mirzo o'zi shoir sifatida turkiy tilda asar yozib, shu muqaddas ona tili ravnaqi uchun boshqa ijodkorlarni ruhlantirdi:

- Turki zuhuredur ochunda bukun,
Boshla ulug' yir bila turkona un!?
Rost qil ohangi Navou Hijoz,
Tuz YOtug'on birla SHavdurg'uni soz.
Turk surudini «Tuzuk» birla tuz,
YAXshi Ayolg'u bila ko'kla Qubuz.
So'zda mening tavrur erur dilpisand,
Ta'bg'a gulqand bikin sudmand.

Bu so'zlarni Haydar Xorazmiy garchi Iskandar Mirzo tilidan aytgan bo'lsa-da ayrim manbalarda (inqilodan keyin chop etilgan asarlarda, albatta) Nizomiy nomiga nisbat berib kelinishi g'alatdir. Bunday deyishimizning boisi Haydar Xorazmiy Iskandar Mirzo saroyida yashab, uning parvarishida bo'lsayu boshqa kishilarni topshirig'ini bajaradimi!? Bajarganda ham unga asos bo'lishi lozim edi. Bo'lmasa, Haydar Xorazmiy «Gulu Navro'z»ni yozishga fотиha olganida «Tarahhum qildi o'z eski qulina» dermidi? Bundan ko'rinadiki Haydar Xorazmiy Iskandar Mirzo bilan yaqindan muloqotda bo'lgan. SHu sababli har ikkala asar yozilishida bevosita Iskandar Mirzo tashabbusi bo'lganki, shoir uni:

G'ayb ramuzi bila zehni Qorun,
Fikri funun ichra funun ofarin!
Malak nishon bermadi bu shohdek,
Dahr ko'zi ko'rmadi bu mohdek,-

deb Alisher Navoiy va boshqalar qayd etganlaridek qayta-qayta uni shohzodalar ichida madh etadi. SHunday deb yozishiga ham haqli edi. CHunki, o'sha dolg'ali davrda boshqa shohzodalar toju taxt uchun kurash olib borayotganda bunday ishlarni xayollariga ham keltirmagan. Iskandar Mirzo esa Ko'shk Zar yaylovida va boshqa joylarda olimu fozillar, shoirlar bilan turli masalalarda suhbat qurganligi buning shubhasiz isbotidir.

Haydar Xorazmiy «Gulshan-ul-asror» axloqiy-ta'limiy dostoni bilan uzoq tarixiy taraqqiyotni boshidan kechirib kelayotgan epik she'riyatning yangi davrini boshlab berdi. U birinchilardan bo'lib SHayx Nizomiy «Xamsa» («Panj ganj»)siga turkiy tilda javob yozadi. «Maxzan-ul-asror» vaznida «Gulshan-ul-asror»ni, «Xisrav va SHirin» vaznida «Gulu Navro'z»ni va yana «Me'rojnoma» nomli asarlari hamda «zavq-shavq beruvchi go'zal va nafis turkiy va forsiydagi g'azallari» bilan butun SHarq olamida shuhrat taratgan. Uning asarlari barcha turkiy qavm orasida qo'lma-qo'l bo'lib ketgan Bu hol turkiy tildagi adabiyotda Alisher Navoiyga qadar ham «Xamsa» dostonlariga javob yozishga harakat bo'lganini ko'rsatadi. (Ehtimol u boshqa asarlarga ham javob yozgandiru biz hali undan bexabardurmiz). SHuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Haydar Xorazmiy «Xamsa»ning hamma dostonlariga javob yozganligi hozircha ilm-fan ahllariga ma'lum emas. Biroq, u boshlagan ulug' ishini Alisher Navoiy davom ettirib, jahon adabiyotiga ajoyib bir durdona turkiy «Xamsa» tuhfa etdiki asarlar o'tishiga qaramay kitobxonlarga doimiy hamroh bo'lib zavq-shavq bag'ishlash bilan birga, ularni lol qoldirib, kelmoqda.

«Zotan, Alisher Navoiy avvaldan qolgan an'ana va merossiz maydonga kelaolmas edi. Faqat Eron madaniy merosi bilangina Alisher Navoiy ijodiyotini izohlash mumkin emas, uning ijodiyotining ildizlari O'zbekiston tuprog'ida va unga qo'shni viloyatlarda XV asrga qadar boy tarixga ega bo'lgan o'zbek tili va adabiyoti taraqqiyotiga borib taqaladi.»¹

A. YU. YAkubovskiyning «O'zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida» maqolasida aytilgan bu fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Davlatshoh Samarqandiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Alisher Navoiy, Bobur, Sayyid Qosimiy va nihoyat SHayx Ahmad binn Xudoydod Taroziy, Komron Mirzo va boshqa buyuk siymolar Haydar Xorazmiyni turkiyguy shoirlar orasida birinchi o'ringa qo'yib, hurmat va ehtirom bilan «Mavlano Haydar Xorazmiy turkuyguy» deyishlarining siri-yu sababi «cherik chekmay» Olam ahllarining qalblarini zabt etishda ekan-da zero shundoq bo'lsa, neajab!?

Haydar Xorazmiy haqida bilganlarimni qog'ozga tushirar ekanman shoirning:

Har g'alat er o'g'lig'a bir pand erur

Kim g'alatin bilsa xiradmand erur -

Degan satrlari charx urib, giryon-giryon aylanaverdi, aylanaverdi... Nega bunday bo'ldi ekan deb uzoq o'yladim. Tarix sahifalariga nazar tashladim uning qorong'i go'shalari ichra uzoq vaqtlar iztirob ila tentirab yurdim. Buyuk sarkarda, davlat arbobi, zukko olim, xassos shoir Bobur nega aynan shu satrlarni o'z asariga ko'chirdi va ehtimol yod olgandir!?

SHu xayollar og'ushida «Gulshan-ul-asror»dagi «Temurbek haqida hikoyat»ni qayta-qayta o'qidimu Boburdek shiddatkor kishi qalbini zabt etgan, Amir Temur «Tuzuklar»da yozganidek o'z xatolarini anglab yetti iqlimga hukmdor bo'lgan. SHoh Bobur esa o'z «g'alatin» anglab Hindistondagi bir mamlakatda «Boburiylar» davlatiga asos soldi... Biz nima xatoga yo'l qo'ydikki, Alloh uning jazosi sifatida butun Turon zamindagi turkiy qavmlar Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklariga bo'linib yuz yillab o'zaro urushdik, bir birimizni tan olmay yovlashdik, qirdik, qirildik... kuchsizlanib qolgan, bu aslida bir, lekin o'zaro kelishmay holdan toygan xonliklarni rus chorizm armiyasining generali CHernyaev qo'shinlari osongina bosib oldilar... oktyabr to'ntarishi natijasida yangi hukumat paydo bo'ldi. U ham ilgarigi nazariyani yangicha talqin qilib, Markaziy Osiyo xalqlarini o'z qarmoqlariga ilintirdilar... Mana ular bizni o'z qarmoqlariga ilintirish uchun nimalar qilishmagan: «Bizni boy-badavlat qiladigan xazina G'arbda emas, SHarqdadir. U bizning O'rta Osiyodagi mulklarimizda ko'milgan» (Sank-Peterburgskie vedemosti-1870, 1 yanvar)»

«SHunday qilib, musulmonlarimiz maorifi uchun asos qilib olinishi shart bo'lgan birinchi bosh printsip ularni ruslashtirishdir... Ikkinchi printsip... Islomni buzish, umumiy diniy jihatlarni buzishdir». (M. Muropievning 1882 yilda «G'ayri-rus, musulmonlar maorifning asoslarini qanday bosh printsiplar tashkil etmog'i lozim» nomli ma'ruzasidan)». «Bir ming sart bir rus soldati etigining poshnasiga arzimaydi». (Farg'ona gubernatori Ivanovning 1916 yilda askarlarga

¹ A. YU.YAkubovskiy, O'zbek xalg'ining yuzaga kelishi masalasi hag'ida, T, FAN. 1941, 20-sahifa

qarata aytgan nutqidan). Inqilobdan keyin «Dohiymiz Lenin ham G'. Safarov, Zaki Validi To'g'onning fikrlariga ham quloq solmadilar. Buning o'rniga «Biz o'zimizni inqilobning ilg'or otryadi, eng ongli va komil jangchilari deb bilamiz va siyosatda g'o'r bo'lgan musulmon mehnatkashlarining yetakchisi bo'lishni burchimiz deb bilamiz. Musulmonlarga biror narsani topshirish niyatida emasmiz», deb javob beradi. Turkiston Xalq Komissarlari Kengashining a'zosi Pavlyuchenko, 1919 yilda kengashda so'zlagan nutqida. Ishtahangga balli-e, axir Turkistonliklarning ota-bobolari Bilka Qoon, Qul Taginlar turkiy hoqonliklariga asos solganlarida «Avesto» kabi diniy kitoblar yozib dovrug' taratganda qaerda eding!?

Avval teng huquqli og'a-inilarmiz deb, qo'lga oldilar, so'ngra ularning asl basharalarini bilgan va fosh qilgan kishilarni bosmachi deb, keyin xalq dushmanlari deb birin-ketin yo'q qilib yubordilar va nihoyat «Paxta ishi» «O'zbeklar ishi» degan xurushlarni o'ylab chiqib, asl o'zbek o'g'lonlarini o'zgalar qo'li bilan yo'q qilish yo'llarini yangi usulini joriy qildilar...

Mana shular xayollarimni band etdilar. Biz hassasini qo'ldan bir bora oldirgan xalqmiz. Mustaqillik bergan erk, ozodlik ne'matlarini ne-ne turkiy xalqlarning asl farzandlari qoni evaziga Alloh yetkazdi. Biz uni qadriga yetishimiz kerak. Mustaqillik tufayli dunyo tanidik, dunyo bizni tan oldi. YUrtodoshlarimiz butun dunyo xalqlari oldida o'zligini namoyish etmoqdalar... Ana shu erk, ozodlik tufayli uzilib qolgan o'tmish tariximiz tiklanmoqda. Qadimiy ajdodlarimiz tomonidan yozilgan ilmiy-adabiy, tarixiy asarlar topilib, xalqimizga taqdim etilmoqda toki, ular o'zligini anglab, mustaqillik qadriga etsinlar. Agar ozodlik, mustaqillik bo'lmaganida edi bir vaqtlar «sariq iblis» deb nafrat o'yg'otilgan mamlakatlarga borib ularning hayoti bilan tanisharmi edik. Birgina Amerika Qo'shma SHtatlari kutubxonalaridan topilgan, uzoq yillar bizdan ayri tushgan ma'naviy meros boyliklarining o'ziyoq har qanday Turonzamin farzandlari qalbida cheksiz g'urur, iftixor tuyg'usini jo'shtirmaydimi?!

Taroziyning «Funun-ul balog'a» asarining A. Hayitmatov va E. Umarovlar tomonidan e'lon qilinishining o'ziyoq bizning adabiyotimiz tarixini necha yuz yillar o'tmish bilan bog'lab yubordi. Uzoq yillardan buyon chalkash fikrlarga sabab bo'lib kelayotgan «Gulu Navruz»ning muallifi masalasini osongina aniqlash imkoniyatini berdi.

Endi bir o'ylab ko'raylik, avval rus chorizmi, keyin uning vorisi qizil imperiya bizlarni yuz ellik yilga yaqin vaqt davomida boshimizga nima tuhmatlarni yog'dirib, sizga «ma'daniyat» keltirdik deb o'zligimizni unuttirishga asl ildizimizni yo'q qilishga urinmadilarmi? Prezidentimiz I. A. Karimov «Amir Temur haqida so'z» ma'ruzasida: «Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi», - deganda anashularni nazarda tutgan edi.

Soxta og'a-inilarning «xizmatlari» tufayli ko'p narsalarni boy berdik, kim nima qilganini, bilmasdan, kim va qaysi muallif qanday asar yozganini topolmay, uning asl nusxalarini ularning o'zlari yashirib bizni chalg'itishlari oqibatida uzoq yillar

manbalarda «Gulshan-ul asror» Haydar Xorazmiyniki deb yozilgani holda, uning muallifini tan olmay Nizomiy «Maxzan-ul asror»ining tarjimasi dedik. «Gulu Navruz»ni ham Haydar Xorazmiy yozganini bilganimiz holda, gumrohlik qilib Lutfiy asari sifatida talqin qilib, o'quvchilarni chalg'itib keldik. Bularning bari siz-bizni o'zligimizning unutishga harakat qilingan tuzumning natijasi. Bo'lmasa, qadimiy manbalar qo'limizda bo'lganida edi shuncha yillar oq qog'ozni qoralab bir-birimizga chang solib yurmagan bo'larmi edik. Ma'lum bo'lmoqdaki Haydar Xorazmiy o'z davrining ustod shoirlaridan bo'lgan. Hozircha fanga ma'lum bo'lgani «Gulshan-ul asror», «Gulu Navruz», «Me'rojnoma» asarlarini yozib umumturk adabiyoti tarixida katta va o'chmas iz qoldirgan. Ulug'lar hurmatiga sazovar bo'lgan, xalqning qalbidan bir umr joy olgan.

Haydar Xorazmiyning «Har g'alat er o'g'liga bir pand erur» kalimasini yodda tutib shoirning uchchala asarini bitta kitob holda e'lon qilish payti kelmadimikin? «Gulu Navruz»ni Lutfiy hazratlaridan olib uning asl muallifi nomidan e'lon qilinishi xatolarimizni tuzatib, ulug' shoirning ruhini kechikib bo'lsa-da shod qilishdir. Lutfiy hazratlari bu bilan hech nima yo'qotmaydilar. Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek «Malik ul kalom» Mavlano Lutfiyligicha qolaveradi. Hazratning ijodlari siz-bizning himoyamizga muhtoj emas.

X o r a z m i y

Shoirning taxallusi bo'lib, ismi va tug'ilgan yili no'malum. Tahminan XIV asr boshlarida Xorazmda tug'ilgan. U butun Sharq mamlakatlarini kezib chiqib 1353 yili sayohat paytida Oltin O'rda xoni Jonibek bilan tanishadi va uning iltimosiga ko'ra turkiy tilda "Muhabbatnoma" asarini yaratadi.

Asarning fanga ma'lum bo'lgan ikki nusxasi mavjud bo'lib biri – 1432 (835) yilda Yazd shahrida Mir Jamoliddin topshirig'i bilan Boqi Mansur Baxshi tomonidan ko'chirilgan uyg'ur yozuvi bo'lsa, ikkinchisi - 1508-1509 (914) yilda arab yozuvi bilan ko'chirilgan nusxadir. Bunga mustaqil asar bo'lgan "Hikoyat" ham ilova qilingan .

"Muhabbatnoma", "Hikoyat" bilan birga 473 baytdan iborat bo'lib, hamda Muhammadxobek bilan ko'rishganning bayoni, 3 g'azal, (bittasi fors-tojik tilida), masnaviy "Muhammadxo'jabek madhi" va "Vasf-ul hol" dan iborat. Asar o'n bir nomadan iborat bo'lib, 4-8-11 nomalar fors-tojik tilida yozilgan. Ko'pchilik nomalar masnaviy – nomadan tashqari, g'azal va kichik soqiynomani o'z ichiga oladi. Asar xotimasi "G'azal", "Munojaat", "Qit'a", "Xotimat-ul-kitob", "Hikoyat" va "Iltimosin ay tur" qismlardan iborat bo'lib, asar teksti fard bilan tugaydi. Bulardan ko'rinadiki "Muhabbatnoma" turli janrlarni o'z ichiga olgan yagona kompozitsion birlikdagi mustaqil asardir. U asosan o'zbek tilida bitilgan asar bo'lib, fors –tojik tilidagi g'azallar ham:

Sabrdan yaxshi yo'qtir pesha qilsam,

Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam,

degan o'zbekcha naqorat bilan tugaydi. Bu hol asarni butinlay o'zbek tilida ijod etilganini yana bir bor isbotlaydi.

"Muhabbatnoma" o'z nomi bilan ham mazmunan ham sevgi –ishqni tarannum etuvchi asardir.

Xorazmiy bu asari bilan u dunyo va bu dunyo haqida kuyladi. Bu dunyo yer go'zallarini madh etdi. Shoir sevgilisini hurlardan, parilardan yuqori qo'yadi. Shoir uchun yorsiz (dunyo) hayot – quyoshsiz kunduzday gap... Shu sababli u jannatni ham usiz tasavvur etolmaydi.

Sumantek orazing guldin tikansiz,

Menga do'zax erur –uchmoq sensiz.

Masih-Iso qudratiga ega bo'lgan yer go'zalining husn-jamoliga dosh berolmay quyosh tunda yuziga chodir tortadi. Shoir o'z yorini butun borligi bilan ta'riflab yozadi:

Buyung sarvu sanubartek, beling qil,

Vafo qilgan kishilarga vafo qil.

Chechak derman yuzingizga qamar ham,

Xaloyiq sevganni xoliq sevar ham,

Qachonkim shod esang, g'amgina rahm et,

Agar sulton esang, miskina rahm et.

"Muhabbatnoma" asari bilan Xorazmiy o'zbek dunyoviy adabiyotida yangi davrni boshlab berish bilan birga ijtimoiy muhitni ham aks ettirishga urindi.

Bu hol ayniqsa “Muhammadxoja” madhida yanada yaqqolroq ko’zga tashlanadi. Shoir Muhammadxojani yaxshi tomonlarini tasvirlar ekan ba’zan uni ideallashtirib yuboradi.

U yor obrazini tasvirlashda turli badiiy tasvir vositalardan keng foydalanadi. Tajohilu orifona – bilib – bilmaslikka olish san’ati:

**Ochilsa la’lingiz, shakkar sochilur,
Ko’rib gulg’unchaning og’zi ochilur.
Buyungtek sarv yo’q bo’ston ichinda
Yuzing nuridin oy nuqson ichinda.**

O’xshatish metofara va jonlantirish hamda tajahuli orifona san’ati bilan payvandlaydi:

**Shakkarmu erningiz yo qand yo jon,
Uyolur la’lingizdan obi hayvon.**

T A Z O D – qarama – qarshi qo’yish san’ati:

**Qaro meng ol yanog’ingqa yarashur,
Boshim doim adoqqingga yarashur.**

O M O N I M - so’zlar vositasida original so’z o’yinlari-jinos san’ati yasaydi:

**Oshar eldin sening yelganda oting,
Quyosh yongliq jahonni tutti oting,
Seni ko’rgan ruh o’zindin yot bo’lir,
Ruhingni ko’rsa ming shah mot bo’lur.**

Shoir yor vasfini tasvirlashda afsonaviy obrazlardan foydalanadi. Buni talmeh san’ati deyilar:

**O’g’on yusuf jamolin sizga berdi,
Muhabbat kimyosin bizga berdi.
So’zing shirin, o’zing xisravdin afzun
Bo’lur layli sening husningga majnun.**

“Muhabbatnoma” aruzning hazaj (hazaji musaddosi maksur-mafoilun, mafoilun, mafoil) bahrida yozilgan.

**Seni ko’rsa kechar tarso sanamdin
Vujudka kelmadi sentek alamdin.**

“Muhabbatnoma ” ayrim kamchiliklardan qat’iy nazar birinchilar qatorida dunyoviy sevgini math etgan asardir. U noma janrining keyingi taraqqiyoti uchun zamin hozirladi. Ho’jandiy “Latofatnoma” (XIV) Amiriy “Dahnoma” (XV), Said Ahmad ibn Meronshoh “Taashshuknoma” (XV) asarlari “Muhabbatnoma” ta’sirida maydonga kelgan dunyoviy temadagi asarlardir.

Q u t b

O'zbek dunyoviy adabiyotning yirik namoyondalaridan biri Qutbning bizgacha, ulug' Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning "Xisrav va Shirin" dostonining erkin tarjimasida yaratgan "Xisrav va Shirin" dostoni yetib kelgan.

Dostonda hikoya qilinishicha Eron shohi Xurmuzning o'gli shahzoda Xisrav sipohiylik yurishlari uchun zarur qoidalarni o'rganadi.

Kunlarning birida Shopur ismli jahongashta rassomi unga Mehinbonuning jiyanini go'zal Shirin Haqida xabar beradi. Keyin u Shahzodaning iltimosiga ko'ra sovg'ini bo'lib borib Xisravning sovg'asini – uzugini Shiringa topshiradi. Shirin Xisrav tomon, Xisrav Shirin yo'lga chiqib tasodifan uchrashib qoladilar. Shirin maslahati bilan Xisrav otasidan qolgan taxtni egallab keyin to'y qilmoqchi bo'ladilar. Xisrav otasining taxtni Bahrom Chubindan tortib olish uchun Rum qaysaridan yordam so'raydi, va evaziga Qaysarning qizi Maryamga uylanadi. Bu orada Malika Mehinbonuning taxti Shiringa qoladi. Farhod ismli sartarosh yigitning topib yurtini obod qilish ishiga beriladi. Farhod Shirinni sevib qolganini sezgan Xisrav undan qutilish uchun Besutun tog'ini kesib yo'l o'tkazsang Shirinni olasan deb, "shart" qo'yadi. Bunga ham chiday olmay makkor kampirni yuborib Farhodni o'ldiradi. Bu orada Mariyam o'lgach, Xisrav Shakar nomli go'zalga uylanadi. U ham o'lgach kechirim so'rab, Shirin huziriga boradi. Xisrav Shirin maslahati bilan yurtini obod qilishga kirishadi. Lekin uning Maryamdan bo'lgan o'g'li Sheruya otasini o'ldirib, o'gay onasiga uylanmoqchi bo'ladi. Shirin bunga chidayolmay Xisrav qabri ustida o'zini o'ldiradi.

Dostonda Shirin obrazi orqali sadoqatli yor va tadbirkor hamda adolatparvar shoh g'oyasi olg'a surilsa, Xisrav obrazida murakkab shaxs xarakteri yaratiladi.

Farhod dostonda epizodik obraz bo'lsada voqea rivoji uchun asosiy rol o'ynaydi. Mehinbonu ideal hukmdor, aql va donishmandlikning timsoli sifatida taassurot qoldirsa, Shopur rassom va olim hamda sadoqatli do'st sifatida ish yuritadi. Shuningdek, Sheruya esa aristokratlarning salbiy xususiyatlarini o'zida to'plagan shuhratparast, xudbin shohzoda yanglig' namoyon bo'ladi.

Qutb, Nizomiy dostonini o'zbek tiliga o'girishda original yo'l tutdi. Nizomiy dostonidagi ayrim boblarni qisqartirdi va yangi boblar hisobiga uni boyitdi. Jumladan, dostonidagi "Kalila va Dimna qirq qissa", "Xisrav va Shirin" afsonasining natijasi, Me'roji Muhammad, o'z farzandini Muhammadga nasihat bayonida, kabi boblar tarjimada tushirilib, o'rniga XIV asr Oltin O'rda saroyiga oid, Tinibek va uning xotini Malikaga oid qator yangi boblar yozildi.

Tarjimon tarjimada originalning vaznini (hazaj – hazaji musaddosi mahsuf) saqlab qolishga erishdi:

**Nizomiy nazmi yanglig' tuz so'zungni,
Anin bilgut xoning'g'a bu o'zungni.**

Mafoliun, mafoilun faulun.

QUTB dostoniga:

**Chechak izdab bu bog'da qoldi o'zum,
Chechak tek ushbu mungda so'ldi yuzum**

Singari xalq qo'shiqlari,

**Vale sarxush kishi arslon tutar teb,
Masal bor: anglamaz og'u yutar teb,
Qazo ko'rkim yana boshimga keldi,
Jarohat uzra qora tuz ekildi.**

Singari xalq maqollarini ham ustakorlik bilan singdirib yuborgan.

Doston qardosh xalqlarning madaniy – adabiy aloqalarining namunasi sifatida qadrlanishi bilan birga, XV asr o'zbek adabiy tilini o'rganishda muhim manbadir.

D u r b e k

XIV asrning oxiri, XV asr boshlarida yashab ijod etgan. Uning bizgacha birgina “Yusuf va Zulayho” nomli dostoni yetib kelgan.

Asar 812-1509 (-800, -8, -4) da yozilgan. “Yusuf va Zulayho” ko'rinishida payg'ambar zodalar sarguzashtini hikoya qiluvchi asar sifatida ko'rinsa-da aslida XV asr O'rta Osiyo hayoti, podsho va podshozodalar o'zaro toju-taxt uchun olib borgan kurashlari bayon etilgan. Ye. E. Bertels iborasi bilan aytganda Durbek qadimgi dunyo voqealarining romantik tasviri orqali yangi tarixiy sharoitning real manzarasini chizishga intilgan Italiyan rassomlarini eslatadi.

Toju- taxt uchun kurash, mansab yo'lida qirg'in uyushtirish dostonning bosh mavzuidir.

Yusufning mansabparast akalari toju – taxtga vorislikni qo'lga olish maqsadida o'gay ukasi Yusufni turli yo'llar bilan yo'q qilish payida bo'ladilar, uni qiynab og'ir azoblarga duchor qiladilar.

Durbek o'zining adolatli shoh to'g'risidagi gumanistik g'oyasini Mag'rib shohi Taymus, Misr shohi Rayyon va xususan Yusuf obrazida mujassamlashtiradi.

Feodallar o'rtasidagi ixtiloflarni, mol-dunyo uchun munofiqlik qiluvchi yaramas kishilar qiyofasini Yaman shohi, Misr shohining dasturxonchisi Xabboz , Kosaguli Soqiy obrazida mujassamlashtiradi.

Dostonda Yusuf akalarining unga hiyonat qilib, qul qilib sotib yuborsalarda adolat o'z o'rnini topadi. Razil akalari sharmanda bo'lganidek Yaman shohi ham o'z bosqinchilik niyatini amalga oshira olmaydi. Yaxshilik yomonlik ustidan, ziyo zulmat ustidan g'alaba qiladi.

Durbek qahramonlar faoliyatini tasvirlar ekan, mamlakat va xalq taqdirini davlat boshliqlarining hatti-harakatiga ularning yaxshi-yomon sifatlariga bog'laydi. Shoir tasavvuricha zolim va johil podsho mamlakatni harob, xalqni xonavayron qiladi, adolatparvar va ma'rifatparvar podsho esa mamlakatning obodonligi va xalqning osoyishtaligi uchun kurashadi. Shu sababli o'z idealini Yusufda ko'rgan Durbek kekxa podsho Rayyon o'rniga yosh va tadbirkor Yusufni taxtga ko'taradi. Yusuf adolatli ish tutib mamlakat ravnaqi va xalqning

osoyishtaligi yo'lida tadbirlar ko'radi. Xalqni qurg'oqchilik yillarida ham qiyin ahvoldan qutqaradi.

Dostonda Yusuf taqdir kuchiga ishonganda passiv holatga tushsa, kurash yoliga otlanganda bu holat undan uzoqlashadi. Natijada asar boshida go'zal va beozor bo'lgan Yusuf voqealar ta'sirida tadbirli va donishmand shoh darajasiga yetadi. Yusuf taxtga chiqqandan keyin akalaridan o'ch olish imkoniyati bo'lsa ham shunday ish qilmaydi. Akalari bilan otasini yarashtirib, o'rtadagi g'uborni ko'taradi va ikki mamlakat o'rtasidagi ixtilofni tinch-nizosiz hal etadi.

Yusuf sevgi bobida ham o'ylab, mulohaza yuritib ish tutadi. Zulayhoni sevsa ham uning oilasini buzishni xayoliga keltirmaydi. -sabr qilib, aql bilan ish yuritadi.

Dostonda Zulayho sadoqatli yor, va erksiz ayol timsolida beriladi. Lekin u jasoratli, qo'rqmas bo'lganidan o'z taqdirini ota-ona ixtiyoriga topshirib qo'ymay, baxti uchun kurashadi. Tushida ko'rgani- go'zal Yusufni izlab yo'lga chiqadi. Kajraftor falak uni Yusufga emas, Misr Aziziga duchor qiladi.

Zulayho Misr Azizi bilan turmush ko'rsa ham umr bo'yi Yusufga yetishish uchun kurashadi va ular visol oniga yetishadilar.

Dostonga kiritilgan Ya'qub, Ibn Yamin, Bashir, Misr, Azizi hamda Ya'qubning boshqa o'g'illari singari epizodik va ikkinchi darajali obrazlar faoliyati asar konfliktini kuchaytirib, Yusuf va Zulayho faoliyatini aktivlashuviga ta'sir etib boradi.

Doston o'zbek dunyoviy adabiyotining nodir na'munasi sifatida qadrlanish bilan birga, XV asr o'zbek adabiy tili o'zida aks ettirgan asar sifatida ham katta ahamiyatga molik.

Xalq og'zaki ijodi materiallaridan foydalangan Durbek o'z asariga XV asr hayot manzaralari va ayrim problematik masalalarni kiritib original asar yaratdi.

Dostonda Yusuf va Ya'qub voqeasi bilan yondosh qul kampir va uning o'g'li Bashir voqeasi parallel holda rivojlantirilgan .

Besh yuz yildan ortiq davrdan beri sevib o'qilib kelayotgan , xalq mulkiga aylanib ketgan Durbekning "Yusuf va Zulayho "dostoni aruz vazning sari' baxrida (muftailun, muftailun, foilun) yozilgan.

**Yuzi quyosh erdi, vale bezavol,
Barcha funun bobida sohib kamol.**

Durbek "Yusuf va Zulayho", Toshkent. O'zSSR, Fan. 1959 u.

S A K K O K I Y

Shoir haqida juda kam ma'lumotga egamiz , Alisher Navoiy «Majolisun - nafois» va «Xutbai davovin» asarlarida qisqacha ma'lumot bor. Yaqiniy o'zining «O'q va yoy» munazarali asarida uni Turk (o'zbek) shoirlarining mujtohidi (g'ayratlisi) deb ta'riflaydi. (Hutbai davovin – she'rlar to'plamiga xutba)

Sakkokiy shoirning taxallusi bo'lib (pichoqchi) hunarmand oilasida tug'ilgan. U taxminan XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning 1 yarmida yashab ijod etgan. Buni 1407 – 1408 (810) yilda Amir Temurning Nabirasi Xalil Sultonga bag'ishlab yozgan (1405-1409) qasidasidan bilsa bo'ladi.

Tarixqa sakkiz yuz dogi o'n erdiyu qadr oqshomi.

Bir oy tug'ildi dunyoda kim mamlakatda xon erur.

Uning ijodi Ulug'bek davrida (1409 - 1449) kamol topdi. U Ulug'bekni ma'rifatparvar shoh sifatida ulug'laydi va unga bag'ishlab yozgan qasidasida faxr bilan:

Falak yillar kerak sayr etsayu keltirilsa ilkiga

Meningdek shoiru turku seningdek shohi dononi .

U o'zbek klassik adabiyotining yaxshi traditsiyalarini ijodiy davom ettirgan shoir-g'azalda, ayniqsa qasidachilikda katta shuhrat topdi. Bu haqda Alisher Navoiy « Xutbai davovin»da shunday yozadi: «Uyg'ur iborati fusaxosindin va turkiy alfozining bulog'osindin Mavlona Sakkokiy ham Lutfiylarkim, birining shirin abyotinig ishtixori Turkistonda beg'oyat va birinig latif g'azaliyotining intishori Iroq va Xurosonda benihoyat durur va devonlari mavjud bo'lg'ay» deydi va Lutfiy haqida Sakkokiy muxlislari orasida yurgan so'zlarni o'rinsiz ekanini ta'kidlaydi. SHoirning bizgacha–Naqshbandiy shayxlardan Xoja Muhammad Porsoga, bagishlangan bir qasidasi, Xalil Sultonga bag'ishlangan bir qasidasi, Ulug'bekka bag'ishlangan (to'rt), Arslonxo'jaga bag'ishlangan (to'rt) jami o'n qasida va 40 ga yaqin g'azallari yetib kelgan. G'azal shoir ijodining yetakchi janri. G'azallarning asosiy temasi sevgidir. SHoir samimiy sevgini kuylar ekan uni insoniy xislatlar bilan uzviy ravishda ta'riflaydi. Shoir zohidlar orzu qilgan «jannat» ustida istehzo bilan kulib:

Men sening qaddingga moyil, tubiga zohid, bale

Bo'lur o'z andozasinch har kishining himmati.

deydi va zohidlar o'z e'tiqodlariga qanchalik berilmasin baribir sening oldingda bosh egadi deydi:

Ko'zungni ko'rsa zohid yo'ldan ozg'ay

Necha kim bo'lsa mahkam din ichinda

Sakkokiy g'azallarida uch obraz:

Oshiq, yor va raqib obrazlari yaratiladi. O'z yoridan ozor topgan lirik qahramon shoir, olam bilan:

Ishq ishin sakkokiy avval bilmayin oson kurib

Oxiri ul jononing ishini dushvor ayladi,

deb yozsa-da, u Farhod Shirin ishqiy yo'lida qurbon bo'lgani kabi, jon berishga doim tayyor ekanini yozadi.

Shoirning sevgilisi tengi yo'q go'zal: Uning qomati oldida sarv, tubo, shamshod daraxtlari to'g'rilikda ip esholmaydi. Yuzi, ko'zi, labi, og'zi, shunchalik kelishganki unga ta'rif yo'q. Yorning ohu ko'zlari oshig'iga hayot bag'ishlasa, zulfi kishilar qalbini ajdar singari domiga tortadi.

**Turrang ko'ngil shahrinda ko'p oshibu gavgo qo'nqorib
Jon mulkini g'arot qilur har lahza zulfing lashkari.**

Shoirning yori, uning niyatini tushunmay jabr-zulm o'tkazsa, odamgarchilik xislatlaridan mahrum bo'lgan raqib, ularning inoqligiga rahna soladi. SHu sababli raqib-it tabiatlidir:

**Tishlar qopinga borsam eshikingga gado deb,
Itlikni magar qildi ul o'zina qabala.**

O'zining lirik gazallarida dunyoviy sevgi va muhabbatni ulug'lagan shoir turli san'atlardan ham ustalik bilan foydalanadi mubolaga o'xshatish, majoz va tazod singari she'riy san'atlar shoir she'rlarini badiiy qimmatini oshiradi:

**Firoqing bo'tasi ichra qonimni sizg'urur hardam,
Yuzumni oltun etqoli g'amlikni kimyo qilma.**

Baytda firoq – buta, yuz-metal, gam-kimyo toshi.

Tazod san'ati:

**Ey masihodam begim, bir dam bila bergil shifo,
Sheva birla ko'zlaring jonimni bemor ayladi.**

U bir necha she'riy usullardan foydalanib ajoyib lavhalar yaratadi:

**Movarounnahr ichra qoldim, chunki ikki yonima,
Ko'zlarimning biri sayhun, biri jayhun ayladi.
Sabo guldek yuzindin olmasa sunbul niqobini,
Saharda tun kecha bulbul nedin muncha fig'on ayladi.**

MAVLONO LUTFIY.

O'z davri kitobxonalriga Zullisanayin shoir bo'lib tanilgan Lutfiy haqida Navoiyning «Majolis-un-nafois», «Muhokamat-ul-lug'atayn», «Manoqibi Pahlavon Mahmud», «Xutbai davovin», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat-ush shuaro», Xondamirning «Habib-us-siayar», «Makorim-ul axloq», Abdulla Qabuliyning «Tazkirat-ut-tavorix», Shamsiddin Somiyning «Qomus-ul-a'lam», Vozehning «Majmuai manzum va mansur» singari asarlarida ma'lumot va mulohazalar yetib kelgan.

Ma'lumotlarga qaraganda Hirotning chekkasidagi Dehinkanorlik Lutfiy taxallusli shoir 1366 (1367) tug'ilgan, va Lutfiyi Hiriy deb yuritganlar.

Butun kuch g'ayratini o'zbek adabiy tilini rivojlantirishga qaratgan bu buyuk zot butun Sharq, mamlakatlarini kezib chiqqan, umr bo'yi dunyoviy ilmlar bilan mashgul bo'lib hayot haqida, insoniy sevgi haqida, el-yurtning osoyishtaligi haqida kuylaydi.

Hayot va sevgini, bahor va shodlikni, vafo va sadoqatni, ma'rifat va osoyishtalikni, mardlik va bahodirlikni targ'ib etgan Lutfiy xalq og'zaki ijodining boy chashmalaridan ilhom va ta'lim oldi. O'zbek adabiy tili va adabiyotini yuksaklikka ko'tardi shu bilan birga Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Kamol Xo'jandiy, Hofiz kabi So'z san'atkorlarining traditsiyalarini ijodiy davom ettirdi, rivojlantirdi. Navoiy iborasi bilan aytganda «forsiy va turkiyda naziri yo'q» shoir bo'lib shuhrat taratdi.

Navoiy Lutfiyning «turkiyda shuhrati ko'proq edi» desa tarixchi Xondamir «Mavlono Lutfiy So'z lutfida yagona davron edi, undan ilgari hech kim turkiy tilda sherni undan yaxshiroq ayta olmagan» deb ulug'laydi.

Buyuk zotlar tahsiniga sazovor bo'lgan Lutfiy turkiy va forsiyda bitgan latif va o'ynoqi g'azallari hamda Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» tarixiy asarini fors tilidan sheriy yo'l bilan o'zbekchaga og'dargan. Asarlari bilan kutubxonalar ommasiga tanish.

Lutfiy o'zbek dunyoviy adabiyotini Navoiyga qadar etishgan eng buyuk atoqli namayondosidir. U klassik poezziyaning g'azal, tuyuq, qit'a, ruboiy, qasida, doston janrida qalam tebratib, elga manzur bo'lgan devon tartib berdi. Buyuk so'z san'atkori Lutfiy o'z g'azallarida oshiq, mahbuba, raqib obrazlarini turli holat va kayfiyatlarini turli holatlarini mohirlik bilan tasvirlab, kishi ruhiy kechinmalarini mohirlik bilan ochdi, rang-barang she'riy usullar yaratdi. Xalq maqol, matal va iboralardan ustalik bilan foydalanib, g'azallariga zeb berdi, yozma poeziyani xalq og'zaki ijodining injulari bilan bezadi. Bu bilan dunyoviy lirikaning ijtimoiy qiymatini bir qadar oshirdi.

U hayotni, hayotning guli bo'lgan insonni ulug'ladi, har qanday jannat hurlaridan jo'ralar suhbatini ustun qo'ydi:

**Yoz bo'ldi, kerak ul buti ayyor topilsa,
Barcha topilur, bizga kerak yor topilsa.
Gul davrida ich badanikim, oqil emastur,
Har kimki bu kun duyinda hushyor topilsa.**

Lirik, o'ynoqi, jozibador satrlar bitgan Lutfiy «foni» dunyoni unutmagani holda, shayx-zoxidlarni tanqid qilib, kishilarni hayot go'zalliklaridan zavq olishga chaqiradi:

**Burqani kutar, tengri uchun, El seni ko'rsin,
Bu husnu malohat Yana qaysi kun uchundir.**

Shoir jannat (uchmoq) uchun hayotdan, hur uchun yordan voz kechmaydi: chunkiyor kishiga hayot bagishlaydi:

**Keldim eshikka, Orzum yuzung durur, kurguz chiqqib,
Kelgin, Ki lutfiy hojati uchmoq emas, diydor erur.**

Lutfiy kab'yu-qibladan yor visolini ustun qo'yadi:

**Sen husn ila boysan, senga chun farz erur haj,
Kil tengri uchun kab'ai ko'nglumni ziyorat**

Shoir bevafo yordan shikoyat qilib, undan ishqning sharti vafo va sadoqatga amal qilishga chaqiradi.

**Kishikim, yuqturur mehru vafosi,
Agar xurshidtur ondin ne hosil?
Ne ko'ngli sodda eldur ishqde lekim,
Seningtek bevafo yor derlar**

**Turbatimning toshiga mundog bidingkim: Lutfiy qul –
Tosh bagirlik yor uchun farsuda bulgon xak erur»**

- deb vasiyat qiladi. Shoir ijodidagi shikoyat motivlari asta-sekin ijtimoiy ahamiyati kasb etabordi. Buni quyidagi satrlardagi nola va fig'ondan bilsa bo'ladi:

**Yo'q turur yolg'iz bu Lutfiy joniga javri raqib
Qayda bir dono turur ul javri nodon tartadur.**

yoki:

**Aytimki: Bu Lutfiyga jafo qilma vafo qil.
Ayturki: Bizning davrda bu rasm qolibdur:**

Shuni ham aytish kerakki: Shoir ijodidan shikoyat motivlari feodal muhit illatlarini fosh etish darajasiga ko'tarilmadi. Chunki u adolatli hukmdorgina yurtni obod qiladi, deb o'ylar edi:

**Jon topdi imorat qadingiz tuzluki bila,
Ma'mur bo'lur adl ila har qayda viloyat.**

Lutfiy ijodi, o'zbek dunyoviy lirikasining tematik jihatdan takomiliga o'z davri ijtimoiy fikrlarining taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Lutfiy lirikasining asrlardan beri sevib o'qilishining sababi nimada?

Birinchidan – Lutfiy o'z g'azalini xalq qo'shiqlariga yaqin kelib yaratdi:

**Qon bo'ldi ko'ngul firoqingizdan,
Jon kuydi ham ishtiyoqingizdan.**

Radiflardan ustalik bilan foydalangan:

**Sensan sevarim, xoh ishon, xoh ishonma,
Qondir jigarim, xoh ishon, xoh ishonma.**

Urf –odatlaridan:

**Nozikluk ichra belicha yo'q, tori gisuyi
Uz haddini bilib belidin ulturur quyi.**

Bolalar uyinidan:

**Tilab ko'ngul sening ogzingni topmas,
Kichik uchun magar o'ynar o'yinchok.**

Afsonaviy obrazlardan:

**Iso falakka oshti, chun buldi labing jon berguvchi,
Sharmandalikdan ketmasa, ko'kta anga ne bor erur.**

Traditsion obrazlardan:

**Yuzungdin lola rang eltib, uyolib shahrga kirmas,
Aning buynin kishi boglab, keltirmogingcha sahro din.**

Tajahuli orifona: (uxshatish)

**YO'rab, ul dilbar malak yo hur yoxud jon erur?
Haq nazar ondin ko'tarmas: halq anga hayron erur:**

Tazod qarama-qarshi:

**Ko'ngidsiz etdi kuzi vax ne buldi, tengri uchun,
Dudogidin meni bir suv urib davo qilsa?**

Xalq qarg'ish: erkalashi, yumoridan:

**Lutfiy Kim qarg'adi «Yorab, baloga uchra» deb
Kim, seningtek tosh bagirlik dilraboga uchradi:
Qo'ymagil har dam raqibimni qoshingdin sur begim,
Kim qutir itning damidin barchaga nuqson erur:
Bu tuymagur ko'zimga durur ko'rmogon kibi,
Oydek yuziga nechaki, bu muftalo boqar.**

Sinonim va polisemik so'zlardan foydalanib qo'shiqlar bitdi:

**Ko'ngluma har yonki boqsam, dog'i bor,
Har necha dardimni desam dog'i bor,
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Biz sori bo'ldi firoqing dog'i bor**

MAVZU: BOBORAHIM MASHRAB

Reja:

1. Mashrab tarjimai holiga oid maolumentlar.
2. SHoir hayoti va ijodining o'rgalinishiga oid maolumentlar.
3. Mashrabning adabiy merosi.
4. Mashrab she'rriyatining tematikasi, g'oyalari.
5. SHoir ijodi va tasavvuf.

O'zbek adabiyotining 17-asrning 2-yarmi va 18-asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalardan biri Boborahim Mullo Vali o'g'li Mashrabdir. Boborahim Mashrab 1640 yilda Vali bobo bo'zchi oilasida Namanganda tug'ildi. Mashrab maktabda o'qib xat savod chiqardi. U bolalik chog'idanoq juda ziyrak, aqlli va tirishqoq bo'lgan. SHu bilan birga u turli masalalar haqida erkin fikr yuritishga, boshqalarning mulohazalariga tanqidiy yondoshishga intilgan. Rivoyatlarga ko'ra, Mashrab maktab domlasi bilan masala talashib qoladi. Mashrab haq bo'lsa ham domla undan ranjib voqeani Mashrabning otasiga aytadi. Vali bobo o'g'lidan xafa bo'ladi. Lekin ko'p o'tmay uni avf etadi va Namangandagi Mullo Bozor Oxund degan eshon tarbiyasiga topshiradi. Mashrab eshon eshigida xizmat qilgan va o'qigan. Biroq, Mullo Bozor ham uning ochiq o'zini ojiz sezganidan Vali bobo bilan kelishib Mullo Ofoq xo'ja ixtiyoriga topshiradi. 7 yil eshonning qo'l ostida bo'lib, xizmat qilgan Mashrab musofirchilik va moddiy muhtojlikdan og'ir mashaqqat chekadi. Bir she'rida "Ey, birodarlar, kiyibman bir kiyim yetti yil", deb zorlanishi bejiz emas edi. Mashrabning o'z ko'rgan kechirganlari haqida erkin fikr yuritilishi tanqidiy mulohazalari Ofoq Xojaga yoqmaydi. CHo'rilaridan biriga muhabbat qo'ygani uchun uni kofirlikda ayblab 1672 yili o'z dargohidan quvib yuborgan.

Ota-onasidan ham ayrilib g'arib bo'lib qolgan Mashrab baxt axtarib juda ko'p viloyat, shaxar va qishloqlarni kezadi. Ammo hamma yerda ham "tish sitam, dardu alam" larga giriftor, zor -zor xalqni ko'radi:

Dili tish sitamdin yora bo'lgan xalqni ko'rdim,

Tani dardi alamdin pora bo'lgan xalqni ko'rdim.

Darbadar yurgan Mashrab hamma joyda ham moddiy muhtojlikka, reaksiyon diniy doiralarning taqi bu taqdirlarga adolatsizlik va zulm zo'rlikka isyonkor ruhida she'rlar yozadi. Boylarni, ruhoniylarni hajv qiladi. Mashrabning omma orasidagi obro' eotibori kun sayin oshib boradi. Hozir javob va juratli Mashrab haqida turli hikoyalar va latifalar to'qiladi. Lekin o'sha paytdagi feodal diniy doiralar xalqchil va isyonkor shoir Mashrabga qarshi turli jazo qo'llashga kirishildi. SHikoyat Mashrab Antarxoniylar hukmdorligidan bo'lgan Mahmud Qotag'onning buyrug'i bilan 1711 yilda Qunduz shahrida dorga osib o'ldiriladi.

Mashrab adabiy merosi haqida gaplashmoqchi bo'lsa, u adabiyotga ulkan meros qoldirgan. U istedodli lirik shoir edi. Uning asarlari "Devonai Mashrab", "Eshon Mashrab", "Eshon SHox Mashrabi Devonai Namangoniy", "Muhammasi SHoh Mashrab" kabi nomlanadi. U asosan O'zbek tilida, qisman tojik tilida she'rlar yozgan.

“Devonai Mashrab”da she’rlar Mashrab haqida paydo bo’lgan ko’pgina hikoya va latifalar bilan birga keltirilib, asar go’yo bir qissa shaklini olgan. Asardagi ko’pgina hikoyalarda Mashrab xalqparvar, adolatparvar, zolimlarni fosh etgan qahramon sifatida tasvirlansa, ayrimlarida tarkidunyo qilgan darvesh sifatida talqin qilinadi.

Bundan tashqari Mashrab lirikasiga har xil turlarida g’azal, ruboiy, murabbao, muxammas, musaddas kabi janrlarda ijod qildi. Misol uchun uni ayrimgina azobi tasvirlangan yengil vaznda yozilgan murabbasini ko’rish mumkin:

Hajr axli keldi, tutti yoqamdin

Bag’rimni tildi paykoni g’alizin

Ming dodu-faryod ushbu alam oin

YOrg’a etar kun bormu yoronlar.

Mashrabning she’rlarini tematik g’oyaviy xususiyatlariga qarab 3 guruhga bo’lish mumkin.

1. Isyonkorona she’rlar.

2. Ishqiy she’rlar.

3. So’fiyona she’rlar.

Ha, u isyonkorona she’lar yozdi, Mashrab zadagonlarni o’sha paytdagi ijtimoiy tuzumni achchiq tanqid qilib xalqchil she’rlar yaratdi va ana shu she’rlar bilan xalq orasida shuxrat qozondi. U masjid, xonaqox va takiyagohlarda vaz nasihat qiluvchi shayx zohidlarning tillarida xudojo’ylik bo’lsa ham, ammo dillarida xiylayu, makr, boylik to’plash uchun xalqni aldab balolarga giriftor qilish niyati borligini fosh etib tashlaydi.

Zoxir sifat shayxlarning masjid sari borg’usi,

Qo’llarida tasbehu riyo, toat qurg’usi.

Tili bila etib, olam davrin surg’usi

Bir-bir qo’l suxub, havo birla turg’usi.

Mashrab ilm-fan, donishmandlik to’g’risida fikr yuritganida ham dastavval alamdiya xalqni ko’z oldiga keltiradi. SHu bilan birga shoir o’z zamonasining bilimdonlikni poraxo’rlik bilan almashtirib yuborgan “donishmand zotlari” ustidan zaxarxanda bilan kulib ularni “ilm o’qib, shaytonlik yo’liga kirib” ketganligini fosh etadi.

Necha mullo o’qib, roxish shayotini topib,

CHun ribovu rishvani erlar xushtorlik bilan.

Demak, shoir ilm-marifatning ravnaq topishini orzu qiladi.

Mashrabning ishqiy lirikasi xaqida gapirmoqchi bo’lsak, u dunyoviy ishq, hayotiy muhabbat mavzularida zamonasining ajoyib g’azallarini, uynoqi, sho’x lirikasini oshiq va mashuqalarning kayfiyatiga qarab, goh hushnud, goh g’amgin taronalarni o’ziga xos mahorat bilan yaratib qoldirgan shoirdir. SHoir yor diydoriga erishib, g’am sahrolaridan qutilishni hayot chamanzorini istaydi. Agar uning baxtiga yor ko’rinib qolsa, uning kulbasiga kirib kelsa, yoki shoir oshiqning o’zi uning dargohiga borib, vasliga muyassar bo’lsa, hammayoq charog’on va bahoriston bo’lar edi. SHoir bunday aziz onlarni orziqib kutadi.

Ish nechuk shod etmayin bu xasta ko’nglimni bu kun,

Keldi holimni so’rab jona jonim meni.

Bizga ma'lumki, Mashrab tasavvuf bilan shug'ullangan. U osoyishta hayotdan voz kechib xudo yo'liga, haq yo'li sari intilib borgan. Uning nazarida dunyo yolg'onchi bo'lib ko'ringan. U ota-onasidan ham, yoru do'stlaridan ham voz kechib, cho'lu biyobonlarga chiqib ketadi. SHahar va qishloqlarni qalandarona kezib chiqqan. Mashrab o'zi yashagan muhitni g'urbatxona deb hisobladi.

Ne g'urbatlarni chekdim, charxi bebunyod dastingdan

Mudom motamda o'ttumm, bo'lmadim dilshod dastingdan.

Xullas, Mashrab O'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk shoirlardan biri hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. SHoir haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
2. Mashrab haqidagi qarashlarning xilma xilligi sababi nimada?
3. SHoir qanday asarlar yaratgan?
4. Mashrab lirikasining yetakchi g'oyalari nimalardan iborat?
5. SHoir tasavvufga munosabati qanday edi?
6. Kimlar Mashrab an'alarini izchil davom ettirdi?
7. «Mabdai nur» qanday asar?
8. Mashrab haqidagi qanday xal kitoblarini bilasiz?
9. SHoir ijodiga bugungi kunda munosabat qanday?
10. Mashrab ijodi tadqiqotchilardan kimlarni bilasiz?

Tayachn atamalar

1. Qalandariya - Mashrab mansub bo'lgan tasavvuf tariqati.
2. Manoqib - biror shoir haqida yozilgan yoki xalq yaratgan kitob.

Tayanch tushunchalar

1. She'riyatda oshuq va mashuq obrazlari - shoir o'zini oshiqqa, xaq (Ollohni) mashuqqa o'xshatishi.
2. May timsoli - she'riyatda tasavvufiy maonoda ishlatilib, haq tajalisi (akslanish) hamda marifat ma'nolarida keladi.

Adabiyotlar

1. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980.
2. Abdug'ofurov A. Erk va ezgulik kuychilari. T., 1979.
3. Zokirov M. Mashrab. T., 1966.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 3-jild. T., 1978.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Hamid G'. Mashrab. Roman. T., 1980.
2. Mashrab. Devon. T., 1980.
3. Haqqulov I. Tasavvuf va she'rriyat. T., 1991.

MAVZU: SHE'RMUHAMMAD MUNIS.

Reja:

1. SHoirning tarjimai holiga oid ma'lumotlar.
2. SHoir ijodining o'rgalinishi haqida.
3. Munis - lirik shoir.
4. "Munis-ul ushshoq" devonida insoniy - axloqiy mavzularning yoritilishi.
5. SHoir she'riyatida mehr-muhabbat, insoniylik, do'stlik tuyg'ularining tarannum etilishi.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili She'rmuhammad Munis shoir, tarixchi, tarjimon, hattot, sug'orish mutaxassisi, marifatparvar siymo edi.

Munis 1778 yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida tug'ildi. Uning bolalik va yoshlik yillari dastlab Qiyot qishlog'ida, so'ngra Xivada masjid yonidagi maktabda, keyincha madrasada o'qish, kitob mutolaa qilish bilan o'tdi. Uning o'qishi va tarbiyasiga qo'shnisi Sayideshonxoja kabi olim va shoirlar rahbarlik qildilar.

Munisning adabiyotga bo'lgan xavasini oshirishda, uni she'r mashq qilishga va klassiklarni puxta o'rganishga rag'batlantirishda o'sha zamonning Qirolliy, Ravnaq, Mavlono Nishotiy kabi peshqadam va tajribali qalamkashlari muhim rol o'ynagan edilar.

1800 yilda Avazboy vafot etib, xon Avaz inoq uni saroyning farmonnafis kotibi qilib tayinlaydi. 1804 yilda Munis o'zining ilk devoni "Devoni Munis"ni tuzadi. O'sha yili "Savodi ta'lim" yoki "Risolai savod" asarini she'riy yo'lda yozib, talabalarga husni xat ta'lim qoidalarini o'rgatadi.

1808 yilda Elto'zarxon Xiva xonligi tarixini yozishni buyuradi va u "Firdavsul-iqbol" ("Saodat bog'i") nomli tarixiy asar ustida ish boshlaydi.

1812 yilda mirob Erniyozbek vafot etib, xon uning o'rniga Munisni Xorazm mirobligiga tayinlaydi.

1819 yilda xon topshirig'i bilan Mirxondning ko'p jildli "Ravzatus-safo" ("Poklik bog'i") tarixiy asarini fors-tojik tilidan O'zbek tiliga tarjima qila boshlaydi. Munis uning birinchi jildini tarjima qilib ulguradi xolos.

1815-1820 yillarda Munis o'zining mukammal devoni "Munisul ushshoq"ni tuzadi. "Oshiqlar do'sti" deb nomlangan bu to'plamga shoirning 16 ming misradan ziyod she'rlari jamlangandir.

Munis badiiy ijodda o'ziga Navoiyni ustoz deb biladi va ko'p jihatda Navoiyga ergashadi.

U 1829 yilda vafot etdi.

2. Munis o'z davrining yetuk shoiri, adibi, tarixchisi, tarjimoni, murabbiysi va ma'rifat kuychisi edi. U faqat zamonasidagina emas, balki keyingi davrlarda ham halq o'rtasida madaniyat muhlislari, shoirlar, olimlar, sanoatkorlar va tolibi ilmlar o'rtasida xiyla shuxrat qozongan edi. Munisning faoliyatini va adabiy merosini o'rganishda ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Dastlab sharqshunoslar Munisning oxiriga etkazilmagan "Fiyasul-iqbol" asarini o'rganib, unga ko'proq murojaat qildilar. Munisning tarixiy asarini o'rganishda V. V. Bartold, P. P. Ivanov malum xizmat qildilar. Keyingi yillarda esa S. P. Tolstov O'zbek olimlaridan YA.

G'ulomov, Munis. Yo'ldoshev, K. Munirovlar Munis va Ogahiyning "Firdavsul-iqbol" asarini o'rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Adabiyotshunosligimizda Munis hayoti va ijodiga doir ko'plab ishlar qilindi. CHunonchi, shoirning ijodiy merosiga aloqador bo'lgan qo'lyozma va litografik asarlar Xiva, Urganch, Samarqand, Buxoro va Dushanbe kutubxonalarida, ayniqsa Toshkentda ko'proq to'plandi. Munisning adabiy faoliyatiga doir bir necha maqola va tadqiqotlar bunyodga keldi. Dissertatsiyalar yozildi. Munis asarlari majmua va dasrliklarga antologiya va to'rt tomlik "O'zbek adabiyoti"ga kiritildi. SHoirning o'n ming misragacha she'ri alohida "Devon" qilib nashr etildi.

Bulardan ko'rinadiki, She'rmuhammad Munisning ijodi keng o'rganilmoqda. Hozirda Munis ijodining namunalaridan keng kitobxonlar ommasiga yetkazishda katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

3. Munis asosan lirik shoirdir. Devonining nomidan ko'rinib turibdiki, she'rlarining asosiy qismi muhabbat taronalaridir. SHoir ijodida ijtimoiy-siyosiy va falsafa mavzusidagi asarlar g'oyat siyrakdir.

Munis talqinicha, she'r jahon xalqlari dillarini oson zabt eta oladigan eng qudratli quroldir. U bitmas tuganmas buloq, qulash nimaligini bilmaydigan buyuk koshona, bag'ishlov she'rlar kishilarni abadiylashtiruvchi mislsiz vositadir. SHoir xaqli ravishda she'r va uning manbaini adabiyotga dahldor xodisalar sifatida belgilaydi. Munis aksariyat g'azallari nihoyasida she'riyat mulkining sultoni Alishe'r Navoiy ruhida ko'mak va tarbiya kutadi.

Munis ijodida ko'plab talmih san'atiga murojaat qiladi. U sherlarida, g'azallarida tarixiy shaxslardan Navoiy, Sulton Xusayn, Mahmud G'aznaviy, Firdavsiylarni keltiradi.

Munisning ko'p she'rlari musiqaga solinib, xofizlar tomonidan aytilmoqda.

Munis devoni asosan ilohiy va insoniy muhabbat kechinmalari talqinidan iborat bo'lsada, san'at san'atkor mohiyati ijtimoiy hayotning dolzarb masalalari aks etgan g'azallari ham uchrab turadi. Munis "So'z", "SHuaro" she'rlarida she'r va ijodkor qadr qimmatini haqida qalam tebratadi.

She'r ul tig'i dudamdurkim, jahonni fatx etar,

CHekmayin lashkar gar olsa ilgiga har podshoh.

She'rr ul nemat erurkim, har necha bazm etsalar,

Lazzati ortar, dog'i qadrig'a topmas nuqs roq.

Munis qasida janrida ham barakali ijod qiladi. U qasidalarini asosan Avazbek inoqqa bag'ishlab unga maqtovlar yog'diradi. Munis ijodida jamiyat o'zgarishlari ham o'z aksini topadi. Muhammad Raximxon vafotidan so'ng hukmronlik uning katta o'g'li Olloquliga o'tadi. Munis hayotining keyingi to'rt yili Olloquli hukmronligi davrida o'tadi. Munis o'zining bu davrida yaratgan baytlarida Olloqulini mamlakat obodonligi, elementlar osoyishtaligi uchun harakat qilishga da'vat etish payida bo'ldi.

4. Muhammad Rahimxon hukmronligining yettinchi yili Munis o'z she'rlarini to'plab devon tartib bera boshladi. Devonga kiritilgan she'r turlari va baytlarining soni haqida shoirning o'zi "Munisul ushshoq" ning debochasida quyidagilarni yozadi. "...Garro qasidalar, dil gusho g'azallar, fasohatayin tarkibbandlar, latofat tazyin qitalar, sharif musaddas va muxammaslar, latif ruboiy

va muammolar, shirin masnaviy va g'amgin tuyug'lar va g'ayr ham taxminan olti ming baytdir".

Mumtoz poeziyaning xilma -xil turlari bo'yicha yaratilgan baytlari o'z ichiga olgan ana shu "Munisul ushshoq" devonining bir qo'l yozma, ikki tosh bosma varianti bor.

"Munisul ushshoq" devonining muallifi O'zbek adabiyoti xazinasiga qimmatbaho durdonalar qo'shish yo'lida she'r sanoati ustida qanday ishlaganini she'rlarining mavzui doirasi g'oyaviy mazmuni, badiiy saviyasi qanday ekanini klassiklardan yoki zamondoshlardan kimlar unga ustozlik va homiylik qilganini umumiy tarzda devonda o'n sakkizinshi she'rda ko'rish mumkin.

Malumki, Munisning hayoti Xiva xonligiga saroy doirasi bilan bog'langan holda o'tdi. Lekin u saroy muhitida yashagan bo'lsada, o'zining fikr hayoli bilan xalq tomoniga intilib, ish olib borgan. Binobarin devondagi she'rlarning mavzu doirasi g'oyaviy mazmunini ko'zdan kechirganda bunga alohida etibor berib, shoirning davrga, hukmdor doiralarga, turli ijtimoiy guruhlarga, ilm hunarga, adabiyot madaniyatga, ishq-muhabbat va do'stlik masalalariga bo'lgan qarashlarini kengroq va chuqurroq tekshirish lozim.

Munis feodal zulm avj olib, xalq og'ir ahvolda yashagan davrdan hukmdor doiralardan norozi edi. U o'zining anashu noroziligini ifodalovchi she'r va qitalar yaratgan, bazan esa ishqiy lirik g'azallari ichiga norizolik ruhidagi fikrlarini qistirib ketgan.

Munis mamlakat hokimi va uning xalqqa qanday munosabatda bo'lishi kerakligi haqida o'z davri uchun muhim bo'lgan o'z fikrlarini olg'a surdi. Qabilachilik, urug'aymoqchilik nizolarini qoraladi.

5. She'rmuhammad Munis 18-asr oxiri va 19-asrning birinchi choragida Xivadagi adabiy muhitda yashab ijod etgan yetuk shoir va donishmand, tarixchidir. U o'z davrida ro'y bergan ko'pgina voqea va xodisalarning guvohi bo'lgan muhokama qilgan va o'z qarashlarida xalqning hukmdorlar tomonidan ez'ilayotganligiga achingan va norizoligini ifodalagan. O'z she'rlarida hamda tarixiy asarlarida mumkin qadar xalqning himoyasini ko'zda tutgan xalqparvar va marifatparvar shoirdir. Munis ijodida turmushning ko'p tomonlari shoirning xon, vazir va beklarga, shayx va zoxidlarga, shoir va olimlarga hunarmandlar va boshqa mehnat axllariga bo'lgan qarashlari aks etgan.

Munis poeziyasida jaholat va nodonlikka, ilm-hunarga etiqod, she'r va shoirga hurmat, pok vijdonli va vafodor ishq axllarini himoya qilish kabi motivlar asosli o'rinlarni egallaydi.

SHoir hamma masalalar tasvirida dastlab bazi kamchiliklar bilan, keyincha esa she'r sanatining vakili sifatida ish tutadi va zamondoshlariga hamda o'zidan keyingi shoirlarga o'rnak bo'larli darajada badiiy yutuqlarga erishadi. Buni shoirning o'zi ham etirof etib juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirib bo'lsada, she'riyatning baland cho'qqisiga ko'tarila olganini qayd etadi:

To musahhar ayladim so'z birla maoni kishvarin,

SHoh men, ey Munis, ahli donishu idrokmen.

Haqiqatdan ham Munis o'z zamonasining adabiy doirasida axli donishlarning shohi edi.

Nazorat savollari

1. SHoir haqida qanday malumotlar yetib kelgan?
2. Uning adabiy merosi ko'lamini qanday?
3. Munis o'z ijodining qaysi janrdan boshlagan?
4. Kimlarni o'ziga ustoz deb bildi?
5. Munis qaysi adabiy muhitning vakili edi?
6. «Munis –ul ushshoq» haqida malumot bering.
7. Uning qanday tarixiy asarlarini bilasiz?
8. Munisning boshqa tarixnavislardan farqi nimada?
9. SHoir o'z devonini tuzishda qanday ananalarga tayandi?
10. Munis qaysi lirik janrlarni yangi bosqichga ko'tardi?

Tayanch atamalar

1. “Munisul ushshoq” - “Oshiqlar do'sti”.
2. Zullisonayinlik - ikki tilda baravar ijod qila olish.

Tayanch tushunchalar

1. Marifatparvarlik - shoirning o'z ijodida ilm hamda talim-tarbiya masalalariga urg'u berishi.
2. Satirik xarakterdagi asar - hayotdagi nuqson va illatlarni fosh etuvchi kulgiga asoslangan asar.

Adabiyotlar

1. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980.
2. Vohidov Z. O'zbek adabiyoti tarixidan. T., 1961.
3. Munirov K. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. T., 1960.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 4-jild. T., 1978.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Munis She'r Muhammad Xorazmiy. Saylanma. T., 1980.
2. O'zbek adabiyoti. 4 jildlik, 3-jild. T., 1959.

MAVZU: JAHON OTIN UVAYSIY

Reja:

1. SHoira hayoti haqida malumot.
2. Uvaysiyning adabiy merosi.
3. Uvaysiyning lirik mahorati.
4. O'zbek mumtoz she'riyati tarixida shoiraning tutgan o'rni.

Jahon otin Uvaysiy 18-asrning oxiri va 19-asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan istedodli shoiradir. SHoiraning chevarasi bo'lgan Xoljon otinning aytishicha, Jahon otin Xojixon degan kishiga turmushga chiqib, Muhammad ismli o'g'il va Quyoshxon ismli qiz ko'rgan.

Jahon otinning o'g'li Majnun, qizi esa Xokiy taxallusi bilan she'rlar yozganlar. Ammo ular o'z davrlarida murakkab hayot yo'lini bosib o'tganlar, turmush qiyinchiliklarini boshdan kechirganlar.

Jahon otin she'riyatini ko'ngillarga oshno etgan xususiyatlardan biri shuki, u "mehnat, alam, g'am-g'ussalarga giriftor"larning kuychisi sifatida maydonga chiqqan.

**Mehnatu alamlarga mubtalo Uvaysiyma,
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyma...
Kechalar fig'onimdin tinmadi kavokiblar,
Arz tosamo uzra mojaru Uvaysiyma**

singari o'tli nolalari xanuzgacha ko'ngillarni hayajonga solishi bejiz emas.

SHoira tuxmatchi va g'arazgo'y raqiblardan ozor chekib, nola qildi.

Samimiy ishq va pokizalikka asoslangan oilaviy hayot yo'liga to'g'anoq bo'luvchilarga nafratini bayon etdi. Riyokor shayx va zoxidlarni hajv ostiga oldi. Bularning barchasi shoira lirikasining yetakchi pafosini tashkil etdi.

SHoira mahoratining yana bir belgisi u jonli xalq tiliga yaqin ijod qildi. Maqollar, xikmatli so'zlar, topishmoqlarni o'z she'riyatiga olib kirdi.

**Buki derlar bordurur devor keynida quloq,
Ul makon davrida ko'z etguncha devor o'lmag'ay.**

So'z o'yinlari, muammo janri ham shoira ijodida yangicha ko'rinishlarga ega bo'ldi. Masalan, quyidagi baytdan "Jahon" so'zi kelib chiqadi.

**Jimu, xoyu, alifkim, men kimu dardim yuki birla
Dilida nuqtasi bag'rimda dog'im loyixi xun men.**

Uvaysiy devonida 209 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabbao va "Dostoni Hasan va Husayn", "Voqeoti Muhammad Alixon" nomli asarlar o'rin olgan.

SHoira Uvaysiy "SHaxzoda Hasan", "SHaxzoda Husayn" manzumalarida sharq adabiyotida mashhur bo'lgan syujetlarga murojat qiladi. Har ikki doston birgalikda "Karbolonoma", "Kitobiy Uvaysiy" nomlari bilan yuritilgan. Bu dostonlarda Muhammad Alayhissalomning qizi Fotimaning o'g'illari Hasan va Husayn voqealari bayon etiladi.

Muhimi shundaki, Uvaysiy ana shu voqealar zamirida o'z zamonasining ijtimoiy voqealariga ishoralarni joylaydi, o'z zamondoshlariga ibrat bo'ladigan fikr-mulohazalarni bayon etadi.

SHoironing mazkur dostonlari o'sha davr dostonchiligi nuqtai nazaridan muhim siljish bo'lsa-da, lekin ular shoira "Devon"idagi lirik she'rlarga nisbatan badiiy jihatdan ancha bo'shdir.

"Voqeoti Muhammad Alixon" asari Muhammad Alining tug'ilishi, uning taxtga o'tirish, Qashqarga xarbiy yurish qilishi voqealari tasviriga bag'ishlangan. Asar asosan, masnaviy shaklida yozilib, o'rni-o'rni bilan g'azallar ham o'rin olgan. Bu manzuma tugallanmay qolgan. Dostonda rivoyat va afsonalarga keng o'rin berilsa-da, ayrim voqealar, shaxslar tasvir va talqinida realistik tamoyillar ham sezilib turadi. Ayniqsa, bu asar Nodira haqidagi malumotlari bilan qimmatlidir.

SHoira uslubi va she'riyatining o'ziga xos jihati shundaki, uning ijodida ayollik latofati va nazokati barq urib turadi. Samimiy tuyg'ularini nafis ifodalay oladi. Quyidagi namunada shoironing o'zi ham buni etirof etadi:

Dilrabo, yuzung uzra kokulung parishon qil,

Husnunga niqob o'lsun, maqsadimni pinxon qil.

Uvaysiy ijodida munis va mushfiq ona obrazi ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. O'g'li Muhammadning firoqida

Bukun, ey do'stlar, farzandi jonimni sog'indim,

Gado bo'lsam na ayb, ul shohi davronimni sog'indim.

Deya o'tli satrlar bitsa, bevaqt xazon bo'lgan qizi Quyoshxon g'amida

Seningdek shaxga mendek bir g'aribi bevatan yig'lar,

Sabab uldur ko'rib ahvolimni baytulxazan yig'lar

deya fig'on chekadi.

Uvaysiy o'ziga xos ijodiy maktab yarata olgan mumtoz sanatkordir.

Nazorat savollari

1. SHoira haqida malumot bering.
2. Qanday asarlar yaratgan?
3. She'rriyatidagi yetakchi lirik obrazlarni sanang.
4. SHoira ijodining o'ziga xosligi nimada?
5. Uvaysiy qanday masnaviy –dostonlarni yaratgan?
6. "Voqeoti Muhammad Alixonning qanday g'oyalar olg'a surilgan?
7. "Dostoni shahzoda Hasan"da qanday g'oyalar qanday olg'a surilgan?
8. Epik tasvir usuli deganda nimani tushunasiz?
9. SHoira ijodi kimlar tomonidan o'rganilgan?
10. Uvaysiy adabiy merosining ahamiyatini asoslang.

Tayanch atamalar

1. CHiston - tojicha "chist on?" (nima u?) manosini bildirib, biror predmetning nomi she'rda yashiriladi. Topishmoq.

2. Voqeot - biror tarixiy shaxs misolida muayyan davr voqealarini badiiy tasvirlash ("Voqeoti Muhammad Alixon").

Tayanch tushunchalar

1. Doston - epik turga mansub, voqeaband asar. Dostonlar to'la nazmda yoki nasr va nazmda yozilishi mumkin.

2. Masnaviy - ikkilik manosida bo'lib, she'riy misralarning aa, bb, vv tarzida qo'fiyalanishi.

Adabiyotlar

1. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980.
2. Jalolov T. Go'zallik olamida. T., 1970.
3. Ibrohimova E. Uvaysiy. T., 1963.
4. O'tkir Rashid. Uch shoira. T., 1958.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Uvaysiy. Devon. T., 1963.
2. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. T., 1961.
3. Qodirova Munis. XIX asr O'zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri. T., 1977.

MAVZU: OGAHIIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI.

REJA:

1. Ogahiyning adabiy-ilmiy faoliyati.
2. SHoirning tarjimai holiga malumotlar.
3. "Taoviz-ul oshiqin" devoni. Debocha.
4. Ogahiy ijodida falsafiy qarashlar ifodasi.
5. Ogahiy va uning O'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni.

Muhammadrizo Erniyozbek Ogahiy barakali ijod qilgan sanatkori sifatida haqli ravishda Alishe'r Navoiyga qiyoslangan. 19-Asr Xorazm adabiyotining yirik namoyondasi Ogahiy serqirra istedad sohibi bo'lib, shoirlik iqtidori, tarixnavis salohiyati, tarjimonlik maxorati bilan O'zbek madaniyati ravnaqiga katta ulush qo'shgan. Uning she'riy merosini tashkil etuvchi "Taoviz ul-oshiqin" (Oshiqlar tumori) asari O'zbek mumtoz adabiyoti xazinasidagi eng yirik va qimmatli devonlardandir. Ogahiyning tarixnavisligiga mansub "Firdavs ul-iqbol" (bu asarni Munis boshlagan, Ogahiy davom ettirgan), "Riyo'z ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome ul-voqe'oti sultoni", "Gulshani davlat", "SHohidi iqbol" asarlari mamlakatimiz o'tmishi voqeligini haqqoniy aks ettiruvchi nodir tarixiy hujjatlardandir. Ogahiy forsidan O'zbek tiliga o'g'irgan - Mirxondning Ravzat ussafo", Muhammad Mahdiy Astrobodyning "Tarixi Jahonkushoyi Nodiriy", Zayniddin Vosifiyning "Badoe ul-vaqoe", Mahmud binniy SHayx Ali G'ijduvoniyni "Miftoh ut Tolabin", Muhammad Muqim Hirotiyning "Tabakoti Akbarshohiy", "Muhammad YUsuv Munshining "Tazkirayi Muqimxoniy", Rizoqulixon Hidoyaning "Ravzat us-safoyi Nosiriy", Musayn Voiz Koshifiyning "Ahloqi Muksiniy", Kaykovusning "Qobusnoma", Muhammad Vorisning "Zubdat ul-hikoyat", "SHarhi daloyil al-hayrat", Sadiy She'roziyning "Guliston", Abduraxmon Jomiyning "YUsuf va Zulayxo", Badriddin Hiloliyning "SHoh va gado", Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar" kabi tarixiy, badiiy asarlari O'zbek tarjima adabiyotining ulkan boyligi hisoblanadi.

Ogahiy 1809 yili 17 dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tug'ildi. Bolalik va o'smirlik yillarini Qiyotda o'tkazdi. Boshlang'ich malumotni o'sha yerda oldi. YOshligida otasi olamdan o'tdi. Keyin

Xiva madrasalarida tahsil ko'rdi. SHu orada, aniqrog'i, 1829 yili Ogahiy amakisi, ustozi She'rmuhammad Munisdan ajraldi. Olloqulixon Ogahiyning Munis o'rniga mirob etib tayinladi. SHu davrdan etiboran, Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan bog'laydi.

Qizg'in ijtimoiy-ijodiy mehnat bilan mashg'ul Ogahiy 1845 yili miroblik yumushlari bilan safarda yurganida, otdan yiqilib shikastlandi va o'z tabiri bilan aytganda, "SHakarlang" (oqsaydigan) bo'lib qoldi. Ogahiy 1857 yilda miroblik vazifasidan iste'foda berdi. Ogahiy 1874 yili oltmish besh yoshida hayotdan ko'z yumdi.

"Taoviz ul-oshiqin" devoni mutolaasiga kirishishdan burun unga yozilgan debochani badiiy qimmatini haqida fikrlashmoq joizdir.

"Taoviz ul-oshiqin" debochasi, avvalo, Ogahiyning hayoti, hasbi holi haqida malumot beruvchi birlamchi manbadir. Unda shoirning orzu va rejalari, sarguzashtlari, hayotining turli davrlardagi ruhiy holati izchil maroqli aksini topgan. Debochada ijodkor dunyoqarashining shakllanishi, yosh, izlanuvchan Muhammadrizoning jamiyatdagi voqe-hodisalarga, turfa, guruh, amal namoyandalari munosabatini kuzatish mumkin.

Mana bu so'zlar Ogahiy devon yaratgunga qadar shoir sifatida tanilgani uning asarlari xalq tomonidan yaxshi kutib olingani va sevib o'qilgani, uning asarlari xalq tomonidan yaxshi kutib olinganidan dalolat beradi: "...Ushbu sayr asnosida har toifaning holiga loyiq va har jamoaning afoliga muvofiq bir mazmun shohidining xayoli xotirim ko'z'gusiga xutur qisqa erdi, gunogun iboratlar bila rangin nazmlar libosini kiydirib, dilkash suratlar bila xaloyiq nazarida namoyish berur erdim va har birining rangin ruxsori va mushkin gesusi tomoshosidin shavq va dard ahlining shaydo ko'ngillarini volalig va asirlik maqomiga yetkurur erdim, andog'kim, shavkangez g'azallar va mavoizaomez qasidalar va muhabbatosor ruboiylar va diqqatparvar masnaviylar va bazmaro muxammaslar va ruh-fazo musaddaslar nazm silkiga chekib bir necha qog'oz poralarga musavvada kulur erdim. Alarning ko'prog'i xaloyiqning tillari askorida mazkur ko'ngullari arvoxida mastur bo'lib, olim atrofi va falak va atroviga quloq yanglig' shuxrat tutib, akobir majolasida rutub ulison va asogir maxofilida viridi zabon bo'lur erdi, toki alardin, bazi musavvadasini judonda pinxon qilib, bizning musovadasini beparvoligin sababidin har tarafga sochilib, nobud va parishon bo'lur erdi". "Taviz ul-oshiqin" debochasi 19-asr O'zbek nasrining go'zal namunasi hamdir. Debocha - mustaqil nasriy xasbi hol asar sifatida baholasa arzigulik durdona.

Birgina 19-asrda yashab ijod etgan uch zabardast nodir - Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlari olib ko'rilsa, ularning nasri uslubi, badiiy tarovati, til xususiyatlari jihatidan bir-biridan farqlanib, ayri-ayri jilolanib turadi. Ogahiy debochasining matni an'anaviy sayqaldor uslubda yozilgani, tilning shirador va samiymligi, saci usuli bilan muzayyanligi, fikr - mulohazalarining nazmiy parchalar vositasida dalillanib borishi bilan go'zaldir. Debocha Ogahiy tabiiy tamoyillarini aks ettirishi bilan ilmiy qimmatga ham egadir.

Ogahiy haq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Muhammadrizo o'z she'riyatining oshiqlar qalbiga yaqin, ular bilan tumordek doimo hamroh bo'lishini, ishq ahliga dard alamlaridan xalos qiluvchi fazilatlariga ega bo'lishini

istadi va devonini “Taviz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) deb atadi. Bu fikrni shoir ko’pgina she’rlarida faxriya usulida izhor etgan.

Ogahiy, dil so’z nazmingni eishtsa ahli ishq

Bo’yniga tavizdek aylarlar ashyoringni band.

Xususan, “Taviz ul-oshiqin” debochasidan Ogahiy o’z nazmi mohiyatini juda aniq va ravshan izohlab ketan: “...Toza she’r tafakkuri bodasin ichib, goho o’zimga keldim, goho o’zimdan ketdim va har xol bilan necha muddatlar ko’p mehnat va mashaqqatlar chekib, aksari ashorimni jam etib, devon suratida bir necha avroq suturiga bitdim. CHun orchasi dardi ishq o’ting harorati bilan ohista va shavqu muhabbat asarining seroyati bilan sirishdta va oshiqlar g’aming taskiniga sabab va dardmanlar alaming taxfiga mujub erdi. Lojaran agar ishq va dard ahlining qo’liga tushsa, taviz yanglig’ ixloslari buyumlariga osib, izzat bila asrar erdilar va mutolaa qilib, shavkangiz mazmunlari dorusidin ishq bemorligi maraziga navi shifo topar erdilar” “Taviz ul-oshiqin”da sharq mumtoz adabiyotining 19 janridagi asarlar mujassam. Ular 470 g’azal, 3 mustazod, 89 muxammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarjiband, 7 qita, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojat, 1 savol javobi oshiq va maoshuq, 20 tarix, 19 qasidadan iborat. “Taviz ul-oshiqin” devonida 1300 misradan ortiq asar “Ashooriy forsiy” nomi bilan alohida o’rin tutadi.

Ogahiy devonidagi asarlar ijtimoiy mazmun salmoqdorligi, inson va xalq manfaatlari uchun kurash maslagi bilan ham sharqning o’lmas obidallari qatorida turadi. Ogahiyning inson taqdiriga munosabati uning lirikasidagi davr va ahli davr tasvirida ko’zga yaqqol tashlanadi. Mavjud jamiyatda insonga munosabat hamda insonning jamiyatdagi hurmat-etibori haqida shoir kinoya va alam aralash mana bunday xulosa bayon etadi:

Ey ko’ngul, hayvon gulu hamoqatpesha bo’l,

Odam o’lmoq istasang gar aqli davron oldida.

Manaviy inqirozga yuz tutgan jamiyat insonga faqat shunday yashash usulini ravo ko’radi, xolos. Aks holda inson “gulu hamoqatpesha” emas, hushyor, mustaqil fikrli, haqparast bo’lsa, kibor jamoat uni odamgarchilik va odob doirasidan chiqib, yakkalab, mudom g’amu kulfat, mashaqqatu qadrsizlikka muhtalo qilib qo’yadi.

Ayniqsa, ijodkor va ijod qadri haqidagi baytlar diqqatga sazovor.

Har damda agar so’z din yuz duru guhar sochsang,

Bir ko’hna xazaf chog’li elementlar aro topmas qiymat.

Gar kiprik ila qozsang yuz toza quduq, ondin

Serobi murod o’lmoq ko’rgusmagusi surat.

Ilm-marifat, badiiy so’z namoyondalari shundayin qadrsizlangan zamonda Ogahiydek sabot va bardosh katta umidvorlik bilan tinimsiz manaviyat quduqlarini qazmoq, mukammal devon va qator tarixiy-badiiy kitoblar yaratmoq bukulmas iroda fidoiylilik nishonasidir:

Go’yoki, seni tangri mehnat uchun etmish xalq,

Yo’qsa, senga ham eldek bermasmu edi davlat.

Do'stparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan misralar Ogahiy do'stlikka, muhabbatga ulug' ehtiqod bilan yondashganidan dalolat beradi. Ular, ayni paytda, shoir samimiy mehribon, muruvvatli, xayrixoh do'stu yor topolmay qiynalganidan ham darak beradi. Ushbu misralar shoirning g'am-g'usor, nekbin yor istabyovuz kimsalarga yo'liqqanining achchiq sabog'idir:

Eri badni dabdururlar mori band,

Qochmoq ondin keldi sunnat, ey ko'ngil.

Ezgulik umid bog'lab, "yori bad" ga yo'liqqan shoir "barcha avqotini behuda o'tirgani" dan o'ksinadi, zamon va zamon ahlidin omonlik istaydi.

Muft bilgil boru yo'qingi berib,

Xalqdin topsang farog'at, ey ko'ngil.

Zamona ziddiyatlari, zo'rovonligi, adolatsizligi bilan murosqa qilolmagan bir "eri baddan qochmoq"ni, "xalqdan farog'at topmoq"ni va "faqir go'shasini makon etmoq"ni aytaydi:

Har kimki, faqir go'shasi bo'lmish makon ango,

Xotir hamisha bahr g'amidin amon ango.

Sultondur ul gadoki, buzuv kulbasi aro,

Osudadur topilsa biror pora non ango.

Mazkur baytda, Ogahiy talqinidagi shoh va gado nisbatidan tashqari, faqirlik mashabidan insonning sobirlik va qonelik fazilati, musulmon dunyosidagi sabru-qanoat falsafasi tajassum topgan. Komil inson tarbiyasi yo'lidagi muhim axloqiy omildir bu. Sabru-qanoatni tark etib, nafs itiga, xirsu-xavas devlariga duchor bo'lgan inson tadjrijiy kamolotdan to'xtaydi. Uning tolei kamoldan zavol tomon yuzlanadi.

Ishqqa falsafiy munosabatiga ko'ra, Ogahiy insoniy ishqqa sig'ingan, dunyoviy muhabbatni eng yuksak pardalarda, tiniq va dilkash, ta'sirchan navolarda, ming yillik muhabbatnomadan o'zgacha jozibada kuylay olgan. Har g'azalga "ishq hurram markzorini g'izoli sho'xi" yanglig' sehr sinoat singdirgan shoiri sohir edi. Biroq, Ogahiy she'riyati faqat mijoziy ishq tasviridan iborat emas.

"Taviz ul-oshiqin" dan shoirning ishq haqiqiy tasvirida ham mahoratli sanatkor ekanligidan dalolat beruvchi asarlar keng o'rin egallagan.

Ayniqsa,

Ogahiy, jahd et, musohid bo'l haqiqat ahliga,

Tabaki bo'lg'ay majoz ahli bilan ulfat sango.

Matlaoi bilan tugallangan g'azalda Ogahiyning ishqqa, haqiqat va mijoizga falsafiy munosabati yaqqol aks etgan.

Ilohiy ishq kechinmalari tasviri Ogahiy nazmining tasirchan sahifalarini tashkil etadi. Hattoki, shoir tahallusida ham ilohiyot sirlariga bog'liq ma'no bor:

Ne tong ogoh bo'lsa Ogahiy ishqning siridinkim,

Ongga behuda ermas osmondin bu laqab paydo.

Demak, Ogahiy tahallus tanlaganida, ilohiy ishq - Ollohga muhabbat sirlaridan ogohlik, habardorlikning ham nazarda tutgan. Bu - tahallusning bir ma'nosi.

Ogahiyning falsafiy asarlari ko'rsatadiki, o'z salafлари singari, so'fiylikning panteistlik yo'nalishiga, ko'proq Naqshbandiylik sulukiga e'tiqod qo'ygan.

CHunki u o'rta SHarq falsafasidagi eng taraqqiyparvar, hayot - sevar, insonparvar, zakovatli maslak edi.

Nazorat savollari

1. Ogahiy haqida ma'lumot bering.
2. Qaysi jihatlari uchun Ogahiy Navoiydan keyingi ulug' siymo sifatida e'tirof etiladi?
3. SHoirning adabiy merosini sanag.
4. SHoir ijodining xalqchilligi siri nimada?
5. Qanday asarlarni tarjima qilgan?
6. Tarixga oid asarlarni sanang.
7. «Taviz-ul oshiqin» haqida ma'lumot bering.
8. Debocha nima?
9. Ogahiy yubileyi qachon nishonlandi va nima ishlar amalga oshirildi?
10. SHoirning adabiyot tarixida tutgan o'rnini asoslang.

Tayanch atamalar

1. "Taviz-ul oshiqin" - oshiqlar tumori (ramziy).
2. Debocha - kirish so'z, muqaddima.

Tayanch tushunchalar

1. Hasbi xol - shoir ijodida uning tarjimai holiga oid ma'lumotlarning aks etishi.
2. G'azali musalsal - g'azal baytlarining o'zaro mantiqiy bog'lanishi, syujetlilik.

Adabiyotlar

1. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980.
2. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. T., 1963.
3. Zoxirov V. Ogahiy. T., 1961.
4. Munirov K. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. T., 1960.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Karimov G', Dolimov S. Muhammadrizo Ogahiy. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1-Jild. T., 1971.
2. Ogohlik sirlari. To'plam. Farg'ona., 1999

MAVZU: XIX ASRNING IKKINCHI YARMI ADABIYOTI

REJA:

1. SHu davrdagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy sharoitga qisqacha tavsif.
2. Mumtoz adabiyoti tarixiga nazar.
3. Davrlashtirish masalasiga munosabat.
4. Mumtoz adabiyotni o'rganishda istiqlolgacha bo'lgan davrda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va noxolisliklar.
5. Mumtoz adabiyot va uning namoyondalariga munosabatda mafkuraviy tazyiq va sinfiy yondashuvlarning zarari.
6. Umumlashtiruvchi xulosalar.

Adabiyotni davrlashtirish shartlidir. CHunki adabiyot o'z taraqqiyot qonuniyatlariga ega. Bir davrni boshqa bir davrdan "uzib" olib bo'lmaydi. Har bir davr adabiyoti o'zidan oldingi davr adabiyotiing mantiqiy davomidir. Saroy adabiyoti, diniy mistik adabiyot, progressiv adabiyot, demokratik adabiyot va hokazo tartibda toifalarga bo'lib yuborish ham o'zini oqlamadi. CHunki saroy adabiyoti keskin qoralangan paytlarda Navoiy va Boburlarga to'g'ri keldi. YOki diniy mistik adabiyot taqibga uchraganda YAssaviy va Mashrablarni chetlab o'tishga to'g'ri keldi. Adabiyotga sanat turi, ijodkorga sanatkori sifatida qarash lozim. Adabiyotning bosh vazifasi odamlarni manaviy boyitish, ruhiy kamolotga undash ekanligini mustaqillik yillaridagina anglab yetmoqdamiz.

So'z sanatkorlarini sinfiy "lager"larga taqsimlash, ayniqsa, oktyabr to'ntarishidan keyin avj oldirildi. Muqimiya Muxoyi suniy ravishda qarama-qarshi qo'yildi. Vaholangki, Muxoyi Muqimiyning shogirdlaridan biri, o'sha davrning boshlovchi shoirlaridan bo'lib chiqdi.

Muqimiy tanayi Muxoyiga bir so'z aytdiki, rost o'lsin,

Kelur oxir seni ham yo'qlagudek bir zamon yaxshi.

Singari suniy davlatlar Muqimiyniki emasligi aniq bo'ldi.

Qalam ahli xukmron doiralar xamisha o'z manfaatlariga xizmat qildirishga urinib kelganlar. CHor Rossiyasi ham ana shunday g'arazli niyatdan holi bo'lmagan. Malum bo'lishicha, maxsus farmoyish bilan jamiki qalam ahli Dukchi eshonni malomat qilganlar. Jumladan, Furqatdek zabardast so'z sanatkori ham CHor Rossiyasi manfaatlariga xizmat qildirilgan.

ANANAVIYLIK MASALASI.

19 asrning 2-yarmi adabiyotida quydagi asosiy ananalarini kuzatish mumkin.

A) Mumtoz adabiy merosdan oziqlanish. Har qanday adabiy xarakat xalq ommasi bilan hamnafas yashaydi. Uning orzu- armonlarini, intilishlarini, g'oyalarini, ijtimoiy-madaniy, badiiy saviyasini aks ettiradi. O'tmish mumtoz adabiyotdagi ana shu xususiyatlari 19 asr 2-yarmi adabiyotida ham aks etdi.

B) shu davr adabiyotida Alishe'r Navoiy ta'siri.

Hech qaysi demokratik adabiyot vakili Navoiyning ijodiy ta'sirida chetda turmagan. Uning ijodiy tajribalaridan ilhomlanib, uning o'lmas ananalarini yangicha ko'rinishlarda, chngicha bosqichda davom ettirganlar, rivojlantirganlar. Navoiy g'oyalari biroz boshqacharoq ko'rinishda aks etgan bo'lishi mumkin.

(Navoiy: “Soda shayx”, Muqimiy “Avliyo”). Navoiyning mashhur baytini esga olaylik:

**Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig’,
YOr o’ling bir biringizgakim, erur yorlig’ ish.**

Furqatda o’qiymiz:

**Qadim ayyom xonlar asrin ko’rgan, eshitganmiz,
Har oyda bir tarafdin yov chiqib elga ziyon etdi...**

(urug’chilik va mahalliychilikka oid fikr-mulohazalar).

Navoiyda bir hazil g’azal bor. Unda soqoli endigina chiqayotgan o’smir yengil kulgu ostiga olinadi. Sabza urayotgan soqol murti shiraga qo’ngan qumursqaga o’xshatiladi. Muqimiy o’zining “Qusamen” g’azalini yozishda ana shundan ilhomlangan deyish mumkin.

Lirik she’riyatda ham ana shunday anoanalarni ko’plab uchratish mumkin. Bu borada Zokirjon Furqat yetakchilik qilgan, deyish mumkin. Furqat Navoiy g’azallariga muxammaslar bog’laydi, nazralar bitadi. Ayrim adabiyotshunoslar nazirani tematik buyurtma deb baholaydilar. Ular nazirada shoirning biografik xususiyatlari aks etishi mumkinligini inkor etadilar. Birgina Navoiyning “Bo’lmasa bo’lmasun netay” radifli g’azaliga demokrat shoirlar yozgan naziralarni ko’zdan kechirsak, bu yanglish xulosa ekanligiga amin bo’lamiz.

Navoiy:

**Gar alaming’a chora yo’q, bo’lmasa bo’lmasun netay,
Gar g’amima shumora yo’q, bo’lmasa bo’lmasun netay.**

...Dedim: erur Navoiy o’z dardig’a chorasiz, dedi:

Gar alaming’a chora yo’q, bo’lmasa bo’lmasun netay.

Avaz O’tar Navoiyga ergashib ketadi:

Ganj dilim davosi yo’q, bo’lmasa bo’lmasun netay,

G’amlarim intihosi yo’q, bo’lmasa bo’lmasun netay.

...Bazimki, yorsiz Avaz mutribiy xush navosini

Nag’mai rux fazosi yo’q, bo’lmasa bo’lmasun netay.

Zavqiy esa o’z holatini singdirib yuboradi, shoirning lirik “men” ko’rinib turadi:

...Ko’zni tikib qudumig’a, tokay o’lurman intizor

Ilmasa ko’zni kulbami, kelmasa kelmasun netay.

...Ul ko’zi vaxshimiz buyon, bo’lmasa rom ne ajab

Zavqiyda domu dona yo’q, kelmasa kelmasun netay.

Ushbu nazirada Zavqiyning axvoli ruhiyati ham, davrga munosabati ham, uslubi ham alohida ajralib turadi. SHakigina ananaviydir. Malumki, Alishe’r Navoiy g’azalini bayroqdor janriga aylantirgan, uni ham shaklan, ham mazmunan yuksaklikka ko’targan edi. Bu janr 19-asrning ikkinchi yarmida ham yetakchilik mavqeini yo’qotmadi. Ammo mavzular ko’lami nihoyatda kengaydi. Asosan ishq mavzusi kuylangan bu janrga ot, qurbaqa, pashshalar singari latif hisobolanmagan jonivorlar, pech, aroba, fonus singari buyumlar, haqorat va so’kishlar (bachchag’ar) ham kirib keldi.

Qasida singari ayrim janrlar eskirgan bo'lsada, hayotdagi ayrim yangiliklarni epik tarzda, kengroq hajmda hikoyalashga ehtiyoj sezildi. Natijada qadimgi masnaviy shakli yana jonlandi.

Himmat kamarini bog'lab ushbu kun
Eski masnaviyga bitdim yangi to'n

(Jomiy)

Qilay manzuma birla insho

(Furqat)

Badiiy asarlarda voqeabandlik, syujetlilik kuchaydi. "To'ye ikon bacha", "Moskovchi boy tarifida", "Suvorov" va boshqalar.

Navoiy ijodidan boshlangan satira va yumor shu davr adabiyotida kengroq qulay yofdi. (Satira va yumor haqida qisqacha malumot). Xajvchilikning kuchayishida xalq og'zaki ijodida bitmas tuganmas manba bo'ldi. Muqimiy:

Satqai odat ketu yuz xayfsan Asrorqul.

Zahar ichgan, kiygoning bo'lsin kafan, Asrorqul.

Furqat:

Xo'blarg'a zo'ru yozar - elementlar ichra masal bor,

Man xastani fig'on kim, ilkimda zo'ru zar yo'q.

SHuningdek, shoirlarning o'zi ham xalq o'rtasida mashhur bo'lib ketgan tashixlar yaratdilar.

Osh yesalar o'rtada sarson ilik,

Xo'ja chiroq yog'u, Hakimjon pilik. (Muqimiy)

Satira mumtoz adabiyotda avvaldan mavjud edi. Masalan, Navoiyda satirik she'rlar talaygina. "Faloni" tsikli ham bor. Ammo ularda bir kishining nomi tilga olinmaydi. "Faloni" tsikli Zavqiyda ham bor. Ayniqsa, Maxmur ijodidan boshlab, satirik qahramonning nomi aniq aytiladigan bo'ldi. Navoiy "o'zganing aybini ochmoqqa burma til", desa, Muqimiy "Basharasi qiyshiq bo'lsa, nima qilay", degan mazmunni ifodalaydi.

She'riyatning xususiyatlari ham o'zgarganligini ko'ramiz. Navoiy davrida ham, undan keyin ham she'riyatda "yolg'on joiz" hisoblangan. Arablarda ham she'rning eng yaxshisi yolg'onidir, degan ibora bor.

(Bag'dodda ichqirsa mabodo xo'roz,

Bilingki, shu mahal tong otgani rost).

Demokratik adabiyotda bu borada ham malum isloxlarni ko'zga tashlanadi:

Muqimiy:

Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,

So'zki haq bo'lsa savolimga javobim kim desun.

19-asr 2-yarmi adabiyotida bunday realistik tendentsiyalar qayerdan paydo bo'ldi?

Birinchidan, taraxiy shart-sharoit taqozosi. Bu hatto jo'g'rofiy hudud nuqtai nazaridan ham bog'liq emas. SHoir qayerda yashasa ham, o'zi yashayotgan va ijod qilayotgan muhit tasirida, o'z dunyoqarashi doirasida muhitga, davrga munosabat bildiradi:

Nekrasov: Xochu pomiluyu, xochu kaznyu ("Rusda kim yaxshi yashaydi?")

Muqimiyda: "O't qo'yubon kuyduradurg'on o'zum" ("Tanobchilar").

Ikkinchidan, voqelikni realistik tasvirlashga intilish kuchaydi. Ko'plab shoirlarni o'tmish mumtoz ananalar qoniqtirmay qo'ydi.

Avloniy yozadi:

**Siza arzim budir, ey shoiron, ishqiya nazm etmang,
Qalamqosh, zulfi sunbul, sarviqomatdan gapurmanglar
Keling emdi yozaylik, so'zlashaylik kamchiliklardan.**

(“Sadoyi Turkiston”, 1914 yil, 20 may).

Demokratik adabiyotda kurtaklay boshlagan shu kabi milliy uyg'onish nafasi keyingi davr adabiyotida, xususan, jadid adabiyotida o'zining yorqin izlarini qoldirdi.

Nazorat savollari

1. SHu davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot haqida malumot bering.
2. Adabiy jarayon haqida tushunchangizni bayon qiling.
3. SHu davr adabiyoti oldingi davrlardan nimasi bilan farqlanadi?
4. Qaysi mavzular bilan boyidi?
5. Qanday janrlar etakchilik qildi?
6. G'oyalar nimalardan iborat edi?
7. Qanday obrazlar paydo bo'ldi?
8. Satira haqida malumot bering.
9. YUmor she'rlarini tavsiflang.
10. Tasavvufiy g'oyalar qanday aks etdi?
11. Madaniy hayot qanday darajada edi?
12. Abulg'ozining «SHajarai Turk» asari haqida malumot bering.
13. Qanday tazkiralari yaratildi?
14. Badiiy adabiyot qaysi yo'nalishlarda davom etdi?
15. YAqin o'tmishda adabiyot qanday toifalarga ajratilgan edi?
16. Reaksion adabiyot qanday talqin etildi? Bunga munosabatingiz.
17. Dunyoviylik deganda nimani tushunasiz?
18. Diniy tasavvufiy adabiyot nima uchun qoralangan edi?
19. SHu davrda xalq og'zaki ijodi.
20. Adabiy aloqalar qanday edi ?

Tayanch atamalar

1. Adabiyotning demokratik xarakteri.
2. Adabiy maktab. Uning adabiy muhitdan farqi.

Adabiyotlar

1. Karimov G'., Dolimov S. Muhammadrizo Ogahiy. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1-Jild. T., 1971.
2. Abdurasulov Munis. O'zbek maorifatparvar shoirlari ilm-maorifat haqida. T., 1972.
3. O'zbek adabiyoti masalalari (maq. to'pl.) T., 1959.
4. Furqat va Muqimiy haqida maqolalar. T., 1958.
5. Jalolov A. O'zbek maorifatparvar demokratik adabiyoti. T., 1978.
6. Jalolov A. O'zbek maorifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. T., 1993.

MAVZU: MUQIMIYNING HAYOTI VA IJODI

REJA:

1. Muqimiy yashagan davr, tarixiy sharoit, adabiy muhit
2. SHoir ijodining ommalashishi tarixidan.
3. Muqimiyning tarjimai holiga oid malumotlar.
4. SHoir ijodining mavzular ko'lam.
5. Adabiy merosi.
6. Ijodining bosqichlari
7. Muqimiy ijodiga yangicha yondashuvlar
8. Xulosa.

Muqimiy 19-asrning 2-yarmi adabiyotining eng yirik va yetuk vakili edi. Uning ijodi keng omma kayfiyatlarini badiiy ifoda eta olganligi bilan xalqchilik kasb etdi. Muqimiy ijodi serqirra va rang barangdir. Uning hayot go'zalligini vasf etuvchi bir qator lirik she'rlari ("Navbahor"), buqalamun kishilarni tanqid qiluvchi ("Avliyo"), maishiy buzuvchilikni qoralovchi ("Ashurboy haqidagi hajviy") zo'rovonlik va zulmga isyon qiluvchi ("Tanobchilar") bir qator asarlari bugungi kunda ham o'zining badiiy estetik qimmatini yo'qotmasdan kelmoqda.

Muqimiy erishgan ulkan muvaffaqiyatlarning omili shundan iboratki, u boy O'zbek folkloridan unumli va o'rinli foydalandi. Mumtoz adabiyotimizning ko'p asrlik o'lmas ananalarini davom ettirdi, yangi bosqichga ko'tardi.

Mavloni Muqimiy haqida birinchi marta 1895 yilda Misyoner N. Ostroumov, "Zapiski vostochnogo otdeleniya russkogo arxeologicheskogo obshestvo"ning 9-jildi sahifalarida xabar bergan edi. Rus tilidagi bu xabarda Muqimiy ijodi haqida, uning xalq o'rtasida mashhurligi borasida fikr yuritiladi.

1893 yilda Muqimiyning birinchi qo'lyozma bayozi chiqdi. 1899-1903 yillarda "Katta bayozi Muqimiy"ning qo'lyozmasi tugallangan, uni shoirning o'zi tuzgan edi. Litografiyada bosilgan ko'p yoki oz tirajli bayozlarning barchasiga Muqimiy she'rlari zaruriy tartibda kiritiladi. Bu esa Muqimiyning o'sha davrlardayoq etakchi shoirligi tan olinganidan dalolat edi. SHuningdek, Muqimiyning "Devoniy Muqimiy va hajviyot" nomli she'rlar to'plami 1912 yilda kam nushada bosilib chiqdi. SHoirning 18 ta xati ham saqlanib qolgan bo'lib, ular jiyani Ro'zi Muhammadga yozilgan maktublardir.

Muqimiy vafotiga 35 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilgan yubiley shoir ijodi bilan xalq ommasini kengroq tanishtirishda muhim rol o'ynadi. 1942 yilda esa shoirning "Tanlangan asarlar"i nashrdan chiqdi. (Nashrga G'.G'ulom tayyorlagan, Uyg'un muharrirlik qilgan).

She'ringizga xalq tolib bo'lsalar so'ngra o'qin,

YO kelib axbob karbonat angidrid gazi bo'lmoqqa mehmon bo'ldumu?

Bo'zda resh, eshakda jon, to'ti gapirgoni bilan

E afandum, sizga ul albatta bo'ldimu?

degan shoir haqiqatdan ham xalq orasida malum va mashhur edi. Uning she'rlari bozorlarda, sayllarda o'qilgani haqida malumotlar bor.

Muqimiy 1850 yilda asli Toshkentlik bo'lgan Mirzaxo'ja oilasida tug'ildi. Onasi Oishabibi sanatevar ayol bo'lgan. Bo'lg'usi shoir o'z ijodini 14-15

yoshlaridan boshlagan. 1872-1873 yillarda Qo'qon madrasasini bitirgach, Buxoroga ketdi. 1876 yilgacha bo'lgan davr Muqimiy ijodida izlanishlar sifatida baholanadi.

1876 yilda Qo'qonga qaytdi. O'gay onasi Ziyodabibining qizi Sanambibiga uylangan. Undan Akbarxo'ja ismli o'g'li dunyoga kelgan. 1877 yilda Qo'qondagi yer qurilishi mahkamasida mirzachilik qilishi shoirning xalq hayoti bilan yaqindan tanishuviga sabab bo'ldi. Mashhur "Tanobchilar" satirasi ayni shu kezlarda yaratildi. SHundan so'ng u Sirdaryo yoqasidagi oq jar paromida pattachi bo'lib ham ishladi. Bu yerda ijodiy muhitdan ijodkor do'stlaridan yiroqda bo'lishi unga salbiy taosir qildi.

Kelganim ushbu makonga qiladur manga alam,

Loyqi tabo yo'q odamni desam hasratu g'am.

Gaplashuvga kishi yo'q ertadan shomg'acha ham.

Kun sovuq, qora chiroq, go'rdek uyu, o'tin kam.

CHiqsam eshikka qilur to'rg'ayi chuldur-chuldur...

Bu shoirning ilk satirik asari bo'lib, realist shoirning g'oyaviy yo'nalishi, uslubi shakllanayotganidan darak beradi.

1880 yillarning oxirida rasmiy vazifalardan voz kechib, Qo'qonga qaytadi, ijodiy ishlarga beriladi, 1880 yillardayoq uning talay she'rlari bayozlardan o'rin olganligi uning shoir sifatida tanilib borayotganligidan dalolat beradi. Endi uning she'rlarida chuqur qalb kechinmalari, falsafiy qarashlari aks eta boshlaydi:

Podshoh yo'qlatsalar nogoh gado deb axtaring,

Tutmang xargiz nomimni, baxti qaro deb axtaring.

... YOr vasliga yetolmay qolmish ul kunkim Muqum,

Ushbu boisdin o'lumumg'a rizo deb axtaring

(she'rning majoziy va haqiqiy manolari tahlili).

Malumotlarga qaraganda shoir 1880_ yilda sanambibi bilan ajralishadilar. 1885_ yildan otasi Mirzaxo'ja vafot etadi. Oilaga boshchilik qilish Muqimiy zimmasiga tushadi.

1887-1888 yillarda Toshkentga birinchi sayohati boshlanadi. 1892-1899 yillarda ham Toshkentga safar qiladi. Toshkent shoir ijodida chuqur iz qoldiradi. YAngidan -yangi g'oyaviy yo'nalishlar she'riyatidan o'rin olishiga sabab bo'ladi. 1903 yil 25 mayda dushanba kuni vafot etdi.

Ijodiy merosi.

A) davlat fondlaridagi qo'lyozma manbalar;

B) ayrim adabiyot xavaskorlari to'plagan kolleksiyalar;

V) litografiya va tipografiya yo'li bilan nashr qilingan asarlar.

SHoir merosining umumiy hajmi 10 ming misradan oshmaydi. Bu meros:

a) lirik she'rlari;

b) hadjviyot, (satira , yumor);

v) sayohatnomalar;

g) maktublar.

Muqimiy ijodi taraqqiyot bosqichlarini shartli ravishda quyidagicha bo'lish mumkin:

1. Ilk davri 1860-70 yillar. Ijodiy izlanishlar davri.

2. Ijodida demokratik tamoyillar yuzaga kelgan davr. 1880 -90 yillar.

3. So'nggi yillar.

Muqimiy ijodida hajviyot, yumor, sayohatnomalar bilan bir qatorda lirik she'rlari ham salmoqli o'rin tutadi. Shoir ijodida A. Navoiy, A. Jomiy singari ulkan shoirlarni ustoz deb bilgan, ularga ergashgan. Lirikaning imkoniyatlarini yanada kengaytirgan. Xasbi hol tipidagi quyidagi g'azali uning shaxs va jamiyat shoir va muhit, orzu va voqelik o'rtasidagi munosabatlarni yuksak ifodalaydi.

Oh kim, afsus, emas hech ishda rahbar toleim,
Vojgumdir imtihom qildimki, aksar toleim.

YUz tarafdin yetkurib, gardi qudrat zangi g'am, aylagan oinai taobim muqaddar toleim...

...Nogahon bersam Muqimiy bir musulmong'a salom, dafatan ikki qulog'ini karbonat angidrid gazi toleim.

Mavloni Muqimiy o'zining serqirra ijodi, yuksak lirik mahorati, hozirjavoblighi, xalqchillighi bilan elementlar mehrini qozongan, kelgusi ijod ahli uchun mahorat maktabi yarata olgan so'z sanoatkoridir.

Nazorat savollari

1. SHoir haqida malumotlar.
2. Adabiy meros haqida tushuncha bering.
3. SHoir merosi qaysi manbalar orqali yetib kelgan?
4. Muqimiy merosini keng ko'lamda o'rganish qachondan boshlandi?
5. SHoir haqidagi qanday badiiy asarlarni bilasiz?
6. Lirikasining yetakchi xususiyatlari nimada?
7. Qanday satirik she'rlarini bilasiz?
8. Satirada kimlarning ananalarini rivojlantirdi?
9. YUmor she'rlarini sanang.
10. Muqimiyning adabiyotimiz ravnaqidagi xissasini asoslang.

Tayanch atmlar

1. Muqum - turg'unlik manosida.
2. Parom - kemaga o'xshagan moslamada odamlarni daryodan o'tkazadigan joy.

Tayanch tushunchalar

1. Ijodiy bosqichlar haqida tushuncha.
2. Badiiy asarning haqchilligini bajaruvchi omillar.

Adabiyotlar

1. Karimov G'AZAL. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1975.
2. YOqubov X. Xalqparvar shoir. T., 1949.
3. YAqubov X. O'zbek demokratik shoiri Muqimiy. T., 1953.
4. Olimjonov A. Muhammad amin muqimiy. T., 1953.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Abdug'ofurov A. Erk va ezgulik kuychilari. T., 1979.
2. Vohidov X. Furqat va Muqimiyning ijtimoiy siyosiy qarashlari. T., 1959.
3. Orzibekov R. Lirikada kichik janrda. T. 1974.

MAVZU: **ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LI FURQATNING HAYOTI VA IJODI**

REJA:

1. SHoir yashagan davriga qisqacha tavsif.
2. Furqatning tarjimai holiga doir malumotlar.
3. Ijodiy faoliyatining muhim bosqichlari.
4. Ilmiy adabiy merosi va o'rganilishi.
5. Furqatning O'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni.
6. Xulosalar.

Furqat hayoti va ijodiy faoliyati.

Furqat hayotiga qiziqish va o'rganish uning hayotligidayoq boshlangan edi. Bosmaxona yo'li bilan bosilgan "Bayoz mao hajviyot Mavlonov Muqimiy mao mavlonov Furqat" 1913 yil va boshqalar shundan darak beradi. 1870 yildan buyon chiqa boshlagan. "Turkiston viloyatining gazetisi" bu jihatdan harakterlidir. 1889 yildan Toshkent 1905 yilgacha bo'lgan sonlarda shoirning ko'plab she'riy asarlari chop etilgan. "Qo'qonlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli" sarlavhasi bilan shu gazetada elon qilingan avtobiografik asar ham harakterlidir. Furqat hayoti va ijodi dastlab 30-yillardan boshlab o'rganila boshladi. (Inqilobdan keyin). 1939 yilda "Guliston" jurnalida birinchi marta Furqat asarlaridan namunalar uchraydi.

1940 yilda "Furqat she'rlari" nomli kitobcha nashr etildi.

1951 yilda Moskvada o'tkazilgan O'zbek sanati va adabiyoti o'n kunligi munosabati bilan tashkil etilgan. "O'zbek adabiyoti klassiklari" seriyasida Furqatning "Tanlangan asarlari" chop etiladi. 1954 yilda Xolid Rasulning monografiya xarakteridagi "Zokirjon Furqat ijodi" va "Furqat - marifatparvar shoir, demokrat shoir" nomli kitoblari nashr etildi.

1959 yilda shoir tug'ilgan kunning 100 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan yubiley alohida ahamiyatga ega bo'ldi. SHu voqea munosabati bilan ko'plab ilmiy maqolalar, to'plamlar, monografiyalar yuzaga keldi. SHoir hayoti va ijodini tadbiq etishda, ayniqsa, G'. G'ulom, M. SHayxzoda, S. Abdulla, I. Mo'minov, V. Zoxidov, I. Sulton, A. Qayumov, X. Zarifov, L. Qayumov singari shoir, dramaturg, olim va adabiyotshunoslar salmoqli ulush qo'shdilar. Furqat ijodining shaklan rang-barangligi, mazmunan chuqurligi va boyligi tadqiqotlar natijasida namoyon bo'ldi. Lekin Furqatning adabiy merosi uzil kesil o'rganib chiqilgan, to'la tadqiq etilgan deb bo'lmaydi. Demak, adabiyotshunosligimiz oldida hali yoritilishi lozim bo'lgan ko'plab masalalar turibdi.

Furqat faqat O'zbek tilinigina emas, balki fors-tojik, arab, tillarini yaxshi bilgan, rus tilidan ham yaxshigina xabardor bo'lgan. Furqat faqat shoirgina emas, publitsist, tarjimon va jurnalist hamdir.

Furqatning hayoti va ijodiy faoliyati.

Zokirjon Furqat 1958 yilda Qo'qon shahrida hunarmand oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Holmuhammad, shoirning o'z tabiri bilan aytganda, zamonasining peshqadam kishilaridan bo'lgan.

Adabiyotga havasi juda erta uyg'ondi. 8-9 yoshlaridayoq sharq klassiklarini maroq bilan o'qigan. Ayniqsa, A. Navoiyga katta ixlos bilan munosabatda bo'ladi. (Juzoixon - adabiyot xavaskori).

1870 yilda maktabni muvaffaqiyatli bitirgach, Qo'qon madrasalaridan biriga o'qishga kiradi. Zehni o'tkir bo'lgan Zokirjon Furqat arab grammatikasini, (sarf va nahv) mantiq ilmini yaxshi o'rgandi. 1875 yilda Qo'qon xonligida avj olib ketgan o'zaro urushlar tufayli u talim olayotgan madrasa ham yopiladi.

Zokirjon Furqat bir necha yil otasi yonida tirikchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgach, 1878 yilda Marg'ilonga, tog'asi yoniga bordi. U erda bir necha yil savdo ishlari bilan band bo'ldi. Furqat hayotida yangi Marg'ilon shahri sezilarli iz qoldirdi. (Skobelev haqida lavhalar). Chunki yangi Marg'ilon ruslar tomonidan barpo etilgan yangi shahar edi. Furqatning hayotida ulkan iz qoldirgan "Turkiston viloyatining gazetisi" bilan ham Furqat huddi shu yerda tanishadi.

Furqat 1880 yillarning boshlarida Qo'qonga qaytadi va butunlay ijodiy ish bilan mashg'ul bo'ladi. Bu yerda u Muqimiy atrofida tashkil topgan adabiy harakatga qo'shiladi.

Furqat bu davrda "CHor darvesh" qissasini forschadan O'zbekchaga tarjima qiladi. SHuningdek, sharq adabiyotidagi syujetlar asosida "Hammomi hayol", "Nuh manzar" singari asarlar yaratadi. Bu asarlar hozirgacha topilgan emas.

Furqat 80-yillarning o'rtalarida o'zining ilk devonini tuzadi. 80-Yillardan boshlab Toshkent 1889 yillargacha bo'lgan davr Furqat hayotida katta rol o'ynadi. U Muqimiy, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir singari ilg'or fikrli shoirlar bilan shaxsiy aloqada bo'lishi tufayli dunyoqarashi shakllandi, ijodi kamol topdi.

1889 yilda Furqat sayohat qilish maqsadida Marg'ilondan chiqib Qo'qon orqali (hozirgi Leninobodga) keladi. (Xo'jand).

Bir qancha vaqt Xo'jandda turgach, 1889 yilning iyun oyida Toshkentga keldi va bu yerda qariyb 2 yil turib qoldi.

Furqat bu erda bosmaxonalarning faoliyati bilan matbaachilik ishlari bilan yaqindan tanishdi. Teatr, konsert zallariga, klub va boshqa madaniyat maskanlariga bordi. Toshkentda mahalliy madaniyat arboblari bilan, ilg'or rus madaniyati arboblari bilan tanishdi, do'stlashdi va hamkorlik qildi. Furqatning adabiyotimiz uchun voqea bo'lib hisoblangan "Ilm-hosiyati", "Gimnaziya", "Vistavka", "Akt majlisi xususida", "Nag'ma bazmi hususida", "Rus askarlar tarafida" she'rlari, "Suvorov haqida" dostonlar huddi ana shu yillarda yaratildi. SHu yillarda to'rt qozidan biri SHarifxo'ja bilan do'stlashdi. Binobarin, Furqatga nisbat berilib kelayotgan quyidagi epigrama uniki emas.

Hangoma talab bo'lsang

Mahkamaga Yo'rta ko'r.

To'rt echkini bir "lo'li"

Afsun bila o'ynatur.

Manbalarda Aprelov degan mustamlakachi generalni hajv qilganligi uchun quvg'in qilingan deyiladi. "Tarixda shunisi aniqdirki, Furqat otilmog'i yoki qamalmog'i turgan gap edi. O'z mudhish taqdirini anglagan shoir qochishga majbur bo'ldi" (G'afur G'ulom). Ammo boshqa mulohazalar yo'q emas...

1820- yil 29- oktyabrda Rossiya ichki ishlar vazirligi pasport berishni to'xtatgan. 1891- yil 29_ iyulda ruxsat etiladi. Ammo bu davrda Furqat chet elda edi. Ostroumov arxividan topilgan Furqat maktubiga Ostroumov 3 tilda viza qo'ygan ekan: "Bunday shoirdan saxroda daydib yurgan it yaxshidir".

Furqat chet ellarda.

Furqat 1891 yilning may oyida Toshkentdan chiqib, Samarqandga bordi. Ko'p o'tmay, sayohat maqsadida yana yo'lga tushdi. Samaraqanddan Kirotnogodskiy orqali Bokuga bordi. Undan Istambulga o'tdi. 1892 yili Arabistonga yo'l oldi. Arabistondan Misrga, Burg'oriyaga, YUnonistonga yo'l oladi. 1892 yilning kuz oylarida yana Arabistonga qaytadi. O'sha yilning oktyabr oyida Hindistonga qarab yo'l oladi. Furqat TSeylon oroli va Kashmir viloyatlarida bo'ladi. Qish faslini Hindistonda o'tkazib, Tibet orqali Xitoyga o'tadi. SHu tariqa YOrkentga keladi va malum sabablarga ko'ra umr bo'yi shu yerda qolib ketadi.

YOrkentda qariyb 16 yil umr kechiradi. (Hitoylik pionerlarning 50-yillarning oxirida yo'llagan maktubi bor).

YOnaxon ismli uyg'ur qiziga uylanadi, uch farzand ko'radi. Nozimjon, Hakimjon va Nodirjon.

Uning o'z do'stlari bilan aloqasi uzilmadi.

"Turkiston viloyatining gazetisi"da ham xat habarlari bosilib turadi. U YOrkentda faqat ijod bilangina emas, tabobat bilan, ilmi nujum bilan ham mashg'ul bo'ladi. 1909 yilda YOrkentda muhojirlikda vafot etdi.

Furqat ijodi evolyutsiyasining etaplari.

1. 1870 yillarning o'rtalaridan 1889 yilgacha Farg'ona vodiysidagi yashagan davri ijodi. Lirik shoir sifatida.

2. Toshkentda yashagan davri ijodi (1889-1891 yillar). Marifatparvarlik motivlari avj olgan davr.

3. 1891_ yildan 1909_ yilgacha, chet ellarda yashagan davri ijodi. Bu davrda marifatparvarlik motivlari bilan birga uning ijodida g'urbat va ayriliq ohanglari ham yuzaga keladi.

Furqat lirikasi

Furqat adabiy merosning katta qismini uning lirikasi tashkil etadi. Furqat klassik she'riyatimizning mavjud she'riy shakllaridan mohirlik bilan foydalandi. Furqat lirikasi o'z mohiyati bilan demokratik adabiyotga mansub bo'lib, ilg'or badiiy va g'oyaviy xususiyatlarga ega. Furqat lirikasi o'z mazmuni, umumiy ruhi va uslubi bilan feodal - klerikal adabiyotdan printsiptial farq qiladi. SHuning uchun uning ijodi realistik harakterga ega. Furqat lirikasi insonlarni turmushdan zavqlanishga chaqirdi, turmush illatlaridan nafratlanishga chaqirdi, turmush go'zalliklarini sevishga va saqlashga o'rgatadi.

Bungacha qancha kurashlar kechdi. (Diniy tasavvuflar haqida qisqacha so'z. M.Xalloy, I.G'azzoliy, Naqshbandiylar haqida va nihoyat Furqat).

Muhabbat temasi Furqat lirikasining asosini tashkil etadi.

Furqat poeziyasining lirik qahramoni uning lirik qahramoni hayotini sevadi. Furqat lirikasidagi "Fasli-navbahor", "Fasli guldur", "Bahor ayyomida", "Istar ko'ngul", "Ul qaro ko'z" va boshqa ko'p she'rlarida hayot go'zalligi tarannum etiladi. Furqat lirikasining asosiy xususiyatlari quyidagi misralarda ko'rinadi:

**Do'stlar, ayshu tarab, fasli bahor istar ko'ngul,
Har kuni sahroda sayri lolazor istar ko'ngul,
Aylamak har sori ohular ishkor istar ko'ngul,
Qibq raftorin ko'rarg'a ko'xsor istar ko'ngul.
Dog'u xursand etgusi har neki bor istar ko'ngul.**

Furqatning lirik shoir sifatida mahoratini quyidagi misralarda ham ko'rish mumkin.

**Qoshlari ostida go'y ikki faton ko'zlari
Ikki xindu bachchadurkim, yondoshib yo tortadur.**

Furqat poeziyasining eng progressiv xususiyatlaridan biri undagi erkinlik va ozodlik motivlaridir. "Sayding qo'ya ber, sayyod" musaddasi.

Furqat lirikasidagi "Hasrat, nolish, shikoyat" motivlari shoir bilan ijtimoiy muhit o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, konfliktlar natijasida tug'ilgandir.

Mustamlaka qulligi, sotsial adolatsizlik hukmronligi shoir yashagan davrining yetaktchisi xususiyatlaridan edi. SHoirning "Oh kim", "Dog'men", "Umr xush o'tma", "Oh kim hamdard yo'q" singari g'azallari ana shu davr mahsuli sifatida dunyoga keladi.

**"Bo'lmadim bir laxza forig' bu jahon tashvishidan,
Naylayin qon yig'lamay ortar damodam mehnatim..."**

"Biri" sarlavhali muxammasidan:

**Daxr aro men chekmagan jabru jafolardin biri
Qoldimu ham ko'rmagan dardu balolardan biri...**

Aforizmga aylangan yana bir bayti bor:

CHarxi kajraftorning bir shevasidin dog'men, ayshini nodon surib, kulfatin dono tortadur.

Furqat poeziyasida g'urbat motivlari:

Furqat lirikasining yana bir xususiyatlaridan biri undagi G'URBAT motivlaridir.

Bu ayniqsa shoir chet ellarda yashab yurgan paytlarida keng ishlandi. G'urbatning mazmuni va mohiyati nimadan iborat. Furqat otashin vatanparvar edi. U o'z vatani va xalqini g'oyatda sevar, uning taqdiri uchun qayg'urar edi. Hokim guruhlar uning vatanga qaytadigan yo'llarini berkitib qo'ygan edilar.

Uning "Adashganman", "Bir qamar siymoni ko'rdim", "Bechiz nest" singari g'azallarida yana shu motiv g'oyat kuchli jaranglaydi.

Keyingi davrda adabiyotimizda ona vatan dardini Furqatchalik kuchli dard bilan mukammal yoritgan olmagan shoirni kam uchratamiz. U Navoiydan so'ng adabiyotimizni "Vatan muhabbati" temasidagi ajoyib asarlar bilan boyitdi.

"Bir qamar siymoni ko'rdim" g'azalida yozadi:

**Aydi "Ey bechorai qilding na uchun tarki vatan?"
Men dedim: G'urdatda Furqat bor ekan taqdirda!"**

Bu kabi asarlari Furqatning otashin vatanparvar ekanligidan darak beradi.

"Uch xarobotiy" she'ri

Tarjiband-musaddas shaklida yozilgan va o'n besh band - to'qson misradan iborat bu she'r demokratik adabiyotdagi falsafiy lirikaning kuchli namunalaridan biridir. She'r Tarjiband-musaddas deb ataladi.

“Xarobot” - Ozarbayjondagi qishloqlardan (mahalla) birining nomi.

“Uch xorobotiy erurmiz, sokini mayxonamiz,

Uch alamkashmiz, hamisha tolibi jononamiz.

Uch qalandarmiz, qalandarxonada hamxonamiz.

Tarjiband-musaddas

“YOr bizning yorimiz, jonon bizning jononimiz,

Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz”.

degan bayt bilan takrorlanib turadi.

Furqat o'zining shunga o'xshash she'rlari bilan O'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin egalladi va mumtoz adabiyotga o'z hissasini qo'shdi.

Nazorat savollari

1. Tarjimai holini so'zlang.
2. Furqat ijodida kimlarni ta'sirini sezish mumkin?
3. Lirikasidagi asosiy motivlar nimalardan iborat.
4. G'urbat motivlari deganda nimani tushunasiz.
5. SHoir ijodining tadrijiy bosqichlarini ko'rsating
6. Lirik obrazlarga tavsif bering
7. Lirik qaxramon deganda nimani tushunasiz
8. Janr va shakl o'rtasida farq bormi?
9. Furqat she'rlarida qanday g'oyalar olg'a surilgan?
10. Adabiy merosining ahamiyati asoslari.

Tayanch atamalar

1. Furqat - ayriliq ma'nosini ifodalaydi. Ammo Zokirjon Xolmuhammad o'g'li uni chet elga ketmasdan oldin taxallus qilib olgan.

2. Axvolot - tarjimai hol ma'nosida keladi. Navoiy bu so'zni “holot” tarzida qo'llagan edi.

Tayanch tushunchalar

1. Kasbi hol va uning she'riyatdagi ahamiyati.
2. G'urbat motivlari va uning mohiyati.

Adabiyotlar

1. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1975.
2. Abdurasulov Muqimiy. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-marifat haqida. T., 1972.
3. Furqat va Muqimiy haqida maqolalar. T., 1958.
4. YUsupov SH. Furqat yo'llarida. T., 1986.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Vohidov H. Furqat – ma'rifatparvar shoir. T, 1959.
2. Xolid Rasul. Furqat. T., 1959.

MAVZU: XIX ASRNING 2-YARMIDA O'ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTIGA HISSA QO'SHGAN IJODKORLAR

REJA:

1. Komil Xorazmiy. Ijtimoiy-siyosiy faoliyati. Ijodi.
2. Avaz O'tar o'g'li hayoti. ijodining muhim qirralari.
3. Zavqiy va uning O'zbek adabiyoti ravnaqidagi hissasi.
4. Anbar otin ijodida yangicha g'oyalar talqini.

O'zbek adabiyoti tarixi (Demokratik adabiyot)

1. Komil Xorazmiy. Hayoti va ijodi.

Talantli shoir, donishmand siyosatchi, mohir bastakor, tarjimon va xattot Muhammad Niyoz Komil Xorazmiy 1825-yilda Xivada tavallud topgan. Otasi Abdullo Oxun madrasada dars bergan. To'la ismi Pahlavon Muhammad Niyoz Komil Xorazmiydir.

Arab, fors tillarini mukammal egallagan. Dastlab xon saroyida oddiy xattot, keyinroq mirzaboshi lavozimlarida ishlaydi.

Devonbegi Matmurod boshchiligidagi bir guruh mutasiblar Rossiyaga qarshi urush tarafdori bo'lgan bir paytda Komil Xorazmiy tinchlik va sulh siyosatini yoqlab chiqqan edi. Rossiya bilan 1873- yil 29- mayda tuzilgan sulh shartnomasini tekstini Komil yozgan edi. Muhammad Rahim II Komilni Matmurodning o'rniga devonbegi lavozimiga ko'taradi. Rus ma'murlaridan F.I.Libosevich Muhammadniyoz Komilning donishmandligi va tadbirkorligiga tan bergan edi. (Opisanie Xivinskogo poxoda, 1873, SPB, 1898, str. 222).

SHu davrda Xorazmda kitob bosish rasm bo'la boshlagan edi. Komil ko'plab san'at ahllariga boshchilik qildi.

1879- yilda Komilni devonbegiligidan tushirib, yana Matmurodni Kaluga guberniyasidan olib kelishadi.

Raqibu xorlar izi maob o'ldi yana afsus,

Nadomi podshoh janob o'ldi yana afsus.

Komil davlat ishlaridan butunlay chetlatilib qo'yilmaydi. U yana mirzaboshi bo'lib ishlay boshlaydi. Ikki marta xonni Moskva va Peterburgga maslahatchi sifatida kuzatib boradi (1883).

1880-81 yillarda Komilning she'riy devoni tosh bosmada nashr etilgan.

SHu yillardan boshlab qizg'in tarjimonlik faoliyati ham boshlanadi. U fors tilidan "Ravzat -s safo"ning oxirgi jildlarini, Barxurdor Turkmaning "Mahbub-ul qulub" asarini, Husayn Voiz Koshifiyning o'g'li Ali Safiyning "Latoif-uz zaroyif" asarini O'zbek tiliga tarjima qiladi.

Komil Xorazm notasini kashf qilgan. Tanbarga moslashgan bu nota orqali Xorazm kuylarini yozib oldi. Uning o'g'li Muhammad Rasul keyinchalik Xiva "SHashmaqomi"ni to'la notaga ko'chirgan edi. Bastakor sifatida ham ancha ishlar qilgan. Murabbiy Komil, "Peshrafi Feruz" kuylari hozirgacha ijro etiladi.

1890- yilda Afg'oniston tomonga safarga chiqadi. Vatan sog'inchi bilan yozilgan ushbu she'ri harakterlidir:

Ne ochilsa gul, o'lsa bahor g'urbat aro,

Mangaki bo'lmasa yoru diyor g'urbat aro.

**...CHiqay Vatan sadafidin dema guhar yanglig'
Agarchi bo'lsa senga e'tibor g'urbat aro...**

Komil 1891 va 1896- yillarda Toshkentga sayohat qildi. Uni bu yerda hurmat bilan kutib olishdi. Toshkent taassurotlari "Dar bayoni ta'rifi va tavsifi Toshkent" qasidasida o'z aksini topdi va bu asar "Toshkent viloyatining gazetisi"da e'lon qilindi.

SHoir 1899- yilda yangi asr ostonasida hayotdan ko'z yumdi.

xxx

Komil Xorazmiy yetuk lirik shoirdir. Muhammadrizo Ogahiy 1859 yilda yozgan "Gulshani davlat" asarida unga "Navras fikr va toza tab" deya baho bergan edi. SHoir devonidan 3680 baytdan ortiq she'rlari bor.

Haq so'zin shohu gado qoshida kitmon emas

Bu jihatdin hadafi tiri malomat shuaro!

Deb yozgan edi shoir. Bu uning ijodidagi yetakchi prinsip bo'ldi.

Alg'iyos az hodisoti davri davron alg'iyos,

Valg'iyos az sonihoti charxi gardon alg'iyoz.

Oh sardu chehra zardu nola dardu jism gard,

Ashk xunu qad nigunu qalb so'zon, alg'iyoz...

Do'st berahmu falak bemehr, dunparvar sipehr

Pur beparvo aqorib, dushmani jon alg'iyoz...

Komil odamlarni ikki guruhga bo'ladi: dardmandlar va kishi dardini tushunmovchi, qon to'kishdan xazar qilmovchilar.

YUtubon bu zamonda qon fuzalo,

Kulfat o'qig'adur nishon fuzalo.

YOki:

Kumalo tutsa netong vartai zillatda maqom,

Toptilar masnadi izzatda sadorat juhalo.

O'zi saroyda turib quyidagi misralarni bitishi diqqatga sazavordir:

....O'tkardi ro'zani ebon ahli g'ino shakar,

Bechoralar saharligi iftori bir kuloj.

Atfoli ag'niyo olib iyodonag'a tillo,

Qashshoqlar bolasi diram topmay, oldi koj...

SHohi liboslar kiyibon barcha xoslar,

Ma'lum bo'ldi kim siniqu kim rivoj...

Komil shoir sifatida tobora kamol topdi. Uning she'rlari hayotligidayoq el-yurt tomonidan yod oldindi, qo'shiqqa aylandi:

Qaysi falak burjnining mehri puranvorisan?

Qasi sadaf durjining gavhari shahvorisan?

Qaysi Xo'tan ohusi, nofai tortisan?

Qaysi chamanzorining lolavu gulnorisan?

So'yla ey sanam, kimning sevar yorisan?

AVAZ O'TAR HAYOTI VA IJODI

Avaz O'tar o'g'lining tarjimai holi.

Avaz O'tar o'g'li 1884- yil 15- avgustda Xiva shahrida hunarmand oilasida dunyoga keldi.

Avazning otasi Polvoniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'li bo'lib, sartaroshli kasbi bilan shug'ullanar edi.

Avazning otasi adabiyot shinavandasi bo'lganligi uchun uning xonadoniga zamonaning mashhur shoir va san'atkorlari tez-tez to'planib turishar edi. Bu esa Avazning adabiyot bilan oshno bo'lishiga samarali ta'sir etdi.

Avazni 8 yoshida maktabga berdilar. O'n bir yoshida Xiva madrasalaridan biriga o'qishga kirdi.

Avaz 14 yoshidan boshlab she'rlar yoza boshladi. 18 yoshida esa shoir sifatida tanildi. YOsh shoirning dovrug'ini eshitgan Muhammad Rahimxon II (Feruz) uni saroyga tortdi. SHuning uchun bo'lsa kerak, Avazning dastlabki ijod namunalarida saroy muhitining ta'siri sezilib turadi. U saroy shoirlariga ergashib, formalistik harakterdagi she'rlar, qasidalar yozdi.

Ammo bu uzoq davom etmadi. U asta-sekin saroy muhitining chirkin jihatlarini anglab yeta boshladi. Endi u o'ziga ma'naviy oziq beradigan progressiv adabiyot traditsiyalariga murojaat qila boshladi. (Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy).

Komil Xorazmiydan so'ng Avaz O'tar adabiyotda ilg'or xalqparvarlik g'oyalarining Xorazmdagi qizg'in targ'ibotchisi bo'lib yetisha boshladi.

O'z zamonasining illatlarini ayovsiz fosh qilishga kirishgan Avaz saroy doiralaridagi reaksion guruhlarining ta'qibiga duchor bo'ldi. SHoir dinsizlikda, shakkoklikda ayblandi. Turli bo'hton va fitnalar tufayli Muhammad rahimxon II ning yasovullari shoirni zanjirband qilib xon huzuriga keltiradilar. SHoirni toshbo'ron qildirmoqchi bo'lgan xon xalq g'azabidan qo'rqib, uni 200 darra urishga buyruq beradi.

Kaltak zarbidan xushini yo'qotgan shoirni "Jinni" deya e'lon qiladilar va uni Xiva yaqinidagi Oqmachit qishlog'ida, "Bobo eshon" go'ristonida uya qurgan shayxlar ixtiyoriga yuboradilar. 1909- yilning yoz faslida xonning ana shunday marhamatiga sazovor bo'lgan. SHoir 1909- yilning oxirlariga boribgina banddan xalos bo'ladi.

Jismonan zaiflashib qolgan Avaz shundan so'ng ota kasbini davom ettirib, sartaroshlik qila boshlaydi.

Avaz shu davrda chiqqan rus, ozarbayjon, tatar tillarida chiqib turgan gazetalarni mutolaa qilib bordi. Toshkentda chiqadigan gazeta va jurnallar bilan bevosita aloqada bo'lib, ijodidan namunalarni e'lon ham qildirdi.

Avaz O'tar asarlari "maktab", "Til", "Topar ekan qachon", "Fidoiy xalqim" singari ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlar bilan satira janrida ham samarali qalam tebratdi. Uning "Ulamolarga", "Sipohiylarga", "SHayx", "Pora istar" kabi keskin tanqidiy asarlari xalq qo'lidagi reaksionerlarni fosh qiluvchi qurolga aylandi.

Avaz O'tar xon va uning malaylari ta'qibidan qutula olmadi. Muhammad Rahimxondan keyin taxtga ashaddiy mutaassib va qonxo'r Asfandiyorxon ham unga o'z zulmini o'tkazdi. Asfandiyorxon ham sog'ligi nochor bo'lgan shoirni 150

darra bilan “siyladi”. Bu voqeadan so’ng Avaz O’tar sil kasali bilan og’rib yotib qoldi. SHoir o’zi ehtiros bilan kuylagan ozodlik kuylarini 1919 yilda navqiron 35 yoshida vafot etdi.

Avaz O’tarning ijodiy merosi.

SHoirning ijodiy yo’li qisqa lekin sermahsul bo’ldi. Avaz O’tar asosan poeziya sohasida qalam tebratdi. U O’zbek klassik she’riyatining keng tarqalgan barcha janrlarida samarali ijod qildi va ajoyib asarlar yaratdi. SHoir o’z she’rlaridan devon tuzib, uni “Saodat-ul-iqbol” deya nomlaydi. (Baxtli iqbol). SHuningdek uning asarlaridan namunalar 19-asrning oxiri 20-asrlarning boshida tuzilgan barcha bayozlarda uchraydi. Ba’zi malumotlarga qaraganda Avaz O’tarning merosi 20 ming misradan oshiqdir.

Avaz O’tar ijodining taraqqiyot bosqichlari.

Avaz O’tar ijodining taraqqiyot bosqichini shartli ravishda quyidagi 3 bosqichga ajratish mumkin.

1. Ijodining ilk davri. Bu davr izlanish davri bo’lib, ma’lum darajada saroy adabiyoti ta’siri bo’ldi.

2. 1905 yildan 1914 yilgacha bo’lgan davr. Bu davrda shoir demokrat sifatida O’zbek adabiyotining eng yaxshi traditsiyalarini davom ettirdi.

3. Bu davrda (1919 yildan umrining oxirigacha) shoir yana ham izchil pozitsiyada turdi, ma’rifatparvarlik va ozodlik motivlarini ilgari surdi.

Nazorat savollari

1. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy sharoitning badiiy adabiyotga taosiri shu davr adabiyoti misolida nimalarda ko’rinadi?

2. 19-Asrning 2-yarmi ijodkorlari urg’u bergan asosiy g’oyaviy yo’nalishlar qaysilar?

Tayanch atamalar

1. Manzuma - she’rga solingan biror voqea, hodisa.

2. Adabiyotning progressiv ahamiyatini belgilovchi omillar.

Tayanch tushunchalar

1. Demokratik yo’nalishning mazmuni, mohiyati.

Adabiyotlar

1. Karimov G’. O’zbek adabiyoti tarixi. T., 1975.

2. YUnusov M. Komil Xorazmiy. T., 1960.

3. Razzoqov Xorazmiy. Zavqiy hayoti va ijodi. T., 1955.

4. SHarifiy J. Avaz O’tar o’g’li. T., 1848.

5. YUsupov YU. Demokrat shoir Avaz O’tar o’g’li. T., 1951.

6. Husayinova F. Demokrat shoira Anbar otin. T., 1964.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. YUnusov Muqimiy. Sahiy qalamlar. T., 1975.

2. O’zbek adabiyoti tarixidan materiallar. T., 1961.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Asarlar. 1-14 tomlar. 1990-2004
2. M.Koshg'ariy. Devoni luga'tit turk. 1-3 tom.
3. Q.Karimov. Ilk badiiy doston. 1976
4. Q.Mahmudov. Ahmad Yugnakiy, 1976
5. Qadimgi Hikmatlar. 1987
6. Mangu buloqlar. 1987
7. Alisher Navoiy. 15 tomlik asarlari. 1966-67
8. Alisher Navoiy. Xamsa. 1960
9. Yo.Ishoqov. Navoiy Poetikasi. 1983
10. Uzb tarixi. 1-5 tomlar. 1977
11. Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. 1974
12. Oybek. Navoiy gulshani. 1967
13. Nisoriy, Muzakkir ahhob, 1993
14. Ibrohimov A. XVI asr o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. 1976
15. Mallayev O'zbek adabiyoti tarixi, T. 1965
16. N.Komilov Tasavvuf 1-2 tom. T. 2000-2002.
17. Adabiyot nazariyasi, 1-2 tomlar, T., 1978
18. Aristotel. Poetika, T., 1980
19. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixidan, T. 1993
20. Amir Temur. Temur tuzuklari, T. 1991
21. Bobur. Boburnoma, T. 2002
22. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi, T. 1994
23. Davlatshoh Samarqandiy. She'rlar bo'stoni, T. 1981
24. S.Rafiddinov. Majoz va haqiqat, T. 1994
25. A.Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati, T.1976
26. Abdullayev. O'zbek adabiyoti tarixi, T. 1980
27. G'.Karimov. O'zbek adabiyoti tarixi, T. 1975
28. R.Orzibekov. Lirikada kichik janrlar, T.1976
29. A.Qayumov. Qo'qon adabiy muhiti, T. 1961
30. Kaykovus. Qobusnoma, T. 1967

MUNDARIJA

Kirish. O'zbek adabiyoti tarixining predmeti va taraqqiyot bosqichlari.....	2
Axmad Yassaviy "Hikmatlar"ida tarix va hayot sadosi	6
Ma'nisiga yetganlar, yerga qo'yar bo'rkini!!!	10
So'fizm va Axmad Yassaviy	17
Axmad Yassaviy asarlarining tili	21
Haydar Xorazmiy ijodi adabiyotshunoslar talqinida	23
"Gulshan-ul-asror"da ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy masalalar	32
Shoir asarlarida badiiy-tasviriy vositalar	37
XORAZMIY	42
QUTB	44
DURBEK	45
SAKKOKIY	47
Mavlono LUTFIY	49
Boboraxim MASHRAB	52
Shermuxammad MUNIS	55
Jahon Otin UVAYSIY	59
OGAHIY hayoti va ijodiy faoliyati	61
XIX asrning ikkinchi yarmi adabiyoti	66
Muqumiyning hayoti va ijodi	70
Zokirjon Xolmuxammad o'g'li FURQATning hayoti va ijodi	73
XIX asrning 2-yarmida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga hasa qo'shgan ijodkorlar	78
Avaz O'tar hayoti va ijodi	80
Adabiyotlar	82

